

V. QO'CHQOROV, O. MAHMUDOV, Z. ZAMONOV

MA'NAVIYAT ASOSLARI

*O'rta umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari
va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari
uchun darslik*

Tuzatilgan ikkinchi nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan*

Toshkent
«Yangiyo'l Poligraf Servis»
2018

UO'K: 17.022.1(075.3)

KBK: 87.60(5O')

Q 97 **Qo'chqorov, Vahob.**

Ma'naviyat asoslari: O'rta umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V. Qo'chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov. - Ikkinchi nashr. - Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018. - 144 b.

ISBN 978-9943-5244-3-9

UO'K: 17.022.1(075.3)

KBK: 87.60(5O')ya72

Mas'ul muharrir:

A. Xolbekov

— sotsiologiya fanlari doktori, professor.

N. Ismatova

— O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi xodimi.

Taqrizchilar:

Sh. To'rayev

— Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ilmiy ekspertiza bo'limi boshlig'i, falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

D. Bozorov

— O'zMU «Falsafa va mantiq» kafedrasida dotsenti;

A. Xolov

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi katta ilmiy xodimi;

M. Xoliqova

— Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTMO hududiy markazi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

D. Ergasheva

— Toshkent shahar Sergeli tumani 8-sonli umumta'lim maktabining «Ma'naviyat asoslari» fani o'qituvchisi.

Respublika Ta'lim markazining «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani bo'yicha ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-5244-3-9

© V. Qo'chqorov, O. Mahmudov, Z. Zamonov. 2017-2018.

© Yangiyo'l Poligraf Servis, 2017-2018.

Kirish

Aziz o'quvchi! Dunyoda har bir narsaning o'zagi, mohiyati bo'ladi. Odamzod mohiyatini uning yaratuvchanligi, mustahkam irodasi, din-u diyonati, boshqalarga xolis yordamga kelishi, boshiga ofat-g'am tushganida hamdardlik bildirishi, shodligiga sherik bo'lishi, mehr-oqibati, bir so'z bilan aytganda, go'zal ma'naviy olami tashkil etadi.

Shunday ekan, ma'naviyat kishining xulq-u odobida qanday namoyon bo'ladi? Mana, masalan, Siz o'zingizdan katta yoshdagilarga birinchi bo'lib salom berasiz, chunki ota-onangiz shunday tarbiya bergan. A'lo baholarga o'qishga intilasiz, chunki ustoz-murabbiylardan shunday ta'lim olgansiz. O'quv daroghida, jamoat joylarida umuman uyatli, qo'pol so'zlarni ishlatmaysiz, chunki bunga ichki madaniyatingiz yo'l qo'ymaydi. Vatanni sotmaysiz, chunki u vijdonni, o'zlikni sotgan bilan barobar! Bularning barchasi chiroyli xulq-atvoringiz, qalbingiz ma'naviy go'zalligi, ezgu e'tiqodingizning mustahkamligi tufaylidir. Demak, ma'naviyat insoniyat ichki olamining nafis va nodir boyligi bo'lib, kishilarni ulkan bunyodkorliklar sari yetaklaydi. Ma'naviyati yuksak insonlarning ko'payishi esa kuchli fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston xalqi va davlati tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar insoniy oliyanoblik fazilatlarini va yuksak ma'rifat tuyg'ulari bilan uyg'unlikda olib borildi. Xususan, qadimiy obidalarimiz tubdan qayta tamirlandi, qadimiy asarlar, bitiklar nashr etilib, keng jamoatchilikka taqdim etildi, urf-odatlar, qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlarning milliy qadriyatlarini hamda an'alariga nisbatan yuksak ehtirom, hurmat ko'rsatildi va h. k.

Bugun mamlakatimizda millatlararo tinchlik, totuvlik, hamjihatlik barqaror. Darhaqiqat, O'zbekiston davlati uning hududida yashovchi barcha xalq, millat va elatlarning manfaatlarini birdek himoya qiladi, birdek qo'llab-quvvatlaydi.

Ma'naviy yuksalish, milliy o'zlikni anglash tarixiy ong va tarixiy xotirasiz rivojlanmaydi, mukammal shakllana olmaydi.

«Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida «...hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimaning qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishni, bugungi tez o'zgarayot-

gan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur», deya ta'kidlanadi.

Mana nima uchun yurtimizda Xotira va qadrlash kuni nishonlanadi, buyuk ajdodlarimiz ruhi poklariga nisbatan yuksak ehtirom ko'rsatiladi. Shu ma'noda yurtimizda yangi o'quv yilining birinchi kuni, ya'ni 2-sentabr sanasi — Mustaqil O'zbekiston davlatchiligining asoschisi Islom Karimovning yorqin xotirasiga bag'ishlanishi ham bejiz emas.

Maqsadli yashab o'tilgan hayot mazmunli va barakali bo'ladi. Xuddi shu singari, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yib yashayotgan davlat ham tarix zarva-raqalarida o'chmas iz qoldiradi. Bugun O'zbekistonimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirish yo'lida qabul qilingan Harakatlar Strategiyasining asosiy maqsadi ham xalq manfaatlarini ta'minlashga, tinch va farovon turmush kechirish uchun zarur bo'lgan omillarni yaratishga qaratilgani bilan e'tiborlidir.

O'zbek xalqidagi bir-biriga bo'lgan mehr-oqibat, samimiylilik, kattalarga hurmat, ayniqsa, ota-onani qadrlash va ular keksayganda g'amxo'rlik qilish ko'pgina dunyo xalqlari uchun ibrat sanaladi. Bizning bu qadriyatlarimiz aynan oilada shakllanib, so'ng jamiyatning ma'naviy rivojiga hissa bo'lib qo'shiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ma'naviy yuksalishning samarasini yangi bosqichga ko'tarish xususida to'xtalarkan, «...biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur», deya uqtiradi.

Mazkur darslikda o'quvchi-yoshlarning qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini singdirish, ularni ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan matonatli, fidoyi, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash maqsadida ma'naviyatning tub mohiyatiga kirib borishga harakat qilindi. Har bitta mavzuning boshida faollashtirish uchun savol va topshiriqlar berilgan. Aksariyat vaziyat va misollar Siz va tengdoshlaringiz hayotidan keltirilgan. Bular sizning quyi sinflarda olgan bilimlaringizni yodga olishda o'ziga xos imtihon vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari, har bitta mavzu oxirida «Dars sabog'i» va «Chiston-topishmoq» berilgan. Ularni diqqat bilan o'qing, «chiston-topishmoq»larning javobini oila a'zolaringiz bilan birgalikda muhokama qiling. Ular dunyoqarashingiz, fikr-mushohadangiz yanada kengayishiga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Aziz o'quvchi! Mualliflar jamoasi «Ma'naviyat asoslari» fanini puxta va chuqur o'zlashtirishda muvaffaqiyatlar tilaydilar.



1-§

Ma'naviyat — beqiyos kuch



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ushbu rasmlar asosida ma'naviyatga ta'rif bering va ma'naviyatga ta'sir etuvchi omillarni izohlang.
2. Ma'naviyat qachon yengilmas kuchga aylanadi?
3. Tarixiy qadamjolarga borganingizda qalbingizda nimalarni his etasiz? Qanday ma'naviy-ruhiy quvvat olasiz? Nima uchun bunday holat yuz berishini hech o'ylab ko'rganmisiz?



Ma'naviyat — inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan yengilmas kuch.

Ma'naviyat asosini jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushunchalar tashkil etadi.

Inson ma'naviyatining shakllanishida tarixiy xotira alohida ahamiyatga ega. Ertalab uyqudan uyg'ongan inson tasodifan o'zining kim ekanligini, ismi, sharifini unutib qo'ysa, atrofidagi yaqin insonlarini tanimay qolsa, bu holat o'sha inson, uning oilasi uchun katta fojia.

Agar millat o'zining kim ekanligini unutsa, bu o'sha millat uchun ulkan halokatdir.

Dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyligini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. O'zligini yo'qotgan millat esa, hamisha qullikka mahkumdur.





BILIB OLING

Tarixiy xotira mas'uliyatini chuqur his etish, jamiyat oldidagi daxldorlik, avlodlar oldida o'z burchini bajarish majburiyatini shakllantiradigan tarbiya, «Kecha kim edig-u, bugun kim bo'ldik», degan tamoyildir.

O'z xalqi va yurti tarixini chuqur bilish, uni tinimsiz o'rganish, ajdodlarining savobli ishlarini munosib davom ettirgan holda boy merosini asrab-avaylash, o'tmishdan saboq chiqarish, tarixda ro'y bergan voqea-hodisalarni xolis baholash, ularning oqibatini to'g'ri tushunish aqli raso inson hayotining mazmunidir.

Inson o'zining tarixiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi, kelajagini to'g'ri tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlar har xil aqidalar ta'siriga tushub qolmaydi. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

Ma'naviyatning negizi va ma'no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar — insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishidir.



MULOHAZA UCHUN

1. Mazkur hikoyani o'qing. «Vatan — oila — sulola» tushunchalari mohiyatini izohlang.
2. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nega aynan keksa yoshdagilar bilan suhbatlashganimizda «kimning farzandisiz, ota-onangiz kim, shajarangizni, katta bobolaringizni bilasizmi?» — deb so'rashadi?

SULOLALAR RAVNAQI

Xalqimizda «Vatan ostonadan boshlanadi», deyishadi. Ostona bu — uy, xonadon, oila, demak. Ma'lum bir oilalar avlodi esa sulola hisoblanadi. Qaysiki, sulola a'zolari el-yurt manfaati yo'lida xizmat qilib, xalq orasida obro'-e'tibor toparkan, bu yo'l qolganlar uchun ibratlidir. Lekin, har qanday oila, sulola ham o'z-o'zidan ana shunday mavqega ega bo'lishi mushkul. Buning uchun, ushbu sulolaga mansub bo'lgan kimdir uning ravnaqi uchun ilk marotaba «yo'l ochadi», boshqa bir a'zosi esa, bu an'anani mazmunan kengaytiradi.

Masalaning muhim tomoni — sulolalar obro'sini saqlab, ushbu sharafli ishni davom ettiradigan zurriyotlarni voyaga yetkazishdan iboratdir...

«Farzandnoma»



Ma'naviyat — insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Hayotimizda halol va pok yashash kabi oliyjanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, hayotning ma'no-mazmunini o'zicha talqin qiladigan kimsalar ham bor. Ular o'zlarini boshqalardan har tomonlama ustun qo'yib, baxt qushi boshiga qo'ngandek his qiladilar. Bunday holatlarni kuzatsangiz, qalbingizda hech qanday ikkilanish va shubha paydo bo'lmasin. Chunki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovatpeshalik va kamtarlikka chaqiradi.

To'g'rilik, halollik, tirishqoqlik, tejamkorlik, mehnat-sevarlik, shaxsiy ibrat kabi go'zal fazilatlar-u xususiyatlarga ega bo'lish, ularga doimo amal qilib yashash — komil insonning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezonlar sanaladi.

Bugungi tezkor zamonda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina o'z milliy qadriyatlarini yuksaltirish orqali o'zligini teran anglashi, erkin va ozod O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik ko'rsata olishi mumkin. Mamlakatimizda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan yurtodoshlarimiz ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib kelmoqda.

Insoniyat tarixi ma'naviyatsiz kishida hech qachon odamiylik, mehr-oqibat singari fazilatlar bo'lmasligini tasdiqlaydi.

«Odamlar!
Eng avvalo ezgu
axloqqa ega
bo'lishga harakat
qiling, zero,
axloq qonunning
asosidir».

Pifagor



1



2



3



4

Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Ma'naviyat insonning ong-u shuuriga yillar davomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo'lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o'ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne'mat-u va go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga ruhiy ozuqa beradi, uni yanada kuchaytiradi.

Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy omillar *ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar*dir. Shuning barobarida *ilm-fan taraqqiyoti* va uning *inson ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni* muhim hi-



IJODIY FAOLIYAT

1. Ma'naviyat qanday qilib odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qilishida namoyon bo'ladi? Fikringizni 1-, 2-, 3-rasmlar bilan bog'lab asoslang.
2. 4-rasmda berilgan tasvir sizda qanday fikr uyg'otdi? Bunday holatni oldini olish mumkin-midi?
3. Bugungi kunda ma'naviyatga qanday tahdidlar mavjud?
4. Matnni o'qing va undagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy qarashlar tushunchalari haqida fikr bildiring.

Ma'naviyat — insonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy qarashlarini belgilab beruvchi muhim vosita.

soblanadi. Barkamol farzand tarbiyasini *mahalla, oila, ta'lim-tarbiya* uyg'unligisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aynan shular inson ma'naviyatini shakllantirishda asosiy mezonlar hisoblanadi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. Chunki bu tabarruk zaminimizda qanchadan-qancha buyuk zotlar, olim-u ulamolar, sohibqiron-u sarkardalar yetishib chiqqanlar. Ular umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan, dunyoviy, ayniqsa, diniy bilimlarni tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarishgan.

Dars sabog'i. Irodasi baquvvat, iymoni butun, ezgu e'tiqodi mustahkam, vijdoni uyg'oq, ruhan pokiza bo'lgan inson jamiyatimiz ma'naviy olamining gultoji, fazilatli insonlarning peshqadami sanaladi.



BILIB OLING

Ma'naviy hayotda ham amaliy hayotdagidek, kimki bilimga tayansagina kamol topadi va yutuqlarga erishaveradi.
«Tafakkur gulshani»



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. «Xalqning eng buyuk boyligi» deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobidan ma'naviyatga oid tushunchalarni o'qib mavzu bilan bog'lang.
3. Inson ma'naviyatining o'lchovi nimada, deb o'ylaysiz?



CHISTON-TOPISHMOQ

Barchaga birdek xush yoqadi. U kim?



2-§

Inson ma'naviyati va o'zlikni anglash



1



2



3



4



5



6

FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:



1. Abdulla Avloniyning quyida berilgan fikrini o'qing. Mazkur fikrni o'zlikni anglash, inson baxti, komilligi kabi tushunchalar bilan bog'lab tushuntiring.

«Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqar».

2. «Inson o'zligini anglagani sari uning ma'naviyati ham yuksalib boradi», deganda nimani tushunasiz?
3. Inson jamiyatda yashashdan qanday ma'naviy manfaatdor? Uning barcha ezgu fazilatlarini o'lchashni, chegaralashning imkoni bormi? Fikringizni asoslang.
4. 2-, 3- va 5-rasmlar asosida «insoniyatni ezgulikka yetaklaydigan mo'jizakor zot» tushunchasiga izoh berib ko'ring.
5. 1-, 2-, 4-, 6-rasmlardagi yigit va qizlar misolida «o'zlikni anglash» tushunchasiga ta'rif bering.



Insoniyat bu yorug' olamda, asosan, besh narsaga, ya'ni «biz kimmiz», «qayerdan keldik», «ne yumush bilan mashg'ul bo'ldik», «nima topdik», «qayerga ketamiz» kabi hayotiy savollarga turlicha javob topishga harakat qiladi. Inson o'zligini anglagan sari bu savollarning javobini topib boraveradi.

O'zlikni anglash, bu urf-odat, an'ana va qadriyatlar orqali yon-atrofidagilar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatini tushunish, anglash demakdir. O'zlikni anglash uch darajada bo'ladi:

- **birinchisi**, oilada va uning muhitida individning shaxs darajasi sari shakllanib borishi;
- **ikkinchisi**, maktab va ma'lum bir jamoada o'qishi hamda faoliyat yuritishi orqali boshqalar bilan munosabatda bo'lishi;
- **uchinchisi**, o'zgalar tomonidan shaxsning baholanishi, nazorat qilinishi va qadrlanishida kuzaatiladi.

Shu bilan birga, o'zlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi.

Insonning insoniyligini belgilovchi muhim xususiyatlardan biri madaniy-ma'naviy sifatlarga ega bo'lishdir.

Inson jamiyatning gultoji. U jamiyatni obod etishi yoki aksincha barbod qilishi mumkin. Inson o'z mehnati orqali yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'z-o'zini takomillashtirib boradi.

Inson toki tirik ekan, niyati faqat ulug'vor ezgu ishlariga yo'naltirilgan bo'lsa, bundan eng birinchi navbatda uning

«Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi».

Islom Karimov

«Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur».

Abdulla Avloniy



IJODIY FAOLIYAT

Quyidagi matnni o'qing va matndagi «vatanparvarlik» tushunchasini o'z hayotingiz bilan bog'lab tushuntiring.

Vatanparvarlik — inson qusurlarini yashirib, hayotning qaltis va murakkab damlarida mas'uliyatni zimmaga oldiradigan hamda jasoratga yetaklaydigan qudratli kuchdir.

Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

Abu Nasr Forobiy

«Bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash — odamiylikning eng oliy mezonidir».

Shavkat Mirziyoyev



MULOHAZA UCHUN

1. Inson o'zligini angashida ilm-fanning o'рни nimadan iborat?
2. Quyidagi matnni o'qing. Gegelning bilish va o'zlikni anglash haqidagi fikrini mavzu bilan bog'lab tushuntiring.

Bilishning haqligi o'zini anglashdadir, o'zini anglash esa bilishning asosidir, chunki boshqa predmetni har qanday bilishning mavjudligi o'zini anglashdadir. Men bilamanki, predmet meniki (u mening tasavvurim), shuning uchun uni bilganimda o'zimni anglayman.

oilasiga va yaqin insonlariga manfaat yetadi, o'zi esa ma'naviy yuksalib, komillik darajasiga erishib boraveradi. Zero, komil insonning aql-tafakkuri faqat bunyodkorlik va olijanoblikka xizmat qiladi, ko'zi faqat yaxshiliklarni ko'radi, qulog'i faqat ibratli so'zlarni eshitishga moyil bo'ladi.

Kishining o'zligini anglashi jamiyatda mavjud bo'lgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar asosida shakllanadi. Bu jarayon jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida sayqallanib, rivojlanayotgan qadriyatlar tizimi sifatida kundalik hayotda muhim o'rin tutadi.

Bilim — ta'lim-tarbiyaning boshi, baxtli, saodatli yashash asosi. Shuningdek, odamiylikni ulug'lovchi qadriyat, sirlar ummonidagi dunyo mohiyatidan voqif etuvchi bebaho xazinadir. Har bir inson odob o'rganishi, barcha zaruriy kasb-hunar hamda bilimlarni egallab, iqtidorini yuksaltirib borishi lozim. Umr deb atalmish hayot yo'lida uchraydigan turli sinov, qiyinchilik, muammolarni bartaraf etishda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari unga doimo asqotadi.

Demak, odamzod nimagaki harakat qilsa — xoh yaxshilik, xoh yomonlik bo'lsin, avvalo, uni o'zining manfaati uchun qiladi. Bilim olish, foydali kasb o'rganishdan boshqa g'ami bo'lmagan beg'ubor yoshlik damlarini, iqtidorli qobiliyat va o'tkir zehni bo'lmag'ur va foydasiz

ishlarga sarflash — har bir kishi uchun oʻzini-oʻzi kechira olmaydigan xatolardandir.

Imtsizlik shunday razolat botqogʻiki, u kishi qalbida umidsizlik, ertangi kunga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Razolat botqogʻiga botgan inson esa oʻzligini yoʻqotadi.

Dars sabogʻi. Inson — dunyo mohiyatining durdonasi, maʼnolar mezoni, pokiza qalb va muloyim tiynat sohibi, xushxulqlik egasi, bani-basharni ezgulikka yetaklaydigan moʻjizakor zot. Bu betakror xilqat bir vaqtning oʻzida butun borliqni bogʻ-u boʻstonga aylantirish, farovon turmush tarzini bunyod etish va shu bilan birga, kurrai zaminni qirgʻinbarotlar maydoniga aylantirish qudratiga ega. Odamzodning borligi va borligʻi ham mana shunda.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Oʻzlikni anglashda tarixiy xotira, ilm-fanning oʻrni qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Inson nima uchun oʻzligini anglashi lozim?
3. Oʻzlikni anglash va inson maʼnaviyati oʻrtasida qanday bogʻliqlik bor?
4. Quyidagi hikmatlarni oʻqing, ularni mazmun-mohiyatini oʻzlikni anglash tushunchasi bilan bogʻlab koʻring:
 - a) «Oʻzingni majburlamasang, hech narsaga erishmaysan»;
 - b) «Kitob oʻtmishdan ham, kelajakdan ham xabar beruvchi»;
 - d) «Birovni muhokama qilish oson, mard boʻlsang, oʻzingni-oʻzing tahlil qil».



CHISTON-TOPISHMOQ

Har kimning ham qoʻlidan kelavermaydi. Ular nimalar?



TARIXGA NAZAR

«5 yoshida savodi chiqqan, 10 yoshida arifmetika, algebra, mantiqni oʻrgangan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino oʻzi haqida shunday maʼlumotlarni qoldirgan: «Ertayu, kech men fandan boʻlak ish bilan shugʻullanmadim. Kechalari oldimga sham qoʻyib oʻqirdim, yozardim. Qattiq uyqu bosib, pinakka ketganimda ham kunduzlari bosh qotirgan masalalarni oʻylardim. Koʻpgina muammolarni men uyquda yechdim. Barcha fanlarni chuqur oʻzlashtirmagunimcha shunday tarzda hayot kechirdim».

Hamdam Sodiqov,
«Rasmlarda tarixiy
lavhalar»




3-§

Oila ma'naviyati



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:



1. Rasmlardan foydalangan holda oila ma'naviyati haqida o'z tushunchangizni ayting.
2. Oilaning muqaddasligi nima bilan o'lchanadi?
3. Oilaga ta'rif berilganida, «Oila — Vatan ichidagi vatandir», deyiladi. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Javobingizni asoslang.
4. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanidan oilaviy qadriyatlar yoritilgan qanday matnlarni o'qigansiz?



Oila — Vatan timsoli. Negaki, oila va vatan tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Vatan tuyg'usi oiladan, ona bag'ridan boshlanadi. Oila esa jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy boyligi hisoblanadi.

Oiladagi muhit insonning o'ziga xos ma'naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodining shakllanishida, yuksalishida muhim omil bo'ladi. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari aynan oila bag'rida shakllanadi.

Xalqimizda kishining qanday ekanligi, uning o'zini tutishi, tarbiyasi, fe'l-atvori oilasiga bo'lgan munosabat bilan baholanadi. Bu esa uning jamiyatda o'z o'rnini topishida muhimdir.

Oilada yozilmagan shunday qonun-qoidalar bor-ki, ular necha asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib,

sayqal topib kelaveradi. Kattalarni hurmat qilish, kichiklarga nisbatan izzatda bo'lish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha oilaning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

Bu muqaddas dargohda nafaqat farzand dunyoga keladi, balki ma'nan va axloqan go'zal tarbiya egasi bo'lgan inson voyaga yetadi. Oila shunday makonki, unda avlodlar kamol topadi. Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi, sog'lom avlodning yaralishi yo'lida doimo e'tiborda bo'lgan. Bunday g'oyalar avlodlar qalbi va ruhiyatiga singdirib borilgan.

Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvat va oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi. Zero, sog'lom tarbiya tufayli oila a'zolari o'rtasida o'zaro yakdillik, fikrlar uyg'unligi, maqsadlar mushtarakligi yuzaga keladi.



TARIXGA NAZAR

Temuriy shahzodalarining tarbiyasi asosan ularning momolari zimmasida bo'lgan. Saroymulxonim Shohruh Mirzo, suyukli nabiralari Muhammadsulton Mirzo, Halilsulton Mirzo va Ulug'bek Mirzolar tarbiyasi bilan shug'ullangan.



MULOHAZA UCHUN

1. Berilgan matnni o'qing. Matndagi «fayz-barakat, ibrat, tarbiya, to'kin-sochinlik, shod-u xurramlik» tushunchalariga o'z munosabatingizni bildiring.
2. «Farzand go'zal tarbiya merosxo'ri» deganda nimani tushundingiz? Siz bu borada qanday merosga egasiz?

TOTUV OILA — JAMIYAT TAYANCHI



Oilada ota — fayz-barakat, ibrat timsoli, ona — mehr-muhabbat, tarbiya ochog'i, farzand esa go'zal tarbiya merosxo'ridir. Ayni shunday xonadonda to'kin-sochinlik, shod-u xurramlik, o'zaro hurmat va totuvlik mujassam. Bunday muhitda voyaga yetgan farzanddan barcha manfaat topadi. Bunday oilalar kamoli oxir-oqibat jamiyat farovonligiga munosib hissa qo'shadi.



Farzand tarbiyasi! Qanchalik mukammal, sinoatga to'la, insoniy muomala-munosabatlar umumlashgan ushbu kalomda. Yaxshi farzand — ota-onaning bebaho mulki, qalb gavhari, muborak siri va ulkan kashfiyoti. Uning kamolidan ota-onaning ko'ngli nurafshon bo'ladi, hayoti zavq-shavqqa to'ladi. Bu sharafga ega bo'lganlar hurmat va izzat tojini kiyadilar, dunyo donishmandlariga aylanadilar. Aksincha, noqobil farzandning nojo'ya xatti-harakatidan ota-onaning qaddi bukiladi, dili ozor chekadi, tarbiyada yo'l qo'ygan xatosi oqibatida pushaymonlik dardiga giriftor bo'ladi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Berilgan rasmlarda oilalarga xos bo'lgan qanday qadriyatlar aks etgan?
2. Sizning oilangizda ushbu qadriyatlarning qaysilari mavjud?
3. Ushbu hikoyada qanday qadriyatlarimiz tilga olindi? Bu qadriyatlarning shakllanish makoni qayerda?

«GIRGITTON BUVINING YAPON NEVARASI»

«... Xay-xay, girgitton, tegma, tegma, yong'oqqa! — Shunday deb ildam keldi-da, qo'limdagi yong'oqlarni olib, pastak devor osha naryoqqa uloqtira boshladi.

So'ng xazon orasida yotgan boshqa yong'oqlarni ham enkayib tergancha, devor ortiga tashladi. Buvining bunday «qizg'anchiq»ligiga hayron bo'lib turib qoldim. Nihoyat to'kilgan yong'oqlar qolmaganiga ishonch hosil qilgach, qo'limdan yetakladi. «Yuraqol, girgitton, sanga boshqa yong'oq beraman!» Shunday deb, pastak bostirmaga olib kirdi-da, savatda uyilib yotgan yong'oqlardan hovuchlab olib, do'ppimni to'ldirib berdi...»

O'tkir Hoshimov, «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»

Darhaqiqat, kishining baxtsizligi, uning tarbiyasizligida. Tarbiyasiz kishida ma'naviy yuksalish bo'lmaydi, fikrlash darajasi rivojlanmaydi. Unda vatanga, oilaga xiyonatkorlikka moyillik tuyg'usi shakllanib boradi. Bunday inson mohiyatan «yalong'och» bo'lib, aynan go'zal odob, ibratli axloqqa asoslangan ta'lim-tarbiya uni «kiyintiradi», zeb beradi, yuksaltiradi, ma'naviy barkamollik sari eltadi.

Qayerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va barqaror bo'ladi. Dunyoda yuz beradigan har qanday o'zgarishlar, xoh u iqtisodiyotda, xoh ma'naviy-siyosiy sohalarida bo'lsin, o'z ta'sirini avvalambor oila muhitida namoyon etadi.

Har bir millatning saodati va ravnaqi, albatta, shu xalqning ichki intizomi hamda totuvligiga bevosita bog'liq. Tinchlik, totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi.

O'zbekistonda oila davlat muhofazasida. Zero, oilaga muntazam g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama moddiy va ma'naviy ko'mak berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Oila» deb nomlangan XIV-bobining 63, 64, 65, 66-moddalarida oila jamiyatning asosiy negizi, bog'ini ekanligi, ota-onaning bola tarbiyasidagi mas'uliyati, ota-ona keksaygach, ularga moddiy va ma'naviy tomondan g'amxo'rlik qilish har bir farzandning burchi ekanligi kafolatlab qo'yilgan.



BILIB OLING

Dunyoda har yili 15-may «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlanadi. Mamlakatimizda 1998-yil — «Oila yili» deb nomlangan, 2012-yil esa «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilindi.

«Agar bir mamlakat aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi».

Abdurauf Fitrat

Dars sabogʻi. Ota-ona va farzand munosabatlaridagi asosiy maqsad quyidagicha: ota-ona mavqeyi — farzandning komil inson sifatida shakllanishiga, jamiyatda munosib oʻrin topishiga xizmat qiladi. Farzandning jamiyatda tutgan oʻrni — ota-onasi obroʻ-eʼtiborining yanada yuksalishiga sabab boʻladi. Shuning uchun ham ota-ona ibrat namunasi deyiladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

Kunlarning birida men yaqin doʻstimning uyiga mehmonga bordim. Doʻstim bilan dasturxon atrofida hol-ahvol soʻrashib ulgurmasimizdan birdaniga yomgʻir sharros quyib yubordi. Tarnovga xazon tiqilganmi yoki boshqa sababdanmi, uying to-miga tushayotgan yomgʻir sachrab, darhol hammayoqni hoʻl qildi. Bu holatni koʻrgan doʻstim darrov oʻgʻlini chaqirib, tarnovni tuzatib qoʻyish kerakligini buyurdi. Lekin doʻstimning oʻgʻli otasining gapini eshitib, yana uyga qaytib kirib ketdi. Bu holatni koʻrgan doʻstim menga: «Yuring, birpas tashqariga chiqaylik», — dedi. Biz hovliga chiqqan ham edik, doʻstimning oʻgʻli darhol tomga chiqib, tarnovni tuzatib tushdi.

1. Ushbu hikoyadan nima xulosa qilish mumkin? Mezbonning oʻgʻli otasining gapini ikki qildimi? Buning uchun unda qanday asos bor edi? Hikoyani «Otasi bor uying tomiga chiqilmaydi», degan maqol bilan bogʻlab tushuntiring.
2. «Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida millatning asriy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va turmush tarzining izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin», degan fikrga munosabatingizni bildiring.
3. «Andisha» deganda nimani tushunasiz? Oilada ota-ona, aka-uka, opa-singil munosabatlari qanday shakllanadi?
4. Oilaning davlat muhofazasida ekanligi aks etgan qonunlar va qonun osti hujjatlarini toping va munosabat bildiring.
5. Quyida qoldirib ketilgan joylarni kerakli soʻzlar bilan toʻldiring.
Oila aʼzolari oʻrtasida oʻzaro ..., mehr-muruvvat va ... omillari sogʻlom muhitni yaratadi.



CHISTON-TOPISHMOQ

Dori, ammo foydasiz. U kim?



4-§

Jamiyat ma'naviyatining shakllanishida mahallaning o'рни



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

- ➔ Qo'shni hovlida ma'raka bo'lib qoldi. Qo'ni-qo'shnilar darrov chiqib, ko'cha-hovlilarni saranjomlab, odamlar kelishi uchun joy tayyorlay boshladilar. Kimdir uyidan ko'rpacha olib chiqsa, kimdir stol-stul tashish bilan ovora edi. Xuddi avvaldan tayyorlangan dasturdek, hamma bilib-bilib, o'z ishini bajarmoqda edi.
 - ➔ Qo'shnining qiziga sovcilar kelishdi. Bu paytda qizning onasi uyda yo'q edi. Bundan xabar topgan qo'shni ayol zudlik bilan qo'shni qiznikiga chiqib, dasturxon yozdi va ochiq yuz bilan sovcilarni kutib oldi.
 - ➔ Mahalla oqsoqollari yig'inidan qaytayotgan keksalar ko'cha boshidagi novvoyxonadan to'rtta yangi pishgan nonni olib, bir necha haftadan beri betobligi sababli uyidan chiqa olmayotgan Samariddin otaning ahvolidan xabar olish uchun uyiga borishdi.
1. Mazkur rasmlarda qanday qadriyatlarimiz tilga olingan? Bu qadriyatlarni kim o'ylab topgan?
 2. Sizning ham mahallangizda shunday an'analar bormi? Berilgan rasmlar orqali fikringizni asoslang.
 3. Siz ham mahalladagi hasharlarda ishtirok etasizmi, bunga sizni nima majbur qiladi?
 4. Nima sababdan mahallaga «qadriyatlar beshigi», «demokratiya maktabi» deb ta'rif berilganligi haqida o'z fikringizni ayting.



Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo hududi xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan hamda turli millat, elatlar tinch-totuv yashagan makon boʻlib keldi. Bu davrda insonlar oʻrtasidagi munosabatlar natijasida sabr-toqat, bagʻrikenglik, mehr-oqibat, halollik bilan kun kechirish kabi qadriyatlar shakllandi.

Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, oʻzbek xalqi uchun jamoa boʻlib yashashning sinalgan shakli mahalladir. Mahalla tumanlar ichidagi kichik hududiy birlik boʻlib, oʻtmishdan meros boʻlib kelmoqda.

Maʼlum bir mahallada istiqomat qiluvchi odamlar faqat qoʻni-qoʻshnichilik rishtalari bilangina emas, balki ichki tartib-qoida, urf-odatlar, anʼanalar, umumiy manfaatlar va majburiyatlar orqali ham bogʻliqdir. Mahalla hayotining jamoa boʻlib yashash tarzi jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan oʻzini-oʻzi boshqarish tizimini keltirib chiqardi. Mahallaga uning hududida yashaydigan aholi tomonidan saylab qoʻyiladigan oqsoqol boshchilik qilgan.



IJODIY FAOLIYAT

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan mahalla bilan bogʻliq moddalarni toping. Mahallaning hayotimizdagi oʻrnini tushuntirib bering.
2. Oʻzingizni mahalladan tashqarida tasavvur qila olasizmi? Fikringizni asoslang.

Anvar maktabdan qaytayotgan edi. Koʻchasining boshiga yetganida uning dimogʻiga gazning hidi urdi. Gazning hididan tezda boshi aylandi. Tezroq oʻsha yerdan oʻtib ketdi-da, uyga borib bobosiga bu haqida gapirdi. Bobosi shu zahotiyog, qani qayerda bunday hid kelmoqda, deb Anvarni koʻcha boshiga boshlab ketdi. Ular voqea joyiga yetib keldilar. Bobosi tezda 104 raqamiga sim qoqib, voqea haqida xabar berdi. Haqiqatdan ham gaz quvuri oʻtgan joyda gaz chiqayotgan ekan. Mutaxassislar tezda quvurni taʼmirladilar.

3. Gaz quvuri ularning uyi oldidan emas, balki koʻchaning narigi boshidan oʻtgan va ularga ziyoni yoʻq edi-ku. Anvarning bobosi nima uchun xavotirga tushdi? Bu voqeani Anvar va uning bobosiga qanday daxli bor?
4. Mahalla aholisini nima birlashtiradi?

Mahalla ma'naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbayi bo'lib, an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobi shakllangan maskandir. Bugun jahon hamjamiyati tomonidan bizdagi mahalla boshqaruvi tizimi fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida e'tirof etilmoqda.

Mahalladagi hamjihatlik, turmush tarzi, bir-biriga xolis yordam berish, shuningdek, qo'shnisining taqdiriga daxldorlik tuyg'usi shu darajada xalqimiz ong-u shuuriga singib ketganki, hatto ular san'at, adabiyot, ijodiy asarlarimizdan ham mustahkam o'rin olgan. Mana, masalan, «Mahallada duv-duv gap», «Suyunchi» kino-filmlaridagi epizodlarda mahalladagi qadriyatlar yaqqol namoyon bo'lganini ko'ramiz.

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari — bevosita fuqarolar tomonidan saylanadigan organlardir. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutadi. Bu saylov demokratizm, oshkoralik va teng saylov huquqi asosida o'tkaziladi.

Bizning mahallalarda boquvchisini yo'qotgan qariya yoki bemor kishining qarovsiz qolishi mumkin emasligi ham yuksak insoniy qadriyatlardan biridir.



TARIXGA NAZAR

Tarixchi olim Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruv uslubi ekanligini yozgan edi. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki ma'muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e'tirof etilgan. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») asarida quyidagi bayt uchraydi:

«Shaharlar otini mahalot etib,

Bo'ldi chu yuz shahar Hiri ot etib».

Mahallaning «shahar ichidagi shaharcha» degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko'rinib turibdiki, o'rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik «shaharcha» — mahallalardan tashkil topgan ekan.



BILIB OLING

«Mahalla» arabcha so'zdan kelib chiqib, «shahar ichidagi shahar» ma'nosini anglatadi.

2017-yil 13-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan «Mahalla iftixori» ko'krak nishoni joriy etildi.

Bu misollar jamiyatimizdagi serqirra negizga ega bo'lgan qonuniyat bo'lib, unga asosan kishilar hashar uyushtirishadi, mahalladagi ommaviy marosimlarni birgalikda olib boriladi. Eng muhim ijtimoiy hodisalardan biri bo'lgan dafn marosimining tahlili orqali insonlarning o'zaro munosabatlariga yanada aniqroq baho berish mumkin. Bunday paytda mahalla shu qadar jipslashadiki, har bir ish jamoa a'zolari tomonidan hech bir ta'masiz, bajonidil mukammal tarzda bajariladi.

Darhaqiqat, mahalla — xalqimizning turmush tarzi, ruhiy-ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqib, mafkuraviy ongi va tafakkuri, insonlarning o'zaro aloqalari, oilaviy munosabatlarni shakllantiruvchi, qo'ni-qo'shnichilik, quda-andachilik kabi masalalarni hal etuvchi nodavlat tashkilot ham hisoblanadi.

Dars sabog'i. Mahalla bugungi kunda ma'naviy-tarbiyaviy maskan sifatida jamiyat va davlatning demokratik rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

O'zbekning to'y-ma'rakasi millat tanlamaydi. Bayram tadbirlarida turli millat vakillari yelkama-yelka turib bir-biriga yordam qo'lini cho'zadilar. Yaxshi kunlarida hamroh, yomon kunlarida hamdard bo'ladilar. Mahallaga kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. «Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi» konsepsiyasida nima uchun mahallaga alohida urg'u berilgan?
2. Harbiy kasb egasi bo'lishni istagan insonlarga hujjat topshirish uchun nima sababdan mahalladan tavsifnoma olish talab etiladi? Fikringizni asoslashga harakat qiling.
3. Nima uchun unashtirish oldidan qiz yoki yigitning xulqi-yu odobi mahalladan surishtiriladi?
4. «O'z uyingni o'zing asra», «Xavfsiz hudud», «Namunali mahalla» shiorlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rne qanday?



CHISTON-TOPISHMOQ

Sen haqingda, sensiz gapirishadi. Ular nimalar?

**5-§****Inson va jamiyat****FAOLLASHTIRUVCHI
SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Siz «inson», «jamiyat» deganda nimani tushunasiz? O'zingizni jamiyat a'zosi deb hisoblaysizmi?
2. Rasmlardagi barcha shaxslarni birlashtirib, «jamiyat» degan so'zga ta'rif berib ko'ring.
3. Jamiyat qachon paydo bo'lgan, deb o'ylaysiz? Jamiyat tarixi bilan qiziqqanmisiz?



Inson (arabcha — *unutmoq*) — olamdagi boshqa biologik mavjudotlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga, ya'ni aql, ma'naviyat, madaniyat, axloq, tafakkur, til va boshqa jihatlarga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudotdir.

Insonning o'ziga xos bo'lgan asosiy fazilatlari bu — uning axloq-odobi, ta'lim-tarbiyasi, yurtiga nisbatan muhabbati, uning tinchligi va ravnaqi yo'lidagi shaxsiy javobgarligi hisoblanadi.

Inson nasliga xos bo'lgan xususiyat — uning ongliligi, tafakkur qila olishi, axloqiy normalarni aqlan va jismonan bajara olishidir. Boshqa tirik mavjudotlardan hech biri insondek o'z faoliyatini tartibga sola olmaydi. Darhaqiqat, faqat insongagina ato etilgan bunyodkorlik, yaratuvchanlik fazilatlari uni jamiyat gultojiga aylantiradi.

Jamiyat odamlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari, amalga oshiriladigan guruhlar majmuyi va jamoasi hamdir.

Har qanday jamoa ham jamiyat bo'lavermaydi. Lekin istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Inson jamiyat





a'zosi ekan, shu ijtimoiy shart-sharoit muhitida yashaydi. Demak, inson va jamiyat bir-biri bilan uzviy bog'liq: inson jamiyatdan tashqarida o'zining haqiqiy mohiyatini yo'qotadi.

Jamiyatdagi munosabatlar qanchalik boy, xilma-xil bo'lsa, uning ma'naviy-madaniy sifatlari ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Jamiyat asta-sekin taraqqiy etib, fuqarolik jamiyatiga aylanadi.

Insonlarning bu jamiyatda yashashdan maqsadi — farovon turmush kechirishdan iborat. Vatanimizdan yetishib chiqqan qomusiy allomalar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug' mutafakkirlar jamiyatning paydo bo'lishi, mohiyati va istiqbollari to'g'risida ilg'or ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Xususan, Alisher Navoiy ijodida dunyodagi eng katta boylik hazrati inson deyilgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq inson uchun, uning baxt-u saodati uchun xizmat qilishi lozim. Bobokalonimizning ushbu fikrlari hozirda ham dolzarb sanaladi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Mazkur rasmlarda tasvirlangan fuqarolarning jamiyat bilan qanday bog'liqligi bor? Jamiyatning faol a'zosi bo'lish uchun qanday sifatlarga ega bo'lish kerak?
2. Siz kelajakda qanday kasb egallamoqchisiz? Siz tanlaydigan kasb sizni jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishingizga qanchalik aloqadorligi bor?
3. Faol fuqaro deb qanday insonlarni ataymiz?

O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotining asosiy vazifalaridan biri — bu fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni milliy g'oya asosida tarbiyalash, xalqimizning madaniy va ma'naviy merosi hamda qadriyatlarini egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi.



BILIB OLING

Jamiyat — muayyan hududda yashovchi, o'z ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilardan iborat jamoa.



«Inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatdagina ularni qondira olishi mumkin. Jamoa a'zolarining barchasi uchun majburiy-huquqiy qonunlar zarur bo'ladi. Jamoaning barcha a'zolari mehnat bilan shug'ullanmoqlari zarur».

Abu Ali ibn Sino



MULOHAZA UCHUN

Buzrugmehrdan so'rabdilar:

— *Siz bir vaqtlar Sosoniylar davlatining oqil vaziri bo'lgansiz. Hozir ham sizdan haqiqatgo'y va dono odamni topib bo'lmaydi. Aytingchi, Sosoniylar davlati nima sababdan inqirozga uchradi?*

— *Buning sabablari: birinchidan, podshohlar o'z atrofidan dono va fozil kishilarni uzoqlashtirib, davlat ishlarini besavod va salohiyatsiz odamlarning qo'liga topshirib qo'ydilar. Ikkinchidan, podshohlar o'z farovonliklarini xalq farovonligidan ustun qo'ydilar. Xalqni o'ylamadilar, adolatsizliklarni avj oldirdilar. Buning natijasida xalq podshohni qo'llamadi, bosh-boshdoq bo'lgan davlat esa dushman tomonidan osonlik bilan bosib olindi.*

«**Hikmatlar xazinasi**»

1. Fozil insonlar, deganda kimlarni tushunasiz?
2. Davlat va jamiyatning mustahkamligi uchun qanday omillar zarur deb hisoblaysiz?
3. Ilm-fanning rivojlanishi jamiyat farovonligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

«Do'stlikning haqiqiy zamini tenglikdir; do'stlik hech qachon o'rtaga mansabni aralashmaydi, hamma vaqt tenglikni talab qiladi».

Etyen de la Boesi

Dars sabog'i. Insonlar bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, xushmuomalali, ahil-inoq, iltifotli bo'lishlari tufayli turmush farovonlashadi. Oila, mahalla-ko'ya o'zaro totuvlik yuzaga keladi. Shunday ekan, jamiyatning ravnaq topishi, o'z navbatida, insonlarning faqat ezgu maqsadlar yo'lida yashashlariga bevosita bog'liq.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ilk paleolit davrida odamlar to'da-to'da bo'lib g'orlarda yashaganlar, tabiatdagi tayyor narsalarni — daraxtlarning mevalarini, o'simlik ildizlarini kavlab yeb, tirikchilik qilganlar. So'nggi paleolit oxirida yuz bergan tub o'zgarish ibtidoiy to'da o'rniga ibtidoiy jamoa-urug'chilik tuzumining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Qon-qarindoshlik ona urug'i doirasida rasmiylashdi, u tarixda matriarxat deb nom oldi. Bir urug'dan tarqalgan odamlar jamoasi katta bir g'orda yoki bir necha kulbadan iborat joyda birgalikda yashab, mehnat qilishib, kichik bir mulkka egalik qilishgan. E'tibor bering. Bu odamlarni nima birlashtirgan? Bunday birgalikda yashashni fuqarolik jamiyati, deb atash mumkinmi? Fikringizni asoslang.
2. Nima uchun fuqarolik jamiyati insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi?



CHISTON-TOPIHMOQ

Mo'jizakor mo'jiza. U kim?



6-§

Fuqarolik jamiyatida inson tafakkuri



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. «Tafakkur» deganda nimani tushunasiz?
2. O'zingizni yaxshi fikrlaydigan inson sifatida baholaysizmi?
3. Jamiyat rivojida inson tafakkurining o'рни qanday? Fikr yuriting.
4. Ushbu rasmlar bilan fuqarolik jamiyati tushunchasi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?



Insonning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishiga aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi.

Tafakkur jarayoni faqat insonning ongi bilan emas, balki qalbi va ruhiyati bilan ham uzviy bog'liqlikda kechadi. Fikrlovchining ichki dunyosi qanchalik boy bo'lsa, uning fikrlash saviyasi ham, xatti-harakati ham shunga yarasha bo'ladi. Undagi fikr-mushohada til orqali bayon etiladi, boshqalar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Qomusiy allomalar inson tafakkur qilish orqali ta'lim-tarbiyani rivojlantirishi, o'zini kamolot sari yetaklashini ta'kidlaganlar. Zero, tafakkur va ma'naviyat o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiradi.

Abu Nasr Forobiy («Fozil odamlar shahri»), Abu Ali ibn Sino («Tib qonunlari»), G'azzoliy («Kimyoi saodat»),



«Har ne ishni qilmish odamzod, tafakkur birla qilmish odamzod».

Alisher Navoiy

Tafakkur — arabcha «fikir» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, oʻylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish maʼnolarini bildiradi.



IJODIY FAOLIYAT

Maktabdan qaytayotgan Bahromjon, simyogʻochda elektr simini uzilib yotganini koʻrib qoldi. Aylanib oʻtib ketmoqchi boʻldi. Lekin bu yerdan oʻtishi mumkin boʻlgan yosh bolalar va qariyalar koʻz oldiga keldi-yu, qoʻl telefonidan 1050 — avariya xizmatiga telefon qilib muammoni aytdi. Muammo tezlikda bartaraf etildi.

1. Bahromjon eʼtiborsiz boʻlganida, uning oqibati nima boʻlardi?
2. Siz bu vaziyatda qanday yoʻl tutgan boʻlar edingiz?
3. Oʻylab koʻringchi, bu voqeaning fuqarolik jamiyati va inson tafakkuriga qanday bogʻliqlik tomoni bor?



MULOHAZA UCHUN

Matndagi boshqaruv muddati, ezgu ishlar, davlatni idora qilish kabi tushunchalarni bugungi kundagi xalq hokimiyatchiligi bilan qanday o'xshashlik tomonlari bor?



«Olis mag'ribdagi shaharlardan birining aholisi haqida naql qiladilarkim, zodagonlar va yer egalari mazkur shaharni navbatma-navbat boshqarar ekanlar. U yerda o'lkani idora qilish a'yonlar va yer egalari o'rtasida navbatma-navbat bir-biriga o'tib turarmish, kimga navbat kelsa, o'sha uch oy hukm yuritarmish. Muddat tugashi bilan har qaysi hukmdor o'z-o'zidan o'lkani idora qilish amalidan tushib, minnatdorlik uchun sadaqa beradi va o'z ahli orasiga qaytadi. U go'yo kishandan bo'shagandek xursand bo'lar va o'z ishi bilan mashg'ul bo'lar emish. Bu shuning uchunki, davlatni idora qilish rohatdan mahrum bo'lish, degan so'zdir. Bunda u o'sha joydagi ezuvchilarni eziluvchilarga nisbatan adolatli qilaman, deb tinkasini quritish deganidir. Bu esa o'zini va qo'l ostidagilarini himoya qilish uchun tadbir tayyorlash borasida o'z jonini qiynashdir».

Abu Rayhon Beruniy, «Mineralogiya»

inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, deb atalishi ham bejiz emas. Tafakkuri yuksak inson jamiyatning gultoji, mustahkam tayanchi bo'la oladi.

Fuqarolik jamiyatini taraqqiy ettirishning muhim sharti ham insonlar ongini, ma'naviyatini o'zgartirish va rivojlantirish — tafakkurni yuksaltirishdan iboratdir.

Inson borki, u fikr yuritish qobiliyatiga ega.

Inson fikrining teranligi, tiniqligi, mantiqiyligi, erkinligi, mustaqilligi, badiiyliги, ijodiyliги tafakkurning sifat va mezonlari hisoblanadi. Inson tafakkurning aynan shu shakllari orqali dunyoni anglaydi, uni o'ziga xos tarzda tasvirlaydi, xulosalar chiqaradi. Tafakkur tarzining o'zgarishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga yo'l ochadi. Shuningdek, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotida ijobiy o'zgarishlar yasaydi.



BILIB OLING

Fuqarolik jamiyati — komil fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda ma'naviy-axloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

«Niyatingizni asrang, u barcha ishlar muqaddimasidir. Har kimning niyati durust bo'lsa, uning amallari ham durust bo'ladi».

Abu Turob
Naxshabiy

Demak, shu jamiyatning faol fuqarosi bo'lgan har bir inson o'z tafakkur tarzini yuksaltirishi lozim. Bu orqali u nafaqat o'zini, balki millatni, mamlakatni jahonga tanitib, tenglar ichra teng bo'lib boraveradi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Fuqarolik jamiyatida inson ma'naviyati qanday bo'ladi?
2. Adabiyot darsida olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob bering.
 - ➔ Alisher Navoiyning qaysi asarlarini o'qigansiz?
 - ➔ Alisher Navoiy asarlarida mamlakat tinchligi, farovonligi bilan bog'liq fuqarolik jamiyatiga oid qanday g'oyalar ilgari surilgan?
 - ➔ Alisher Navoiyning «Jamiyatning asosini ma'rifiylik tashkil etadi», degan fikriga munosabat bildiring.
3. Nima uchun mamlakatimizda ma'naviyatga katta e'tibor berilmoqda? Jamiyat hayotini, ma'naviy yangilanishini aniq hayotiy misollar bilan asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Beg'araz va beminnat, sodiq do'st. U nima?



QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN

Bir odam suvga qarmoq tashlab turgan ekan. Yonidan o'tayotgan kishi so'rabdi: «Ey, birodar! Baliq tutyapsanmi?» «Men nafaqat baliq tutyapman, balki bir vaqtning o'zida o'tgan umrimni sarhisob qilyapman, quyoshning zarrin nurlaridan bahra olayapman, suvning oqishidan lazatlanypman, ayni paytda sen bilan muloqot qilyapman. Xullas, bir so'z bilan aytganda, tafakkur qilib yashayapman», deya javob bergan ekan, ul donishmand...

«**Farzandnoma**»



7-§

Moddiy va ma'naviy hayot — inson ziynati



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Moddiy va ma'naviy hayot deganda nimani tushunasiz? Mazkur rasmlar orqali fikringizni asoslang.
2. «Ma'naviy hayot», «moddiy ne'mat», «halol inson» tushunchalarini solishtirib, o'xshash jihatlarini ayting.
3. Bugungi kunda davlatimizda moddiy va ma'naviy hayotni birdek olib borish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Nima deb o'ylaysiz, moddiy hayotning o'zi bilan yashab bo'ladimi?



Insonning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma'naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba'zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud. Antik davr faylasuflari bo'lmish Suqrot va Aflotun, Epikur va Demokrit, Xitoy donishmandi Konfutsiy va boshqa allomalarning ayrimlari bu boradagi nazariy qarashlarida ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, boshqalari moddiy olamni asosiy o'ringa qo'yadi. Bu ko'hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqelikdir. Insonning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o'zi o'ta murakkab masala bo'lsa-da, uni anglashga harakat qilib ko'ramiz.



Biz har kuni uch yoki toʻrt mahal ovqatlanamiz. Fasllarga qarab oʻzimizga mos boʻlgan kiyimlarni kiyamiz. Shuningdek, oʻzimizga qiziqarli boʻlgan filmlarni, koʻrsatuvlarni tomosha qilamiz va musiqalarni tinglaymiz. Yana bir narsa borki, uydami, maktab kutubxonasidami oʻzimizga qiziq boʻlgan, biror bir badiiy asarni oʻqishni boshlasak, kitob qahramonlari ruhiyatiga kiramiz. Asardagi voqealar ichiga xayolan tushib qolib, uni qoʻlimizdan qoʻymaymiz. Hatto qornimiz ochgani ham esimizdan chiqib ketadi, och qolganimizni sezsak ham vaqtini qizgʻanib kitobdan boshimizni koʻtarmaymiz. Voqealar jadallashishini, yakuni qanday boʻlishini bilishga oshiqamiz.

Bu oʻrinda moddiy va maʼnaviy jarayonlar oʻzaro toʻqnash kelmoqda. Har ikkisi ham inson uchun kerak. Inson bu hayotda yashar ekan, ham moddiy, ham maʼnaviy xususiyat va alomatlarini oʻzida mujassam etadi. Inson yashashi, faoliyat koʻrsatishi uchun yeb-ichish, kiyinish kabi moddiy va mazmunli hayot kechirishi uchun maʼnaviy ehtiyojlarga muhtoj boʻladi. Shu bois, har ikki jihatga birdek ahamiyat berish lozim.

Moddiy va maʼnaviy hayotning uygʻunligi — inson va jamiyat hayotida moddiy hamda maʼnaviy asoslarning bir-biriga nisbatan mosligi, oʻzaro aloqadorligi va bogʻliqligini ifodalaydi.



IJODIY FAOLIYAT

- 1- va 3-rasmlar asosida moddiy hayotning maʼnaviy jihatlari nimadan iborat, degan savolga javob berib koʻring.
2. Jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin boʻlgan holatlar yuzasidan asosli misollar keltiring.

Gulnoza mahalla guzaridagi doʻkonga kirib, uni-buni xarid qildi, ammo andisha qilib, olgan mahsulotlarning chekini soʻramadi.

3. Gulnoza fuqarolik qoidalariga rioya qildimi?
4. Uning bu harakati qanday muammolarga sabab boʻlishi mumkin?
5. Siz doʻkondan xarid qilganingizda olgan mahsulotlaringiz chekini soʻraysizmi? Nima uchun? Fikringizni asoslang.

Moddiy va ma'naviy hayot bir-birini inkor etmaydi. Ular o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldiradi. Inson bor ekan, o'z orzu-istaklarini amalga oshirish, baxtli-saodatli yashashi uchun hayotini shu ikki mezonga bog'laydi.

Mamlakatimizda insonlarning yaxshi yashashi, jamiyatning faol a'zosi bo'lishi uchun moddiy va ma'naviy hayot masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Chunki, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga kelgan.

Jamiyat hayoti moddiy va ma'naviy ko'rinishga ega. Shunday ekan, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga erishishda ma'naviyatga, xususan, insonning haq-huquqlariga hurmat bilan qarash lozim. Bu ma'naviyatning ishlab chiqarish, iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Aks holda, jamiyatda ma'naviy-axloqiy munosabatlar tanazzulga uchraydi, insonning sha'ni, qadr-qimmati poymol etiladi.

Tarixdan isbotki, o'zining xususiy mulkiga ega bo'lgan shaxs va bunday shaxslardan tashkil topgan jamoa o'zini va oilasini boqish, shu bilan birga, orttirgan daromadi hisobidan o'z yaqinlari va muhtoj insonlarga beg'araz yordam ko'rsatish, yurti, millatining tinchlik-osoyishtaligini saqlash va himoyalashda astoydil jon kuydirib mehnat qiladi. Ko'rinib turibdiki, moddiy va ma'naviy hayot bir-birini to'ldiradi, mushtaraklikda insonlarning ezgu fazilatlarini amalga oshirishga undaydi.

Bugun mamlakatimizda moddiy va ma'naviy hayotning uyg'un holda rivojlanib borishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib tarzda rivojlantirishga erishilayotgani mamlakatimizda hukm surayotgan siyosiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy barqarorlik dalilidir. Ma'naviyat va moddiy hayot bir-birini inkor etmagani, balki bir-birini quvvatlab kelayotgani uchun ham bugun fuqarolarning ongi o'zgarmoqda, jamiyat rivojlanmoqda.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

| Jamiyat | |
|--|---|
| Moddiy hayot | Ma'naviy hayot |
| <p>Kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar; oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari; moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish; moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar va hokazo.</p> | <p>Olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan. Ko'hna tarixiy yodgorliklar, noyob asarlar, nomoddiy madaniy meros va hokazo.</p> |

Dars sabog'i: Inson faoliyatida ikki muhim omil — moddiy va ma'naviy olam o'zaro uyg'unlashib, qo'sh qanotga aylangan taqdirda inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi.

«Pul ezgulikni tug'dirmaydi, aksincha, ezgulik tufayli odamlar shaxsiy hayotda ham, jamiyatda ham pul va boshqa boyliklarga ega bo'ladilar».

Suqrot



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Agar inson boy bo'lsa-yu, bilimi, foydali kasb-hunari bo'lmasa, yiqqan katta boyligi qanchaga yetishi mumkin?
2. Ma'naviyatli insonning topgan boyligidan kimlar manfaat topadi?
3. Bir inson ham boy va ham oqil, ham dono, ham saxiy bo'la oladimi?

Boylik bilan kambag'allik et ila tirnoq kabi... Faqat ular vaqti-vaqti bilan o'rin almashishadi, xolos. Shu bois, boy bo'lganingdan judayam quvonma — u o'tkinchidir. Yo'qlikda ko'pam qayg'urma, bu ham o'tmay qolmas... Agar kishi oqil bo'lsa, har bir yaxshi-yomon voqea, tasodiflardan o'ziga kerakli xulosalarni chiqarib oladi...



CHISTON-TOPISHMOQ

Noyob matohdir. Ular nimalar?



8-§

Fuqarolik mas'uliyati va daxldorlik



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Fuqarolik jamiyatining faol a'zosi sifatida biz nimaga daxldor bo'lishimiz kerak?
2. Bizning mas'uliyatimiz nimalardan iborat?
3. Daxldorlik nima? U qachon vujudga keladi? Burch, majburiyat va daxldorlik bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Fuqarolik daxldorligi, fuqarolik mas'uliyati iborasi bilan ushbu rasmlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
5. 1, 4- va 5-rasmlarda tasvirlangan insonlar o'rtasida qanday daxldorlik mavjud?
6. 2, 3- va 6-rasmlarda tasvirlangan insonlarning 1-rasmda tasvirlangan insonlar oldidagi burchlari va mas'uliyatlarini e'tiborga olib, ular o'rtasidagi daxldorlik munosabatlarini izohlang.



adibirkor sharbat ishlab chiqaradi. U mas'uliyatni his qilgan holda odamlarning sog'lig'iga ziyon yetkazmaydigan, sara mahsulotlardan foydalanadi. Insonlar sog'lig'ini o'ylab barcha sanitariya gigiyena va boshqa tartib-qoidalarga rioya qiladi. Yaroqlilik muddatini ham qo'yadi. To'g'ri, bu vazifalarni nazorat qilib turadigan davlat tashkilotlari ham bor, ammo tadbirkor o'zining jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilgan holda o'z ishiga sidqidildan, vijdonan yondashadi.



1



2



3



4



5



6



BILIB OLING

Qayerdagi fuqarolar jamiyat oldidagi mas'uliyat va burchni his qilar ekanlar, o'sha joyda daxldorlik va faol fuqarolik pozitsiyasi kuchli bo'ladi.

Fuqaro mas'uliyati deganda jamiyatning axloqiy talblarini kundalik faoliyatida qo'llay bilish, ularga rioya etish yoki etmaslik tushuniladi. Bu tushuncha fuqarolar huquq va majburiyatlarining o'zaro uyg'unligini ifodalaydi.

Inson o'z burchini anglagani sari uning zimmasida mas'uliyat hissi ortib boradi. Qachonki inson oilasi oldidagi burchni anglab yetsa, u jamiyat oldida mas'ulligini tushunadi. Qachon inson jamiyat oldidagi burchini anglasa, unda shaxsiy daxldorlik hissi paydo bo'ladi.

Fuqaro daxldorligi — biror-bir faoliyatga, jarayonga aloqadorlik, sheriklikdir. Har bir fuqaro Vatandan taqdiriga shaxsiy daxldorlik tuyg'usi bilan yashasa, uning jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati ham kuchayib boradi. Daxldorlik hissi insonlarni birlashtiradi.



IJODIY FAOLIYAT

«Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar».

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida belgilangan ushbu qoidani daxldorlik tushunchasi bilan bog'lab tushuntiring. Fikringizni misollar bilan asoslang.
2. Soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik jamiyat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. «Iqtisodiy bilim asoslari» fanidan olgan bilimlaringizga tayangan holda quyidagi savollarga javob bering:
 - ➔ Soliqlar nima uchun yig'iladi?
 - ➔ Soliqlardan tushgan daromad qanday maqsadlarga sarflanadi?
 - ➔ Davlat va jamiyatning rivojiga, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga, ijtimoiy muhofazani amalga oshirishga soliqlarning qanday daxli bor? Bu jarayonlarning ta'minlanishi Sizning hayotingizga ta'sir ko'rsatadimi?

Shuning uchun daxldorlik va mas'uliyatni kundalik faoliyatiga aylantirgan inson haqiqiy ma'naviyatli inson hisoblanadi.

Ota-bobolarimizdan qolgan boy moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish uchun shu yurtda yashovchi har bir fuqaro mas'uldir.

Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasining oshirilishi, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishida har bir fuqaroning shaxsiy mas'uliyati va daxldorligi yotadi.



BILIB OLING

Odamzod qayerda tug'ilgan bo'lsa, shu joyga nisbatan sadoqat, sulolasiga munosiblik tuyg'usi, aka-uka, opa-singillariga mehr-oqibat ramzi ruhida yashashi kerak.



MULOHAZA UCHUN

Yo'l chetida yoshi chamasi 60 lar atrofidagi bir kishi daraxtga suyanib turibdi. Yonidan o'tayotgan odamlar beparvo o'tib borar, hech kimning bu kishi bilan ishi yo'q edi.

- 1) Siz ana shunday vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?
 - a) Daraxtga suyanib turgan odamning oldiga borib, undan yordam kerakmi yoki yo'qligini so'ragan bo'lardim;
 - b) E'tibor bermasdim;
 - d) Vaqtimga qarardim. Vaqtim bemalol bo'lsa, yordam berardim.

(davomi) Akbarjon maktabdan qaytayotgan edi. U: «Balki o'sha kishining mazasi bo'lmayotgandir? Balki yordam kerakdir?» — deb o'yladi-da, boyagi odamning oldiga borib, uning ahvolini so'radi. Daraxtga suyanib turgan odam, yuragi bezovta qilayotganini aytdi. Akbarjon bekatda turgan odamlar oldiga borib, vaziyatni bayon qildi. Kimdir qo'l telefonidan «tez yordam»ga qo'ng'iroq qilgan bo'lsa, yana kimdir boyagi odamning oldiga kelib, uni qulayroq joyga o'tqizishga intildi. Yoshi 40 lardan oshgan bir opa uning kaftini uqalab, cho'ntagidan olgan dorisini ichirmoqchi bo'ldi. Ko'p o'tmay «Tez yordam» mashinasi ham yetib keldi.

- 2) Akbarjonning harakatiga munosabat bildiring. Siz bunday holatda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?



Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekistonda 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida beshta ustuvor yo‘nalish belgilab berildi. Bular:

- Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
- Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
- Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
- Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
- Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabi masalalarni qamrab olgan.

Dars sabog‘i. Idrok eting! Dunyo faqat tog‘u-toshlar, qir-u dalalar, bepoyon cho‘l-u sahrolardan tashkil topib, uning buyuk ijodkori odamzod yaratilmaganida, olam bunchalar go‘zal, hayot bunchalar zavqli bo‘lmas edi. Shunday ekan, biz yashayotgan kurrai zaminning yanada taraqqiy etib, gullab-yashnashi faqat o‘zimizga, har birimizning o‘z maqomimizdagi bunyodkorlik ishlarimizga bevosita bog‘liqdir.

«Kimiki befoyda umrin o‘tkazdi, hech narsa olmasdan oltin ketkazdi».

Sa‘diy Sheroziy



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Nima deb o‘ylaysiz? Harakatlar strategiyasini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish uchun mamlakatimiz fuqarolarining shaxsiy daxldorligi qanday bo‘lishi kerak?
2. Mamlakatimizni yanada rivojlantirishda nima uchun fuqarolar mas‘uliyatiga tayaniladi?

3. Oila, mahalla, davlat va jamiyat o'rtasidagi daxldorlik mas'uliyati ro'yxatini tuzing.

| Daxldorlik mas'uliyati | | | |
|------------------------|---------|--------|---------|
| Oila | Mahalla | Davlat | Jamiyat |
| | | | |

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarining burchlarini belgilab qo'yilishidan qanday maqsadlar nazarda tutilgan, deb o'ylaysiz?
5. Fuqarolarda daxldorlik tuyg'usi shakllanmagan taqdirda jamiyatning taraqqiyotida qanday oqibatlar vujudga kelishi mumkin?

Ushbu vaziyatni baholang. O'quvchilar kelajagining o'qituvchiga qanday daxli bor?

N. ismli o'quvchi darsga tayyorgarliksiz keldi. O'qituvchi uni sinf oldida izza qildi. N. esa: «Sizning nima haqingiz bor menga tanbeh bergani, mening ota-onam bor, xohlasam darsga qatnashaman, xohlamasam yo'q», — deb javob berdi.

6. Qadriyatlar va daxldorlik tushunchalarining qanday bog'liqligi bor?

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 52-modda



CHISTON-TOPISHMOQ

Og'irdan og'ir... U nima?



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ma'naviy xavfsizlik tushunchasiga ta'rif bering.
2. Ma'naviy xavfsizlikning ma'naviyat taraqqiyotiga ta'sirini qanday baholaysiz?
3. Til, madaniyatni mustahkam egallagan insonga ma'naviy tahdidlar ta'sir ko'rsata oladimi?
4. Rasmlarga qarab bugungi kun yoshlarining ma'naviy qiyofasiga baho bering.



Ma'naviy xavfsizlik — jamiyat a'zolarini ma'naviy xurujlar, g'oyaviy tahdidlardan himoyalash tizimini ifodalovchi tushuncha. Ma'naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida umum-milliy manfaatlarining himoya qilinishiga yo'naltirilgan faoliyatdir. Shuningdek, ma'naviy xavfsizlik deganda milliy manfaatlarini ta'minlash ehtiyoji bo'is vujudga keladigan va jamiyat a'zolari ma'naviy, g'oyaviy-ruhiy hayotining barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat hamda uzluksiz jarayon tushuniladi.

Ma'lumki, inson ma'naviyatiga qarshi turgan tahdidlar qurolli xurujlarga nisbatan ko'proq ta'sir kuchiga ega bo'lib bormoqda.

Tarixiy tajribadan ma'lumki, muayyan mamlakatni zabt etmoqchi bo'lgan istilochilar, avvalo xalqning ruhiyati, ma'naviyati va qadriyatlariga bolta urishga harakat qiladi. Milliy ma'naviyati va qadriyati parokanda etilgan millat va elatlar o'zligini yo'qotadi, hukmron mafkura ta'siriga tushib, uning manfaatlariga xizmat qilishga majbur bo'ladi.

Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi natijasida ilgari kuzatilmagan, noan'anaviy tahdidlar yuzaga kela boshladi.

Hozirda ayrim g'arb davlatlari tomonidan o'z milliy manfaatlarini kengaytirishda «demokratiya eksporti», «rangli inqiloblar» va «axborot xuruj» kabilar asosiy vositaga aylanmoqda. G'arazli maqsadga ega bo'lgan kuchlar o'zlarining g'oyalari turli xil nodavlat tashkilotlar, loyihalar, fondlar vositasida amalga oshirishga urinadilar. Bunday siyosatni amalga oshirishda ular axborotning eng qulay va eng tezkor, eng samarali vosita va usullaridan foydalanmoqdalar. Axborot ayrim g'arb davlatlari hamda xalqaro terroristik tashkilotlar qo'lida asosiy va dahshatli qurol vositasiga aylanib bormoqda. Globallashuv jarayoni bevosita axborot bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot omili ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan ayrim kuchlar manfaatiga aylanib bormoqda.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda millatlar o'z qadryatlarini saqlab qolishlari va kelgusi avlodlarga yetkazishi bilan bog'liq mas'uliyat dolzarb masalaga aylanib bo'ldi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Nima uchun yoshlar tashqi muhit ta'siriga tez tushib qolishi mumkin?
2. Nima sababdan internet yoshlarning ovunchoq maskaniga aylanmoqda?
3. Berilgan matnni o'qing. Matndagi fikr va mulohazalarni bugungi kundagi jahon siyosiy maydonida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, tinchlik va inson ongi, tafakkuriga qaratilayotgan tahdidlar bilan izohlab ko'ring.



Bugungi kunda ham ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, yerosti, yerusti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas.

Misol uchun, internetga boʻlgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda, lekin ayrim gʻaraz niyatli kimsalar uchun internet «qurol» vazifasini bajarmoqda. Bu kimsalar jahon axborot tarmogʻi orqali inson maʼnaviyati hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oʻz taʼsirini oʻtkazishga qattiq harakat qilishmoqda. Inson maʼnaviyatiga qarshi yoʻnaltirilgan, bir qarashda arzimas boʻlib tuyuladigan kichkina, koʻzga koʻrinmaydigan xabar ham axborot olamidagi globallashuv surʼatlaridan kuch olib, lekin zararini hech narsa bilan qoplab boʻlmaydigan ulkan ziyon yetkazadi. Mafkuraviy tahdidlar inson omili orqali, davlatlarning mustaqilligiga daxl qiladi.

Xoʻsh, ushbu tahdid nimasi bilan xavfli? Bu:

- ➔ jozibali shiorlar va daʼvatlar orqali yoshlarni gʻarazli maqsadlarga gʻoyaviy qaram qilishga qaratilganlik;
- ➔ insonlar, ayniqsa, yoshlar tafakkuriga davlat va jamiyat manfaatiga nisbatan loqaydlik, pisandsizlik ruhini olib kirishga yoʻnaltirilganlik;
- ➔ yoshlarning ongi va shuurini egallash.

Mafkuraviy tahdidlar oxir-oqibat, mamlakat xavfsizligi va milliy manfaatlariga tahdid solib, jamiyatning maʼnaviy tanazzulga uchrashini muqarrar qilib qoʻyadi. Bunday tahdidlar har qanday yoʻl bilan yoshlarning ongi va qalbini egalab, ularni manqurtga aylantirishni maqsad qilib qoʻygani bilan izohlanadi.

Turli millatlarning hayotiga «ommaviy madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan tahdidlarning asosiy maqsadi quyidagilarga qaratilgan:

- 1) axloqiy buzuvchilik va zoʻravonlik, individualizm va egotsentrizm gʻoyalarini tarqatish va shuning hisobidan boylik orttirish;
- 2) boshqa xalqlarning necha mingyillik anʼana va qadriyatlari, turmush tarzining maʼnaviy negizlariga bepisandlik;
- 3) ularni qoʻporishga qaratilgan xatarli tahdidlar.

Oʻsmirlik — bolalikdan kattalarning hali Sizga notanish, sirli hayotiga oʻtish, moslashishning qiyin pallasi. Sizga «Yosh bolamisan?», deyishsa, «Yoʻq. Men yosh bola emasman», deb javob bergingiz keladi. Kattalarning ayrim tanbehleri sizni asabiylashtiradi. Oʻzingiz sezmaganda holda ichingizda: «Namuncha meni tergayverasiz? Nima, men sizga yosh bolamanmi?» — deb gʻoʻldirab ham qoʻyasiz. Lekin «kattaman», deyishga sal tortinasiz. Ota-onangizning, kattalarning oʻz majburiyatlari va burchlari borki, ular sizni turli tahdidlardan himoya qilishga

harakat qiladilar. Bu borada ularning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'ring. Ukalaringizning noto'g'ri harakatlariga o'zingizning munosabatingizni eslang. Yana sizga juda katta ma'naviy yaqinlik, maslahatchi zarur. Bu borada Siz kitobga murojaat qiling. Jahon mumtoz adabiyoti, milliy ma'naviy xazinamizning durdonalari bo'lmish «Qobusnoma», «Hamsa», «Boburnoma», «Humoyun va Akbar», «Fozil odamlar shahri», «Temur tuzuklari», «Qissasi Rab'uziy», «Jaloliddin Manguberdi», «Ulug'bek xazinasi» va boshqa noyob asarlar hayotiy hamrohingiz bo'lsa, Sizning ma'naviy bilimingiz yanada oshib boradi.

Ba'zan hayotda uchrab turgan, axloqsizlikni madaniyat deb, va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar taraqqiyotga, tinch hayotga, ayniqsa, sizlarning taqdiringizga xavf solishi mumkin.

Bunday xurujlardan himoyalaniş uchun ulug' ajdodlarimiz o'z davrida qoldirgan komil inson haqidagi axloqiy mezonlar majmuyini, zamonaviy tilda aytganda, «sharqona axloq kodeksini» avlodlar qalbiga singdirish, xalqimiz ongida or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalarni shakllantirish muhimdir.



TARIXGA NAZAR

Oxirgi o'n yil ichida yuz berayotgan bir tomondan etnik va diniy nizolar, ikkinchi tomondan islom va musulmonlarga nisbatan adovat (islamofobiya, diffarmatsiya), tabiiyki, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikka olib keladi, tinch taraqqiyot jarayonini izdan chiqaradi, insoniyat xavfsizligi va xalqaro barqarorlikka tahdid soladi.



MULOHAZA UCHUN

Mutaxassislarining fikricha, hozirda axborot iqtisodiyotni eng daromad keltiruvchi manbayiga aylanib bormoqda. Masalan, AQSh strategik tadqiqotlar institutining ma'lumotlariga ko'ra, axborot mahsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg'i-energetika sohasiga sarmoya qilingan 1 dollardan ko'ra bir necha o'n barobar ko'p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihati, uning siyosiy jihati esa o'z shaxsiy manfaatlariga o'ta arzon, o'ta qulay yo'llar bilan erishish quroli sifatida qaralmoqda.

AQShda o'tkazilgan milliy so'rovlarning ko'rsatishicha, 2005–2014-yillar 12–17 yoshli o'smirlar orasida depressiya (tushkunlik) eng kuchaygan davr bo'lgan.

The New York Times



BILIB OLING

Yolg'onligi avvaldan ma'lum gapni haqiqat deyishdan ham ortiq xayosizlik yo'q!

«Qobusnoma»

Abdulla Qahhor o'z xotiralarida o'zi o'sha vaqtda yashab turgan qishloq aholisi 1914-yilning sentabrda boshlangan Birinchi jahon urushi to'g'risidagi xabarni to'rt oydan so'ng, 1914-yilning dekabrda eshitganini yozadi. Bugun esa kishilar dunyoning istalgan nuqtasida sodir bo'layotgan hodisalardan tezkor xabardor bo'lish imkoniyatiga ega.

Dars sabog'i. Inson o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanadigan hayotiy milliy qadriyatlariga, bunyodkor dunyoqarashga, mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli g'araz niyatli mafkuralarning bosimiga, tazyiqiga dosh berishi mushkul bo'ladi. Bu kabi ochiq yoki pinhona xurujlarga nisbatan yuksak ma'naviyatli insonlarga ziyraklik bilan, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha oladi. Bu toifa insonlarning butun vujudi, ma'naviy olami o'z xalqining urf-odatlariga, an'alariga, til va madaniyatiga cheksiz mehr va muhabbat tuyg'usi bilan sug'orilgan bo'ladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bugungi kunda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash borasida yurtimizda qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
2. Siz o'zingizni ma'naviy xavf-xatardan xoli inson deb baholaysizmi? Fikringizni asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Do'stni bilmaydi, g'animning farqiga bormaydi, o'zi birovga yaxshilik qila olmaydi. U kim?



10-§

Mustahkam iroda — kuchli ma'naviyat kafolati




FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Mustahkam iroda tushunchalariga izoh bering.
2. Mustahkam iroda va ishonchga ega bo'lish uchun insonda qanday fazilatlar mujassam bo'lishi kerak, deb o'ylaysiz?
3. Mustahkam irodaga erishishda insonlarning jamiyatdagi o'рни qanday bo'lishi kerak?
4. Qanday insonlar mustahkam irodali insonlar deyiladi?



Iroda — odamning ichki va tashqi intilishlari, imkoniyat va salohiyatini maqsad yo'lida safarbar etish, qat'iyat bilan harakat qilish, sinov va mashaqqatlarni yengib o'tishga, har qanday sharoitda ham ruhiy muvozanatni saqlashga asos bo'ladigan ma'naviy fazilat.

Inson mustahkam iroda tufayli keraksiz hoy-u havaslardan voz kechadi, turli ma'naviy va moddiy qiyinchiliklarga bardosh beradi, o'z hayot yo'lini belgilab oladi. Insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi. Iroda — bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Har qanday sharoitda bunday insonga suyanish mumkin. U boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, hech ikkilan-





BILIB OLING

Mafkuraviy immunitet — shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi hisoblanadi.



TARIXGA NAZAR

Fransiyada jamiyatni demokratlashtirish jarayoni 200 yillarga cho'zilgan bo'lsa, Angliyada esa 500-600 yillarni o'z ichiga olgan.

masdan, yoningizda turib, qo'ldan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi.

Irodasi mustahkam, imon-e'tiqodli insonni har qanday yengil-yelpi xatti-harakatlar va buzg'unchi g'oyalardan bilan yo'ldan ozdirib bo'lmaydi. Mustahkam iroda mafkuraviy immunitetning asosidir.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun insonda kuchli, mustahkam iroda bo'lishi lozim. Mafkuraviy immunitet esa ilmga tayanadi. Ilmli inson o'z faoliyatini ko'r-ko'rona emas, balki chuqur o'ylab, mushohada bilan boshqaradi.

Irodali inson muqaddas an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz, moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylashni oliy maqsadiga aylantiradi. Shuning barobarida, tarixni, Vatanining tarixini bilgan yoshlarni chalg'itib bo'lmaydi, ular irodali yoshlardir. Mustahkam iroda orqaligina ma'naviyatni anglash mumkin. Ma'naviyatning asosiy mezonlari ham kuchli, mustahkam irodaga tayanadi.

Qayerdagi mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin. Milliy g'oya, milliy mafkuraga ega bo'lmagan inson o'ziga va yon-atrofidagilarga nisbatan befarq bo'ladi.

Bizning zaminimizda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz, xususan, Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalarimizning o'lmas bebaho asarlari, ilmiy merosida insonlarning irodali va kengfe'llik bo'lishi, faqat o'qib-o'rganish orqaligina yuksak ma'naviyat egasi bo'lish mumkin, degan fikrlar qayd etib o'tiladi.

Yuksak ma'naviyat qaror topgan jamiyatda fuqarolarning faolligi ham, vatanparvarligi ham yuksak bo'ladi. Haqiqiy iroda shunda ko'rinadi.

2016-yilning 7—18-sentabr kunlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida boʻlib oʻtgan XV-yozgi Paralimpiya oʻyinlarida sportchilarimiz erishgan yuksak gʻalabalar xalqimizga cheksiz gʻurur-iftixor bagʻishladi. Oʻzbekiston sportchilari mazkur nufuzli musobaqada 8 oltin, 6 kumush va 17 bronza medalni qoʻlga kiritib, Vatanimiz obroʻ-eʻtiborining xalqaro maydonlarda yanada yuksalishiga munosib hissa qoʻshdi.

Jismoniy imkoniyatlari cheklanganligiga qaramasdan, mustahkam irodali vatandoshlarimiz jasorat va matonat koʻrsatib, yuksak natijalarga erishganligi va dunyoning eng kuchli sportchilari qatoridan munosib oʻrin egallaganligi — haqiqiy maʼnaviy yuksalish namunasidir. Demak, mustahkam iroda gʻalabaga yetaklaydi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Inson irodali boʻlishi uchun nima qilishi kerak?
2. «Irodali insonda barcha ezgu fazilatlar mujassam boʻladi», degan fikrga qanday qaraysiz?
3. Quyidagi matnni oʻqing va oʻz fikringiz bilan izohlang.

Inson irodaviy harakatini amalga oshirarkan, oʻziga hukmron ehtiyoj va xohishlariga qarshi turadi: Iroda uchun «men xohlayman» degan kechinma emas, balki «kerak», «bajarishim shart» degan kechinma xosdir.

Inson faoliyatining barcha turlari va har qanday mehnat kishidan mustahkam irodani talab qiladi. Iroda mehnatda paydo boʻladi va toblanadi. Irodaning ongdagi faoliyati harakat maqsadini belgilashda, maqsadga erishish vositalari va yoʻl-yoʻriqlarini oldindan aniqlab, maʼlum qarorga kelishda hamda bu qarorni ijro etishda namoyon boʻladi. Odamda irodaning qay darajada ekanligi maqsadni qanday roʻyobga chiqarishida koʻrinadi.

Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi

Go'zal sabr — javhardan qimmat

Sabrli insonning javhari shundaki, o'zi g'urbat va g'am ayvonida turib ham bor-yo'g'i biroz omadi yurishmagani bois, tushkunlik jariga qulayotgan kishiga muruvvat va saxiylikka yo'g'rilgan mehri la toqat va chidam qo'lini uzatadi.

«Umr hikmati...
saodati»



MULOHAZA UCHUN

Quyidagi matnni o'qing. «El-ulus va yurt ravnaqiga manfaat keltiradigan ishlar bilan shug'ullanmoq», deganda qanday ishlar nazarda tutilgan, deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

MAROQLI SUHBAT

Kunlarning birida, farzand dedi: — Otajon menga nasihat qilsangiz...

Ota: — O'g'lim, agarki, umrimni munosib yashab o'tayin desang, o'z hayotingni asosan to'rt qismga bo'lgin. Ularning birinchisi — ota-ona va fozil kishilardan ezgu amallar sir-asrorini o'rganmoq; ikkinchisi — ilm olish va hunar egallash bilan band bo'lmoq; uchinchisi — el-ulus va yurt ravnaqiga manfaat keltiradigan ishlar bilan shug'ullanmoq; to'rtinchisi — zurrivotlarga ezgulik va adolat ruhi bilan sug'orilgan ta'lim-tarbiya hamda hayotiy zarur kasbni o'rgatmoq.

«Farzandnoma»



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Sizning fuqarolik burchingiz nimalardan iborat?
2. Agar so'zingizga biroz yolg'on qo'shilsa, bu irodangizga qanday ta'sir qiladi?
3. Sabr-qanoat kabi tushunchalarning iroda bilan qanday bog'liqligi bor?
4. Irodasi mustahkam insonlarning ibratli hayot yo'llari haqida hikoyalar to'plang.



QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN

- ➔ 1989-yilning 19-oktabr kuni Oliy Kengash sessiyasida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish asosiy masala sifatida muhokamaga qo'yilib, o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi.
- ➔ Necha asrlik qadriyatlarimiz hisobga olinib, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash maqsadida kirill grafikasidan lotin alifbosiga o'tildi.
- ➔ Yurtdoshlarimizda o'zlikni anglash, nasl-nasabini chuqurroq bilish, qalbida Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish maqsadida tarixiy joy nomlari tiklandi.
- ➔ 2001-yildan boshlab, mamlakatimizda har yili 31-avgust kuni — Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida tan olindi.
- ➔ Musulmonlarning «Iydi qurbon» va «Iydi ramazon» bayramlari nishonlanadi. Shuningdek, 1989-yil 28-fevralda O'zbekistonda Navro'z bayramini tiklash to'g'risida qaror qabul qilinib, «Navro'z» bayrami umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.



CHISTON-TOPISHMOQ

Hamisha yoningda, ilojsiz vaziyatda senga dalda, baxtli onlaringda nasihat-go'y. Ular nimalar?



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:



1. Rasmlardan foydalangan holda mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar haqida hikoya qiling.
2. Ta'limni-tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi, deganda Siz nimani tushunasiz?
3. Komil inson bo'lish uchun qanday sifatlarga ega bo'lish kerak? Javobingizni asoslang.
4. *Bugun Ravshan uchun ajoyib kun. Matematika fanidan o'tkazilgan respublika olimpiadasida birinchi o'rinni egallab, xalqaro miqyosda o'tkaziladigan olimpiadaga yo'llanma oldi. U haqida respublika televideniyesida ko'rsatuv berilganida ota-onasi bilan bir qatorda sinfdoshlari va mahalladoshlari ham xursand bo'ldilar.*
Ravshanning bunday muvaffaqiyatga erishishida kimlarning xizmati bor? Uning bu yutug'i jamiyatimizga qanday foyda keltiradi?
5. Yurtdoshlarimiz xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lib, ularning yutuqlari sharafiga mamlakatimizning madhiyasi ijro etilganida nimani his etasiz?

Bugungi o'ta tezkor rivojlanish va taraqqiyot sharoitida mustaqil O'zbekiston o'zining buyuk kelajagini bilimli, aqlli, mehnatsevar, jasur, ma'naviyati yuksak, jismonan kuchli bo'lgan yosh avlod timsolida ko'radi. Bunday har tomonlama barkamol avlodni o'stirib, voyaga yetkazish davlatimizning ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Qaysiki jamiyatda ilmsizlik, jaholat mavjud bo'lsa, u yerda muqaddas qadriyatlar zavol topadi, odamiylikning mazmun-mohiyatiga putur yetadi. Oqibatda bu jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Shunday ekan, har bir odam, fursatni g'animat bilib, barkamol avlod tarbiyasi yo'lida ter to'kmoqligi hayotiy zaruriyatdir. Zulmatni ilm nuri yoritadi. Tafakkur nuri, o'z navbatida, jamiyat gullab-yashnashiga asos bo'lib xizmat qiladi. Faqat tafakkurgina o'z ortidan ham moddiy, ham ma'naviy boylikni ergashtira oladi. U poklik, ma'rifat bulog'i, xushxulqlik, go'zal odob manbayidir.

Ilm-fan rivoji tufayli ta'lim-tarbiya, odob-axloq tufayli esa fozil insonlar, bilimli, zukko zurriyotlar voyaga yetadigan ma'rifatli jamiyat vujudga keladi. Bunday jamiyat ravnaq topadi, yuksaladi. Fuqarolik jamiyati rivojlanishida har bir insonning vatanparvarligi lozim bo'ladi. Vatanparvarlik, burchga sodiqlik, tinchlikni saqlash, tabiatni asrash kabi oliy qadriyatlarning inson ongiga singib borishi maqsadga muvofiqdir.

Ajdodlarimizning oltin meroslarini qalbga joylamasdan turib inson kamoloti haqida fikr yuritish qiyin. Insonning hayotiga mazmun kiritadigan, o'zligini anglatadigan buyuk qadriyat, bu — xalqimizning moddiy-ma'naviy merosi, hikmatlari, maqol-matallari va topishmoqlaridir. Bular ma'nan yetuk, jismonan baquvvat etib, el-yurt manfaat va ravnaqi yo'lida fidoyilarcha mehnat qiladigan yosh avlodni voyaga yetkazishda ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. O'tmish allomalarimiz hikmatlarida insonning kamolga yetishi haqida qimmatli fikrlar o'z ifodasini topgan. Inson ilm-u ma'rifatga qalbini yuksaltirish, uni ma'naviy oziqlantirish orqali erishadi.

Ajdodlarimiz yaratgan noyob tarixiy obidalar, o'zimizning bunyodkorligimiz hisobiga qad ko'tarayotgan muhtasham bino va inshootlar, obod mahallalar, fayz-u barakali oilalarning kun sayin ko'payishi Vatan kaftidagi javohir sanaladi. Muhimi, bu javohir — ota-bobolarimiz



**BILIB
OLING**

Buyuk Sharqda shunday yozib-yozilmagan an'ana mavjud, ya'ni odamzodning hayot yo'lida unga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, o'z duo va tilaklari bilan unga zafar va omadlar tilovchi — ota-ona va ustozlar hisoblanishgan. Shu boisdan jamiyatda bunday hazrati insonlar toifasi alohida e'zozga ega bo'lib, ularga hamisha ehtiyoj (muhtojlik) sezilgan. Bu hodisa — Buyuk Sharq hayot tarzining, kerak bo'lsa, uning muqaddas insoniy qadriyatlarining tamal toshini tashkil etgan va hozirda ham shunday.

qalb tafti, kelajakka boʻlgan ishonch-irodasi, mustahkam imon-eʼtiqodining mahsuli va albatta biz hamda farzandlarimiz samarali mehnatining hosilasi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham bu xilqat nodir, sevimli va qadrlidir.

Oʻzbeklarga xos boʻlgan maʼnaviy merosimizda ona allasi muqaddas hisoblanadi. Chunki, allada ona dardi, millat dardi uygʻunlashib ketgan. Uning tub mohiyatida maʼnaviyatni anglash, kamol topish, yurt ravnaqi kabi ezgu maqsadlar yotadi.

Oʻzbek xalqining butun vujudida azaldan yangilikka intilish, bilim sirlarini chuqur oʻzlashtirish, teran fikrlash, oʻz oldiga ezgu maqsad qoʻyish va bu yoʻlda samarali mehnat qilish kabi olijanob sifatleri mustahkam oʻrnashgan. Bunday insonlar keng qamrovli bilimi hamda sevimli kasbining samarasidan jamiyatda alohida obroʻ-eʼtibor topgan boʻlishsa, ibratli xulq-atvori tufayli hurmat-izzat qozonib, baxtli hayot kechirishgan. Inson kamolotining yuksalishida rostgoʻylik, halollik, kechirimlilik, sabrli boʻlish, isrofga yoʻl qoʻymaslik, doʻstga sodiqlik va sir saqlash, soʻzlashish odobi va xushxulqlik singari fazilatlarini ulugʻlaydi-



IJODIY FAOLIYAT

1. Siz onangizning ukalaringizga aytgan allasini eshitganmisiz?
2. Nima uchun bu qoʻshiqni har kuni eshitsak ham yana eshitgimiz kelaveradi, unga monand erkanamiz, shirin orzularga berilamiz?
3. Befarqlik, dangasalik, loqaydlik, birovning haqqidan qoʻrqmaslik, yolgʻonchilik kabi illatlar insonlar kelajagiga qanday taʼsir koʻrsatadi?
4. Siz bu kabi illatlarga qarshi kurasha olasizmi? Bunday illatlarning oldini olish uchun qanday yoʻl tutish kerak?
5. Quyidagi hikoyaning jamiyat rivoji uchun qanday taʼsiri bor, deb oʻylaysiz?

Koʻchada mazza qilib toʻp tepayotgan Adhamni onasi chaqirib qoldi. Adham onasining bu chaqirigʻidan norozi boʻlsa-da, onasining oldiga borib, ular mahallaga-mahalla futbol oʻynayotganliklarini, agar u ketsa, mahallasi yutqazib qoʻyishini aytdi. Onasi: «Mayli mana bu chiqindilarni tashlab kelib, oʻyiningni davom ettirarsan», deb ish buyurdi. Adham onasidan javob tekkanidan xursand boʻlib, chiqindi solingan chelakni olib yugurib ketdi-yu, lekin chiqindilarni yoʻl chetidagi ariqqa toʻkib yubordi.

6. Adhamning qilmishini baholang.

gan maqol, naql va tafakkurni charxlaydigan hikmatli soʻzlarning oʻrni beqiyos.

Dars sabogʻi. Ezgu maqsad sari oldinga intilish, vaqtni zoe ketkazmaslik, mehnatdan qochmaslik, ilm olish va albatta teran fikrlash — jamiyat aʼzolari umr mazmunini tashkil etgan. Bilimli va hunarli kishi, zukko aql va goʻzal odob egalari bu dunyoda mazmunli va barakali hayot tarzini yashab boshqalarga ibrat namunasi boʻlishgan.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam boʻlmasligi, farzandlarimizning bizdan koʻra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli boʻlib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada maʼnaviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi», degan fikrning zamirida qanday gʻoyalar yotadi? Fikringizni amaliy misollar bilan ifodalang.
2. Siz kelajakda oʻzingizning oldingizga qanday maqsadlar qoʻydingiz?
3. Oilangizda kasb-hunar bilan bogʻliq anʼanalar bormi? Bu anʼanalarni davom ettirishda Sizning hissangiz qanday boʻladi?
4. Sizning komil inson boʻlib yetishishingiz uchun mamlakatimizda qanday imkoniyatlar mavjud?
5. Yurtimiz mutafakkirlarining bilim olish haqida bildirgan fikrlarini toʻplang va ularning mazmunini aytib berishga harakat qiling.



CHISTON-TOPISHMOQ

Bemor, biroq sogʻayishni xohlamaydi. U kim?



BILIB OLING

Tiriklik sir-u asrori
ilm, odob, ongli
faoliyat boʻlsa,
uning asosi zukko
aql, davomiyligi —
samarali mehnatdir.

«Hikmatlar
xazinasi»

«Inson tabiatini
tozalovchi sehrli
kuch — hikmatdir».

**Abdurahmon
Jomiy**



12-§

Inson ma'naviyatida ma'rifatning o'рни



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. «Ma'rifat» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Qanday insonlarni ma'rifatli insonlar deymiz?
3. Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarini bir-biriga bog'lab tushuntiring.
4. Ma'naviyatli inson ma'rifatli bo'la oladimi? Mazkur rasmlar bilan fikringizni asoslang.



Ma'rifat (arabcha bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish) — tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma'lumotlar, ta'lim-tarbiya va maorif tizimi uyg'unligini ifodalovchi tushuncha. Shuningdek, ma'rifat tushunchasi bilimli, ma'lumotli, ma'naviyatli insonga nisbatan qo'llaniladi.

Ma'rifat haqida qadimiy tarixiy merosimiz «Avesto»-da ham aytib o'tiladi. Unda ma'rifat ezgulikning namoyon bo'lishi, ezgu fikr va ezgu so'zning amalga oshiruvchi kuchi sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari, uyg'onish davrining Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Hakim Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi alomarlari o'zlarining beqiyos ma'rifatli asarlari orqali umuminsoniy qadriyatlarni yaratishga ulkan hissa qo'shganlar. Xususan, Hakim Termiziy «Kitob bayan-al-ilm» nomli risolasida ma'rifatni nur, yorug'likka qiyoslagan.

Ma'rifat — ma'naviyatga olib keladigan yo'l, uni shakllantiruvchi vositadir. Ma'rifat millat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

«Bilim insonning eng lazzatli va ezgu faoliyatidir».

Aristotel

Turkiston o'lkasida faoliyat olib borgan jadidchilik harakati namoyandalari madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish uchun ma'rifat yo'lidan foydalanishgan. Ular ko'plab maktab ochishgan, ilm-fan, matbaachilik, noshirlik, adabiyot, maorifni milliy asosda tashkil etishni yoqlab chiqishgan. Ular yaratgan



IJODIY FAOLIYAT

1. Biz qanday insonni qalbi go'zal inson deb ataymiz?
2. Agar inson juda boy, chiroyli, ko'rkam bo'lsa, u insonni samimiy, dono deb atash mumkinmi? Javobingizni asoslang.
3. Quyidagi hikoyani o'qib, insonning ichki va tashqi go'zalligi haqida fikr yuriting.

PODSHOHNING IKKI XIZMATKORI

Podshohning ikki xizmatkori bor ekan. Biri juda chiroyli bo'lib, ikkinchisi uning batamom aksi edi. Bir kuni podshoh ikkisini sinash maqsadida huzuriga chorladi va chiroyli quliga qarata:

– Sheriging haqida nima deysan? — dedi. Shunda u:

– Uning fe'li juda yomon. Ishonchli emas. Qo'lidan har qanday razillik kelishi mumkin, — dedi.

Podshoh narigi xizmatkorini yoniga chorlab dedi:

– Sheriging haqida nima deysan?

– Podshohim! Men sherigim haqida bir og'iz so'z aytishga qodirmasman. Men faqatgina uning yaxshiligini ko'rdim, — deb javob berdi.

Shunda podshoh yana so'radi:

– U sen haqingda yomon fikrda, bunga nima deysan?

– Podshohim! Hech bir banda aybsiz bo'lmas. Men o'z kamchiliklarimni tan olaman.

Keyin podshoh xulqi yomon xizmatkorini chaqirib, unga shunday dedi:

– Qalbing toza emas ekan. Menga yordamchi bo'lolmaysan. Tezda saroyimdan ket! Podshoh narigi quliga qarab:

– Qalbing tashqi ko'rinishingdan go'zal ekan. Sen mening ishonchli kishimsan.

maktablar xalqqa, avvalo, maʼrifat tarqatishi, zamonaviy ilm-fanni singdirishi zarurligi haqidagi fikr jadidlarning maʼrifatchilik faoliyatidagi eng asosiy maqsad edi. Millatni, xalqni maʼrifatli qilishga butun hayotlarini baxshida etgan vatan-doshlarimizdan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Choʻlpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriylarning hissalarini katta boʻldi.

Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan soʻng maʼrifatni tiklash va taraqqiy ettirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Maʼnaviyat va maʼrifat uygʻunligi nimada koʻrinadi? Jamiyat fuqarolarining maʼnaviyati maʼrifiy jarayonlar bilan uzviy aloqador. Inson maʼnaviyati u oʻzlashtiradigan bilim, amaliy tajriba va koʻnikmalar hamda ijodiy kamoloti bilan bogʻliq.

Maʼnaviyatli inson erkin va ozod jamiyatda yashashdan manfaatdor boʻlib, oʻzining jamiyatga naf tegishi jamiyatda obroʻli oʻrin egallashi uchun fidoyilik koʻrsatadi. Faqatgina chinakam maʼrifatga ega boʻlsagina bunday ishlarga qodir boʻladi. Hayotiy bilim va tajribaga ega boʻlmagan insonning jamiyatga nafi tegmaydi. Inson maʼnaviyati maʼrifatli boʻlishni taʼminlaydi. Maʼrifat yoʻlida har kim oʻz iqtidori, isteʼdodi, qobiliyati, intilishiga yarasha maʼlum bir darajaga erishadi.

Jamiyatni maʼrifatli insonlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. «Maʼrifatli inson» iborasida «orif» soʻzi ham borligi uchun bu birikmani nafaqat taʼlimda, balki barcha sohalardagi ilmlarni egallagan va barcha axloq meʼyorlarini oʻzlashtirgan odob-axloqli kishilarga nisbatan ham qoʻllasa boʻladi.

Yosh avlodning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida oʻrni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuygʻularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. Istiqbol tufayli xalqimiz maʼnaviy yuksalishining asosi boʻlmish kitob oʻqishga ragʻbat uygʻondi, yuksak maʼrifatli kitobxon sifatida shakllanib bordi.



MULOHAZA UCHUN

1. Quyidagi hikmatni oʻqing. Undagi «maʼnaviyat manbayi» tushunchasi Sizning hayotingizda qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Siz qanday kitoblarni oʻqigansiz? Kitob mutolaa qilish qanday zavq beradi?

Kitob — bilim, maʼnaviyat va maʼrifat manbayi. U insonni ulugʻlaydigan, unda maʼrifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil qilib tarbiyalaydigan kuchdir.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy yozganidek: «Kitob — beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbayi». Xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, «Kitobsiz aql — qanotsiz qush», «Baxt belgisi — bilim», «Bilim — aql chirog'i», «Go'zallik — ilm-u ma'rifatda», «Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar», «Hunar — oqar buloq, ilm — yonar chiroq» singari maqollarda chuqur ma'nolar mujassam bo'lgan.

Ma'rifatli insonning ma'naviy-axloqiy sifatlari uning kitob mutolaa qilishi va undan zavq-shavq olib, kitobdan olgan ezgu fazilatlarini hayot-faoliyatida qo'llay olishi bilan belgilanadi.

Me'yoriy hujjatlar asosida mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlarini yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi. Kitob o'qishni jadallashtirish, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarni ma'rifatli qilish bo'yicha qonunchilik hujjatlari ishlab chiqildi.

Kitob mutolaa o'zligimizni anglashning asosiy mezonlaridan biri, u orqali yoshlarimiz turli «ommaviy madaniyat»ning salbiy holatlariga tushib qolishdan o'zlarini asrab-avaylaydilar. Yoshlarimizni hayotiy ko'nikmalarga, malakalarga erishuvda eng yaqin do'st va rahnamo kitobdir.

Dars sabog'i. Ma'rifatli inson halol mehnati bilan boylik yaratadi, izlanuvchi, insofli, mehnatsevar, tadbirkor, el-yurt dardiga malham bo'ladigan haqiqiy vatanparvarga aylanadi. Shunday fuqarolarga ega bo'lgan mamlakat va jamiyatning ma'naviyati ham yuksak pog'onalarga ko'tariladi. Bunday darajaga erishish uchun ko'proq kitob mutolaa qilish lozim.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Insonning ma'rifatli bo'lish ilmi nimada?
2. Faqat hunar egallab, ilm egallamagan inson ma'rifatli bo'la oladimi?
3. Komil inson bo'lish uchun odamlarda qanday sifatlar shakllangan bo'lishi kerak?



CHISTON-TOPISHMOQ

Farzandingni dunyoga keltirmagan, lekin ota-onadek qadrlı, mo'tabar. U kim?



13-§

Nafosat (estetika) va ma'naviyat



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Nafosatning inson hayotidagi o'рни nimada?
2. Qanday insonlarga nisbatan «nafosatli» so'zini ishlatamiz?
3. Go'zallikni siz qanday tushunasiz?
4. Tadbirkorlar, milliy hunarmadlar tomonidan tayyorlangan buyumlarga nisbatan nafosat bilan ishlanibdi, degan iboralarni eshitganmisiz?
5. Nafosatning ma'naviyat bilan qanday aloqadorligi bor?
6. Mazkur rasmlarni nafosat tushunchasi bilan bog'lang.



Insonlarning muomalasi, nutqi, aqli, kiyinishi, ularning qanchalik nazokatli, nozik didli ekanidan darak beradi. Shu bois, insonning aqli, tashqi ko'rinishi, nutqi, umuman, ezgu fazilatlarining uyg'unlashuviga qarab, nafosat deb ataladi.

Nafosat (arabcha ahamiyat, qimmatbaho narsa, boylik) — go'zallik turi bo'lib, narsa va hodisalarning tashqi ko'rinishi (shakl, rangi)dagi alohida mukammallikni, mutanosiblikni ifodalaydi.

Insonga xos bo'lgan nafosat madaniyati uning jamiyatdagi faolligi va o'рни, boshqalar bilan munosabati, moddiy va madaniy merosini o'zlashtirishiga ham bog'liq.

Inson go'zal bo'lishi uchun nafaqat tashqi ko'rinishga ega bo'lishi, balki ichki dunyosi, ma'naviy-axloqiy fazilatlari ham muhim o'rin tutadi. Nafosat nafaqat inson tafakkur

tarzi va mehnati, balki bilim darajasining ham mahsulidir. Insonda hamma narsa goʻzal boʻlishi kerak. Maʼnaviyatli insonning fikrlashi ham, nutqiy savodxonligi ham goʻzal boʻladi. Bu koʻproq muloqotda koʻrinadi. Muloqot madaniyati har bir shaxsning oʻzaro munosabatini belgilovchi omildir. Insonning oʻzaro muloqotida namoyon boʻladigan soʻzlashuv madaniyati shaxs xulqi goʻzalligini aks ettiradigan maʼnaviy-axloqiy sifat hisoblanadi. Oʻzaro muloqotda xushfeʼllik, xushmuomalalik, shirinsoʻzlik, ochiqkoʻngillik kabi axloqiy meʼyorlar oʻz ifodasini topadi.

Yuksak madaniyatli kishilar muomalasida xayo, andisha, muloyimlik va ibo yaqqol koʻzga tashlanadi. Bundan tashqari, muloqot ham madaniyatning muhim sifatlari-dan sanaladi.

Ahli donishlar aytadilarki, insonda barcha narsa goʻzal boʻlmogʻi lozim: chehrasi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham. Demak, nafosat tashqi chiroy bilan maʼnaviy goʻzallikning uygʻunligini oʻzida mujassam etadi.

Muomala — odam uchun ehtiyoj, zarurat. Muloqot madaniyati boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qoʻyish kabi anʼanaviy axloqiy-meʼyoriy talablarni bajarish-



BILIB OLING

Odob — taʼlim — odamiylik bir-birini mantiqan toʻldiruvchi tarbiya vositasi, fazilatlar majmuasi sanaladi. Bulardan bahramand boʻlganlar — yaxshi insonlar toifasini tashkil etadi. Tabiiyki, bunday kishilar koʻrkam xislatlar chashmasi hisoblanib, ular qalbidan hamisha mehr va ibrat bulogʻi qaynab turadi. Zero, goʻzal xulq — goʻzal qalb ifodasidir.



MULOHAZA UCHUN

1. Eslab koʻring, barchamiz bilgan Daniel Defoning dunyoga mashhur «Robinzon Kruzo» asarida asosiy qahramon Robinzon kimsasiz orolda necha yil yolgʻiz yashaydi?
2. Robinzonning yolgʻiz hayot kechirishi uning insoniy sifatlariga qanchalik taʼsir koʻrsatadi?
3. «Robinzon Kruzo» asari bosh qahramonining nafosat bilan qanday bogʻliqligi bor?

«Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulugʻ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va sanʼatimiz ham albatta boʻladi».

Shavkat Mirziyoyev

ni taqozo etadi. Uning eng yorqin, sermazmun va ifodali tarzda namoyon boʻlishi soʻz, nutq vositasida roʻy beradi. Soʻzlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyatining muhim jihatlarini tashkil etadi. Soʻz sanʼati inson maʼnaviyati va maʼrifatining asosidir. Soʻz sanʼati ham adabiyot, xalq ogʻzaki ijodi, sanʼatning barcha turi bilan aloqador.

Shirinsoʻz odamning feʼl-atvori toza, begʻubor boʻladi. Yaxshi soʻz insonning atrofiga yaxshi odamlarni yigʻadi. Ilmning eng yuksak choʻqqilari ham soʻz madaniyatini oʻrganishdan boshlanadi. Soʻzamollik insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, yakdillikka undaydi. Notiqlik sanʼati inson maʼnaviyatining ajralmas qismi boʻlib, nutq soʻzlamogʻ, notiq boʻlmoq maʼnolarini anglatadi. Notiqlik sanʼati insonlarning soʻzamolligini, soʻzga chechanligini bildiradi.

Nafosatning inson maʼnaviyatiga taʼsiri yoshlar dunyoqarashi hamda ularning tafakkur tarzi orqali namoyon boʻladi. Misol uchun, inson oʻzini oʻrab turgan barcha narsa-hodisalarning goʻzal boʻlishini xohlaydi. Biz taqib yur-



IJODIY FAOLIYAT

Nafosatni siz qanday tushunasiz? Jadvalni davom ettiring. Har bir tushunchani nafosat bilan bogʻlab taʼriflab koʻring.

| Nafosat | Taʼrifi |
|---------------------|---------|
| soʻz sanʼati | |
| orastalik | |
| tashqi koʻrinish | |
| kiyinish madaniyati | |
| soʻz ustasi | |
| mohir tikuvchi | |
| mohir hunarmand | |
| mohir ... | |
| | |

gan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan samolyot, biz yashayotgan uy — ularning barcha-barchasida nafosatning o'ziga xos o'rni bor.

Siz dam olish kunlari ota-onangiz yoki boshqa biror qarindoshlaringiz bilan teatrga bordingiz. U yerda oila haqida bir spektakl namoyish etilmoqda. Zal to'la odam. Hammaning ko'zidan quvonch sezilib turibdi. Sahnada spektakl namoyish etayotgan aktyorlar o'z rollarini shunaqangi mahorat bilan o'ynashmoqdaki, go'yoki haqiqiy o'sha voqea — jarayon ko'z oldingizda bo'layotgandek tuyuladi. Sahnada aytilayotgan qisqa hajmdagi qo'shiqlar shunaqangi jaranglab chiqadiki, bu qo'shiq yurak-yuraklarga kirib borib, beixtiyor ko'zingda yosh qalqadi. Spektakl oxirida rol ijro etgan aktyorlar teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlarga ta'zim bajo keltiradi.

Bu o'rinda ma'naviyatning nafosat bilan uyg'unlashishini nafaqat his qilaisiz, balki o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz ham.

Insonlarning o'zligini anglashi, xalqining madaniy merosini, san'at, badiiy, ma'naviy merosini bilishi va qadrlashi, halol mehnat qilishi va bor kuch-g'ayratini, bilimni Vatan taqdiri yo'lida safarbar etishi unda nafosat madaniyati shakllanganligidan dalolat beradi. Ma'naviyatli insongina nafosatni qadrlaydi. Allomalar aytganlaridek — go'zallik dunyoni qutqaradi.

Dars sabog'i. Insonlar o'z nafosat madaniyatini takomillashtirgani sari jamiyat ma'naviyati boyib boradi. Nafosat insonning butun ichki va tashqi olami-ning nozik jihatlarini o'zida uyg'unlashtirgan ma'naviyatning bir ustuni hisoblanadi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Nafosat va san'atning o'zaro bog'liq tomonlari haqida fikr yuriting.
2. «Ommaviy madaniyat»ning nafosatga qanday ta'siri bor?
3. Nafosatli inson ma'naviyati qay darajada bo'ladi? Fikringizni asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Yosh-u keksa barcha unga muhtoj. U nima?



14-§

Inson ma'naviyatini shakllantirishda imijning o'рни



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Siz do'stlaringiz bilan suhbatda «imij» atamasini ishlatib turasizmi? Sizningcha, imij nimaga nisbatan ishlatiladi?
2. Shaxs imiji, tashkilot imiji, o'quvchi imiji deganda nimani tushunasiz? Qanday qiyofalar ko'z oldingizga keladi?
3. Mashhur brendlarga ega bo'lgan mahsulotlarni ko'z oldingizga keltiring. Ularning mahsulot belgilari nima uchun o'zgarmaydi?



I mij (ing. *image* — qiyofa, tasvir) — bu muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyektga nisbatan kishilar ongida shakllangan qiyofadir. U idrok etilayotgan voqea, hodisa, kishilar to'g'risida birorta axborotni saqlaydi va muayyan ijtimoiy xatti-harakatga turtki beradi.

Imij o'z egasi haqida axborot beradi, tez o'zgaradi, kishilar ongiga, hissiyotlariga, faoliyatiga hamda xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazadi.

Imij insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazadi. To'g'ri tanlangan imij shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Insonlar imij orqali o'zlariga e'tiborni jalb qilish, xayrixoh munosabatlarni o'rnatish, mulozamat ko'rsatishlari mumkin.

Imij insonning eng yaxshi sifatlarini namoyon qilishga yordam beradi, insondagi shaxsiy salbiy xususiyatlarini berkitadi. Masalan, libos bezaklari, bichimi, soch turmagi va hokazolar vositasida insondagi mavjud nuqsonlardan kishilar e'tiborini chalg'itish mumkin. Jozibador imij kishilar e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi, boshqalarda yaxshi taassurot qoldiradi.

Dress-kod nima? Ust-boshning vazifasi insonni faqatgina sovuqdan, yomg'irdan himoya qilish emas, balki o'ziga e'tiborni tortish hamdir. Libosning yagona tarziga bo'lgan talab muassasa, tashkilot madaniyatini, yagona ruhni, muassasaga nisbatan ijobiy mu-



BILIB OLING

1-oltin qoida!

Qizlarimiz yoki yigitlarimiz qanday libos kiyishlaridan qat'i nazar xalqimizda yozilmagan, lekin asrlar osha yetib kelgan axloqodob qoidalardan chetga chiqmasliklari zarur.



IJODIY FAOLIYAT

1. Maqolni o'qing. Uning mazmunini imijning shaxslararo moslashuv faoliyati bilan bog'lab tushuntirib ko'ring.
Kiyimingga qarab kutib oladilar, muomalangga qarab, kuzatadilar.
2. Quyidagi jarayonni o'qing va o'z munosabatingizni bildiring.

Rasuljon katta yo'l yoqalab yo'lakchadan maktabga ketayotgan edi, ko'zi ko'chani chorrohasida ilinib turgan reklama banneriga tushdi. Bannerda uy uchun shinam bo'lgan ko'rkam pardalarning reklamasi berilgandi. Pardaning yonida uni ko'rsatib turgan ayol kishi tasviri Rasuljonni o'ziga tortdi. Bannerdagi ayol futbolka va shim kiyib olgan edi. Rasuljon birdan «Ma'naviyat asoslari» fani o'qituvchisi, «Adabiyot» fani o'qituvchisi darslar davomida aytgan o'zbek ayollarining milliy libosi haqidagi fikrlarini esladi. «Hech bo'lmasa shu suratga zamonaviy milliy libosda tushganda qanchalik chiroyli tasvir bo'lardi, ey, bu rasmni o'zgartirishga menga yo'l bo'lsin», dedi-yu, yo'lida davom etdi.

3. Nima deb o'ylaysiz? Rasuljon reklama banneridagi suratni o'zgartirishga o'z hissasini qo'sha oladimi? Uning faol fuqaroligini qanday izohlaysiz?
4. Mazkur reklama banneridagi parda ishlab chiqaradigan tashkilot imijiga bu holat qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?



BILIB OLING

2-oltin qoida!

Maktab binosida yoki rasmiy joylarda, aytaylik muzey, tarixiy qadamjollarga borganida, milliy bayramlarda ish-tirok etganda jinsi shim, mayka va futbolkada, shaffof, ochiq ko'ylaklarda, sport liboslari-da, yirtiq shim va ko'ylaklarda borib bo'lmaydi.

Imij ikki turli bo'ladi. Bular:

— korporativ – (tashkilot, firma, korxonalar, muassasa, siyosiy partiya, jamoat tashkiloti va h.k.)

— individual — o'qituvchi, siyosatchi, biznesmen, artist, rahbar va boshqa ma'lum bir toifa va kasb yo'nalishidagi alohida shaxslarning imiji.

nosabatni, uning rivojiga mansublik hissini vujudga kelishini mustahkamlashga imkon yaratadi. Libos benuqsonligi, sifatlilik va orastaligi bilan farqlanishi lozim. Kiyimdagi tartiblilik hamda ixchamlik ko'pincha insonlarning o'qishda, ishda va jamiyatda qanday o'rin tutishi bilan belgilanadigan muhim jihatlardan biridir.

Fuqarolik jamiyatining faol a'zolari kiyadigan ust-bosh qanday bo'lishi kerak:

Shimning uzunligi:

- shim old tomonidan poyabzalning ustiga salgina taxlanib turishi, orqa tomondan poshnaning boshiga yoki o'rtasiga yetishi zarur;
- shim chizig'i yaxshi dazmollangan bo'lishi kerak;
- shimga taqiladigan kamar boshqalarni o'ziga tortmaydigan oddiy bo'lishi kerak.

Ko'ylakning ko'rinishi:

- bel atrofida taxlanib qolmasligi, shishib turmasligi va kamar ostidan chiqib ketmasligi lozim.
- ko'ylak doimo kastumdagi eng to'q rangdan yorqinroq bo'lishi lozim.

Kiyim yoqasi:

- ma'lum bir o'lchamga mos bo'lishi shart;
- u g'ijim bo'lmasligi va bo'yinbog' tuguni bilan yagona yaxlitlikni tashkil etishi kerak;
- oq ko'ylakdagi chiziqchalar har qanday rangda bo'lishi mumkin, biroq kastum ichidan turli xil katta-katta gulli ko'ylaklarni kiyimaslik lozim.

Galstuk taqish:

- kastumga mos bo'lishi kerak;
- har qanday tanlangan galstuk ko'zga yoqqol tashlanmasligi zarur;
- galstukdagi asosiy rang kastumdagi rangga mos bo'lgani afzal;
- galstuk tutilganda uning tuguni ko'ylak yoqasiga mos kelishi kerak.

Oyoq kiyim:

- poyabzal atrofdagilar ko'ziga tashlanib turmasligi va egasiga noqulaylik tug'dirmasligi lozim;
- poyabzal rangi odatda qora bo'lishi ma'qul keladi;
- qora yoki to'q rangdagi poyabzal bilan oq paypoq kiyilmaydi.



MULOHAZA UCHUN

Avtobus saloni odamlar bilan tirband... Yo'lovchilar o'z xayollariga berilishgan. Boriladigan manzil yiroq. O'rtada qaddi-qomati kelishgan, did bilan kiyingan, bo'yinbog'i oq ko'ylagiga judayam yarashgan bir alp yigit ham o'y surib ketyapti. O'rindiqlarning birida o'tirgan qiz esa uni zimdan kuzata boshladi. «Qanday madaniyatli, kelishgan ekan-a, bu yigit». Shunday xayollar bilan qiz «muhim obyekt»ni yana kuzatishda davom etdi...

Navbatdagi bekatda avtobus yo'lovchilarni tushirib, yana manzil sari yo'ldi. Shu payt kutilmaganda «qahramonimiz» avtobusning oynasidan boshini chiqardi-da, odamlarning g'ashini keltiradigan tarzda tashqariga qarab tupurdi. Bu harakat bir-ikki marotaba takrorlandi. Bunday kutilmagan holatdan qizning ta'bi xira bo'ldi. Boyagina arslon kelbatli tuyulgan yigit endi uning nazdida oriyatsiz, xayosiz kishiga aylandi.

Ha, ming afsuski, ba'zilar da go'zal tashqi qiyofa bilan ichki botiniy olam o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor...

«Ummondan durlar»

1. Siz bu holatni qanday baholaysiz?
2. Bu jarayonning imijga qanday bog'liqligi bor?
3. Bu «qahramon»da ma'naviyat qay darajada rivojlangan? Fikringizni asoslang.

Qizlar va ayollar uchun o'qish, ish kiyimi: yubka-kastum yoki ko'ylak va kastum. Yubka uzun ham emas, kalta ham emas, eng maqbul uzunlik tizzadan past bo'lishi zarur. Hamyon sodda va ozoda bo'lishi kerak. Uni yaxshi yopilishi uchun to'ldirib yubormaslik kerak.

Tuflining oldi yopiq bo'lishi lozim. Soch turmagi murakkab bo'lmasligi, ammo yaxshi o'ylangan bo'lishi, soch rangi tabiiy bo'lishi zarur. Pardoz-andoz kamtarona bo'lishi, tirnoqlar rangsiz bo'lishi kerak.

Tanlangan kiyim vaqt va muhit bilan muvofiq bo'lishi lozim. Ayollarning latofatli ko'rinishida yana bir kichik sir yashiringan. Bulardan taralib turadigan iforning siri. Atir hidi ichki va tashqi go'zallikni uyg'unlashtirib turadi.

Ba'zi insonlar chiroyli bo'lmasligi mumkin, lekin ularda ma'naviy fazilatlar ko'p bo'lsa, o'zgalarning e'tiborini tortadi. Ishbilarmon kishi xushmuomala, ko'ngli ochiq bo'lishi, suhbatdoshi bilan so'zlashganda o'zining fikrlarini erkin ifoda eta olishi lozim. Insonning ichki dunyosini his etish, uni tushunish, oldindan bo'ladigan muzokaralar yechimini his etish yoki o'z hamsuhbatining kayfiyatini bilib, mavzuni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan inson faqat ezgu maqsadni ro'yobga chiqishiga sababchi bo'ladi, yomonliklarning oldini oladi.

Dars sabog'i. Insonning imiji uning dunyoqarishi, ma'naviyatining ko'zgusidir. Ma'naviyat esa, insonning barcha qarashlarining mezonidir.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Imij inson ma'naviyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Ta'lim muassasasi o'quvchisining imiji qanday bo'lishi kerak?
3. Ma'lum bir tashkilotning rivojida imij qanday o'rin tutadi?
4. Siz o'z imijingizni yaratishda asosan nimalarga e'tibor qaratasiz?



CHISTON-TOPISHMOQ

Kiyimi bor, lekin «yalang'och»... U kim?



15-§

Inson ma'naviyatida etiketning o'рни



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. «Etiket» tushunchasiga ta'rif bering. Siz etiket deganda nimani tushunasiz. Etiketni o'rganish nima uchun kerak?
2. Odob-axloq qoidalari bilan etiketning qanday farqli va o'xshash tomonlari bor?
3. Jamiyatda qabul qilingan tartib-qoidalarni — etiketning oltin qoidalari deb atash mumkinmi? Fikringizni asoslang.



Etiket (frans. *etiquette* — ma'lum joyda o'rnatilgan tartib-qoida) — inson va jamiyat tashqi madaniyatining asosiy qismi bo'lib, asrlar davomida go'zallik, intizom, aql va idrokning uyg'unligi asosida shakllangan estetik me'yorlar majmuyidir.

Etiket insonni boshqalar bilan samimiy munosabati, uning ma'naviy-madaniy saviyasi, axloqiy me'yorlar sari yetaklovchi tarbiyani o'z ichiga oladi.

Har bir insonda etiket rivojlanish xususiyatiga ega va u har kimda har xil darajada shakllanadi. Bu — insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlarda o'zini tutishi, odob-axloq qonun-qoidalariga qay darajada amal qilishi bilan belgilanadi.

Muomala suhbatlashishning muhim vositasidir. Bunda umumetirof etgan qoidalar mavjud. Suhbatdoshining gapini bo'lmasdan eshitish nafaqat hurmat belgisi, balki insonning ziynati hamdir. Etiketning oltin qoidalari mavjud, ular haqida so'z yuritamiz.

Salomlashish — tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan chuqur ma'no-mazmunni o'zida mujassam etgan ma'naviy qadriyatlarimizdan hisoblanadi.

Salomlashish — mohiyat-e'tibori bilan xayrixohlikni ko'rsatuvchi va hurmatni bildiruvchi odat. Salomlashish kundalik hayotimizda ko'p ishlatiladigan fazilat hisoblanib, kishidan xushmuomalalikni talab qiladi.

Odobda uning muayyan shartlariga amal qilmoq muhimdir. Har kishiga muomala qilinganda, uning senga nisbatan yoshi, obroʻ-eʼtibori qandayligi hisobga olinishi kerak. Boshqalarning obroʻyi senga nisbatan pastroq boʻlsa ham, baland boʻlsa ham, ularga yaxshi muomalada boʻlish kerak. Ular boshqacha ish tutsalar ham, sen hisob bilan ish koʻrishing darkor. Bu xil ishingni javobini qiyomat kuni koʻrasan. Umuman, barcha bilan yaxshi muomala qilmoq vojibdir.

«Xamsa»

Suhbatdoshni tinglayotganda iloji boricha, boshqa narsalarga chalgʻimaslik kerak. Aytayotgan gaplarini tasdiqlash maʼnosida boshingizni silkitish, «darhaqiqat», «toʻgʻri», «topib aytdingiz», «men ham qoʻshilaman», «chiroyli taʼrifladingiz» kabi maʼqullash maʼnosidagi soʻzlarni aytish maqsadga muvofiq.

Suhbat jarayonida baʼzan bir necha kishi ishtirok etishi ham mumkin. Bunday vaziyatda suhbatning mavzusi har bir odam uchun qiziqarli va tushunarli boʻlishiga erishish lozim. Davradagi suhbatdoshlar uchun mutlaqo notanish boʻlgan mavzular — oʻqish, muassasa, ishxonadagi mojarolar, kamchiliklar, oiladagi ziddiyatli holatlarining qizigʻi yoʻq.

Hozirda telefon tarmoqlari orqali qilinadigan muvoqot ham muomala madaniyati meʼyorida boʻlishi lozim.

Zamonaviy etiketga koʻra, telefonda gaplashishning ham tartib-qoidalari mavjud. Ular, asosan, quyidagilardir:

- ➔ soʻzlashish qisqa, loʻnda, aniq maqsadga yoʻnaltirilgan boʻladi;
- ➔ yanglishib qoʻngʻiroq qilgan odamga ters va keskin emas, muloyimlik bilan javob qaytariladi;
- ➔ nutqimizdagi «uzr», «iltimos», «tashakkur», «minnatdorman» singari muloyim soʻzlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Kiyim — inson madaniy darajasini koʻrsatuvchi asosiy belgilardan biri.

Kiyinish madaniyati — insonning tashqi qiyofasi, uning maʼnaviy dunyosi, estetik didi, shuningdek, axloqiy sifatlari va aqliy salohiyatini ifoda etadigan tushuncha. Ajdodlarimizdan qolgan maʼnaviy meroslarda kiyinish madaniyati did, farosat, xayo kabi insoniy fazilatlar bilan bogʻliq holda talqin etilgan.

Kiyinish insonning goʻzallik, nafosat, nazokat, odob borasidagi qarashlarini aks ettiradi.

Dars sabog‘i. Etiket — insonning ichki ma’naviy olami va tashqi ma’naviy saviyasini aks ettiruvchi oyina. Zotan, nozik didli, yuksak ma’naviyatli kishigina barcha ma’naviy-axloqiy fazilatlarini o‘zida jam qila oladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Kim birinchi salom berishi kerak deb o‘ylaysiz?
2. Mazkur vaziyatga o‘z fikringizni bildiring. Siz qanday salomlashishni ma’qul ko‘rasiz?

F. ismli 10-sinf o‘quvchisi uyidan chiqishida tizzadan pastga tushgan yubka va sipo kofta kiyib chiqdi. F. qo‘shni yo‘lakning liftiga kirib yubkasini o‘zinikiga nisbatan 30-40 sm kalta yubkaga, koftasini esa, jussasini qisib turadigan tor, o‘ta yupqa oq matodan tikilgan koftaga almashtirib, beligacha tushadigan sochlarini yoyib chiqib ketdi. Uyg qaytishda esa bu holat aksincha takrorlandi.

Ushbu holatni ko‘rib turgan qo‘shnilar orasidan keksa yoshli onaxon F. ga tanbeh bermoqchi bo‘ldi. Bunga javoban u «Sizga nima?» qabilida qo‘pol muomalada bo‘ldi.

Bunday holatga nisbatan Sizning fikringiz?

3. Mazkur matnni o‘qib, milliy liboslar haqida o‘z fikringizni izohlab bering.

Insoniyat tarixidan ma’lumki, milliy kiyimlar xalqlarning madaniyati va ma’naviyati ko‘zguvidir. Har bir millat liboslarining shakllanishida o‘sha millatning geografik joylashuvi, ijtimoiy turmush tarzi alohida o‘rin tutgan. Jamiyatning rivojlanishi, globallashuv jarayonida ham liboslarning takomillashib borishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib keladi.



CHISTON-TOPISHMOQ

O‘z-o‘zingdan qochish, imkonsiz bekor... U nima?

10-sinfni yakunlaymiz!

Aziz o'quvchi! Bu o'quv yili davomida «Ma'naviyat asoslari» fani bo'yicha dars mashg'ulotlarimiz ham nihoyalab qoldi.

Siz o'tgan o'quv yilida insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar va ularni ro'yobga chiqarishda oila, mahalla va davlatning ornini turli hikmat, hikoyat, rivoyatlar hamda jamiyatimiz rivojiga hissa qo'shgan ulug' allomalarning o'g'itlari orqali o'qib o'rgandingiz, mushohada qildingiz. Ma'naviyat tushunchasiga uning harakatga keltiruvchi vositalar haqidagi mazmun-mohiyat orqali chuqurroq kirib bordingiz.

Zero, ma'naviyat inson va jamiyat hayotidagi o'ziga xos qadriyatdir. Usiz na jamiyat va na inson hayotini tasavvur etish mumkin. Tarix va madaniyat rivoji shuni ko'rsatadiki, madaniyat va ma'naviyati yuksak xalq, millatgina o'zligini anglaydi, o'zgalalar bilan insoniy munosabatda bo'la oladi.

Ma'naviyat — insoniy munosabatlarda, jamiyat hayotida o'zini tuta bilish va o'zgalalar nazdida kim ekanligini namoyon qilishdir. Unda mehr-muhabbat, ezgulik, insonni anglash, uni tushuna bilish, kechirimli, iboli va hayoli bo'lish, boshqalarga yaxshilik qilish fazilatlarini mujassam. Eng muhimi, ma'naviyat tushunchalarini, turfa hikmat va rivoyatlar asosida o'zlashtirishingiz barobarida qadriyatlarimiz barhayotligi, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi, ma'rifatning ma'naviyatga bo'lgan ta'siri Sizga ko'p narsani o'zlashtirishga yordam beradi.

Insoniy fazilatlarni yuksaltirishda mudom amaliy, hayotiy tajribaning, chuqur nazariy bilimning mazmun-mohiyatiga tayanadi va ma'naviy e'tiqodningizning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Jamiyat hayotida yashab, uning ma'naviyatidan bebahra bo'la olmaymiz. Shunday ekan, fuqarolik jamiyati insoniy fazilatlar, yuksak ma'naviyatli, o'z haququqi va ta'rixi, urf-odati, an'alarini hurmat qilgan, ularga sodiq qolib, bugungi globallashuv jarayoniga o'zining bilimi va ma'rifati, ma'naviyati bilan javob bera oladigan yoshlar jamiyati hamdir. Bunday jamiyatga mos bo'lishingizga Siz o'zlashtirgan mazkur darslik ma'naviy asos bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.

Siz o'tgan o'quv yili davomida o'zlashtirgan mavzularni hali yakunlamaymiz. Kelgusi o'quv yilida ma'naviyatga oid tushunchalarni kengroq o'zlashtirishga, ma'naviy olamingizni yanada boyitishingizga ko'mak beradigan mavzularni o'qib-o'rganasiz.

Ma'naviy go'zallikni qalbingizda qaror toptirishdek ezgu niyatingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz. Ilm olishga bo'lgan intilishingiz, kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqingiz hech qachon so'nmasin!



11-SINF



1-§

Inson — kishilik jamiyatining ijodkori



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Jamiyatni insonlarsiz tasavvur qilish mumkinmi?
2. Inson tushunchasiga ta'rif bering.
3. Nega inson jamiyat ijodkori deyiladi?
4. Rasmlarda kishilik jamiyatining qanday ijodkorlari tasvirlangan?



Inson boshqa mavjudotlardan o'zining xotirasi, tafakkuri, tili bilan ajralib turadi. Inson faoliyatini boshqaruvchi xatti-harakatlar shu til orqali ajdodlardan avlodlarga uzatiladi. Bu jamiyatda inson faqat madaniyati bilan yuksaklikka ko'tariladi.

Shuningdek, inson hayotida mehnat asosiy rol o'ynaydi. Mehnat tufayli inson yashayotgan tabiiy muhitni yaxshilaydi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bundan tashqari, mehnat insonning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy, madaniy taraqqiyoti uchun ham juda muhim omil sanaladi. Mehnat tufayli inson tabiat bilan munosabatga kirishadi. Mehnat go'zallik va farovonlik ortasidagi kashfiyotlar va o'zgarishlar asosidir. Mehnat yoshlarni nafaqat bugungi kunga tayyorlaydi, shuningdek, yoshlar uchun porloq istiqbolni yaratishga ham chorlaydi.

Inson haqida bugungi kungacha turli davlatlarda, turli davrlarda turlicha talqin va ta'riflar berib o'tilgan. Inson va uning mohiyati haqidagi qarashlar dastlab

qadimgi Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan. Qadimgi Hindistonda shaxsning kelib chiqishi haqida: «inson qayerdan paydo boʻlgan?», «biz qayerda yashaymiz?» kabi savollar olimlar tomonidan chuqur oʻrganilgan va insonning ijtimoiy-maʼnaviy mohiyati tahlil qilingan. Insonga taʼrif berar ekan, xitoylik Konfutsiy: «Bilish — insonning bilimidir», — deb aytgan. Inson tinimsiz oʻz-oʻzini bilish orqali komillik darajasiga erishish imkoniyatiga ega. Nemis olimi Immanuel Kant insonni dunyodagi eng asosiy mavjudotga tenglashtiradi.

Qadimgi yunon faylasuflari esa insonga oʻzgacha taʼrif berishadi. Xususan, Suqrot, Aflotun kabi allomalar inson hayotini olijanoblik bilan tugatish imkoniyati mavjudligini aytib oʻtishgan. Ularning fikricha, inson maʼnaviy mavjudot sifatida ilohiy mohiyatga ega.

Vatandoshimiz mutafakkir Abu Nasr Forobiy insonning barcha mavjudotlardan farqi, uning aql-idrokliligida deydi. Yana bir alloma Abu Rayhon Beruniy insonning xudo tomonidan yaratilganini koʻrsatib, ayni vaqtda uning butun hayoti va jismoniy tuzilishi geografik omillarga bogʻliq ekanini koʻrsatib oʻtadi.

Buyuk alloma Gʻazzoliyning fikricha, inson buyuk xilqat va uning oldida mudom xavf-xatar mavjud. U aytadiki, muammolarni, xavf-xatarlarni bartaraf etgan shaxsgina baxtlidir. Buyuk allomalarimiz insonlarga hayotning maʼnosi, insonning ilohiy mohiyatini bilishga intilish, halol mehnat qilib boshqalarga mehr-muruvvatli, rahm-shafqatli boʻlishni uqtirganlar.

Movarounnahrda uygʻonish davriga munosib hissa qoʻshgan olimlar taʼlimotlarida insonning moddiy va maʼnaviy hayoti tabiat bilan uygʻun holda xarakterlanadi. Ikkisi oʻrtasidagi munosabatlar insonning taraqqiy etishi bilan bogʻliq deb koʻrsatib oʻtiladi.



BILIB OLING

Insonshunos olimlarning fikricha, bilimlarni 100 foiz deb olsak, shundan 97 foizini borliq toʻgʻrisidagi, atigi 3 foizini inson toʻgʻrisidagi bilimlar tashkil etar ekan.

«Inson falsafasi»

«Insonni otash emas, oʻz gʻaflati yoqar. Barchadagi kamchilikni koʻrar-u, ammo oʻziga koʻrdek boqar. Nimaga qanday boqsang, u ham senga shunday boqar».

Jaloliddin Rumi



IJODIY FAOLIYAT

1. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi jadvalni to'ldiring. Qadimgi G'arb va Sharq allomalari qarashlarida insonga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
2. Jadvalning 3 qatorini o'z fikringiz bilan izohlang.

| INSON HAQIDA | | |
|---|---|----------------------|
| Qadimgi Sharq allomalarining qarashlari | Qadimgi G'arb allomalarining qarashlari | O'xshashlik jihatlar |
| | | |

Go'dak oilada ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Shaxsning shakllanishi, uning sifatleri qaror topishida u intiladigan madaniy-ijtimoiy muhit va bajarishi lozim bo'lgan vazifalarining ham o'zni katta.

Bugungi demokratik jamiyatning tayanchi hisoblangan inson har narsadan ustun. «Hamma narsa inson uchun va uning manfaatlari uchun» degan tushuncha oliy qadriyat sifatida qaralmoqda. Insonlarning ijtimoiylashuvi jamiyat hayotining farovonligi va barqarorligi garovidir. Inson tabiat va jamiyat bag'rida inson sifatida shakllanadi va o'zligini namoyon qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish omili, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Insonning o'zini-o'zi rivojlantirib borishi, jamiyatning faol a'zosi bo'lishi, millat taqdirini har narsadan ustun qo'yishi uning insonparvarligidan darak beradi. Insonparvarlik millat ruhiyatining ajralmas qismidir. O'zbek millati insoniyat tarixida ko'plab sinovli davrlarni, urush-nizolar, hayotning turli haqsizliklarini boshidan kechirgan. Ammo tarixning turli shafqatsiz tala-to'plari ham, omonsiz jang-u jadallar ham, tabiiy ofatlar va boshqa qiyinchiliklar ham o'zbek millatining insoniylik omiliga dog' tushirolmadi, qaddini bukmadi.

Sharqda insoniy fazilatlar erta uyg'ongan. Chunki bizning vatanimiz Sharq madaniyatining eng yaxshi an'analari yo'lidan borib, mehmondo'stlik qilgan, kim yordam so'rab kelgan bo'lsa, qo'lidan tutgan, bag'rikenglik, savobli ishlarni qi-



MULOHAZA UCHUN

Haqiqiy inson kim va u, asosan, qaysi xislatlar bilan ziynatlangan? ... haqiqiy inson, bu — adolat, sadoqat, yuksak tafakkur, din-u diyonat, mustahkam e'tiqod xislatlari bilan sifatlangan, hech kimdan yordamini ayamaydigan, bag'rikenglik, olijanoblik, mehnatsevarlik, mas'ullik, kechirimlilik, omonatdorlik kabi fazilatlarini o'z xulq-atvorida namoyon qilgan zot. U shuningdek, har gal yangi qirralari ochilib boruvchi maxluqotlarning eng sinoatlisi, sabrlisi, aqllisi va zukkosidir.

Muhimi, bunday mo'tabar kishilar jamiyatimizda ko'pchilikni tashkil etadi, ularga boshqalar ergashadi, so'zlarini tinglashadi, ulardek ibratli hayot yo'lini bosib o'tishga bir umr intilib yashashadi.

«Ummondan durlar»

lish, yomonlik qilganga ham yaxshilik bilan javob qaytarishni o'zining odamiylik burchi, deb bilgan. Haqiqiy insonparvar deganda shunday olijanob hislatlarni o'zida mujassam etgan jamiyat a'zolarini tushunamiz.

Dars sabog'i. Insonlarning ustuvorligi uning moddiy va ma'naviy sifatlarini o'zida bir vaqtda namoyon qila olishidir. Inson jamiyat va davlatda barcha imkoniyatlarga ega, faqat bu imkoniyatlarni jamiyat rivoji yo'lida safarbar etsa, yurt obod bo'ladi, xalq turmushi farovonlashadi. Insonning insoniyligi ham uning ma'naviy fazilatlarini qay darajada o'zlashtirgani bilan o'lchanadi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Insonlar o'zini o'zi rivojlantirib borishi deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun Sharqda insoniy fazilatlar haqidagi qarashlar G'arbga nisbatan ertaroq uyg'ongan? Fikringizni asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Eshik ochiq, ammo kirmaydi. U kim?



Ma'naviyat — millat qiyofasi



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ma'naviyat nega millatning qiyofasiga tenglashtiriladi? Mazkur rasmlarga qarab, fikringizni asoslang.
2. Inson — jamiyat — davlat ma'naviyatga asoslanadi, deganda nimani tushunasiz?
3. Ma'naviyat qanday axloqiy sifatlarni o'z ichiga oladi?
4. Siz bugun uyqudan uyg'onib hech narsani eslay olmayapsiz. Na ismingizni, na oilangizni, na qayerdaligingizni eslay olasiz. Bunday inson jamiyatda o'z o'rnini topib keta oladimi? Uning jamiyatdagi o'rnini qanday kechadi? Axir inson o'z tafakkuri, salohiyati, bilimi, aql-idroki — ma'naviy olami bilan millatning qiyofasini, jamiyatning asosini yaratadi-ku?! Bunga sizning fikringiz qanday?



Ma'naviyat barcha axloqiy sifatlarning yig'indisi. Chunki, ma'naviyat jamiyat hayotidagi axloqiy, diniy, madaniy, ma'rifiy va mafkuraviy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi.

Xalqimizga xos ma'naviy fazilatlar tarkibiga kiradigan ko'plab tushunchalar va atamalarni to'g'ridan-to'g'ri o'zga tillarga tarjima qilish mushkul. Bu millatimiz ma'naviy hayotining naqadar boyligini, xalqimizning boshqalarga aslo o'xshamaydigan bir qator o'ziga xos milliy-etnik xususiyatlari mavjudligini, tilimizda esa shu sohaga doir o'xshashi yo'q so'zlar borligini anglatadi.

Ma'naviyat, ma'rifat, axloq — bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bu tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan. Ma'naviyatning axloqiy mezonlari inson tarbiyasi va kamolotida alohida o'rin tutib, shaxs va jamiyat ma'naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllaridir.

Masalan, urf-odatlar, an'analar, Vatanni sevish, o'z xalqi va millatini hurmat qilish, ota-onasini e'zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash, o'z ishiga mas'uliyatli bo'lish, o'z Vatani taqdiriga daxldorlik hissi kabi yuksak ma'naviy fazilatlar o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan.



BILIB OLING

«Kamil inson — jamiki insonlarning haqiqatidir, ya'ni odamiylar odamiysidir».

N. Komilov,
«**Kamil inson —
millat kelajagi**»

| Ma'naviyatning insonlar tomonidan amalga oshiriladigan o'ziga xos xususiyatlari | |
|--|--|
| Ma'naviyatning ijobiy sifatleri | Ma'naviyatga qarshi illatlar |
| <p>Odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat, halollik, poklik, haqiqatgo'ylik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo'lish, kamtarlik, sharm-xayo, andisha, vijdon, oriyat, jasurlik, sahiylik, himmatlilik, muloyimlik, to'g'rilik, haqgo'ylik, mehribonlik, odillik, qonunga bo'syunish, iymon, e'tiqodlilik, vafodorlik, insof va diyonatlilik, samimiylik va hokazolar.</p> | <p>Buzg'unchilik, yolg'onchilik, zo'ravonlik, rasmiyatchilik, loqaydlik, ko'zbo'yamachilik, soxta obro'ga intilish, takaburluk, bepisandlik, mahalliychilik, qo'rqoqlik, isrofgarchilik, xasislik, maqtanchoqlik, qo'polluk, toshbag'irlik, o'ziga ortiqcha bino qo'yish, manmanlik, mag'rurlik, kaltabinlik, badfe'llik, xudbinlik, tanballik, poraxo'rlik, mansabparastlik, shuhratparastlik va boshqalar.</p> |

Ma'naviyatning axloqiy mezonlari muayyan sharoitlarda shakllanadi va shu ma'noda milliy muhit ularning yanada rivojlanishiga ko'mak beradi, jamiyat a'zolari bundan o'zlariga kerakli sifatlarini oladi. Aynan shu belgilar kishilarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ulardagi mushtaraklikni yorqin namoyon etadi. Ma'naviyatning axloqiy mezonlarini axloq, odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlarisiz tasavvur



IJODIY FAOLIYAT

1. Quyidagi hikoyani o'qing va millatning qiyofasi bilan bog'lab tushuntiring:

Avtobusda ketayotgan edim. Orqa tarafda orasta kiyingan, qo'lida bejirim maktab sumkasi ko'tarib olgan, sochlarini chiroyli qilib turmaklagan 17-18 yoshlar atrofidagi qizning telefonda so'zlashishi odamlarning diqqatini tortdi.

— Da, ona, men sizga necha marotaba aytdim, kechroq boraman, bugun ortoqlarim bilan ko'rishaman, deb...

Bu o'smir qizning onasi bilan telefonda gaplashganini avtobusdagilarning deyarli barchasi eshitdi. Ba'zilar uning onasiga qilgan muomalasidan norozi bo'lib, boshlarini chayqab qo'yishdi. U bir necha bekat yurib, tushib qoldi.

Ishdan keyin uyga qaytayotganimda yana avtobusga chiqdim. Kech tushayotganligi sabablimi, avtobus bo'shroq edi. Avtobusning orqa o'rindig'ida yana o'sha onasini jerkib bergan qiz ikki dugonasi bilan telefonda nimalarnidir tomosha qilib, baland ovozda kulib borardi. Avtobus ichi bo'm-bo'sh bo'lganligidan bu hol haydovchining e'tiborini tortdi. Yana 500 metrlar yurdi hamki, haydovchi qo'qqisidan avtobusni to'xtatdi va o'sha qizlarning oldiga kelib: «Uyalmaysizlarmi, kap-katta qizlar baqirib kulgani, axir yosh bola emassizlar-ku?!», dedi-da, yana joyiga qaytib, avtobusni haydab ketdi.

2. Siz avtobusdagi holatga qanday qaraysiz? Ma'naviyatli inson jamoat joyida o'zini qanday tutishi kerak?
3. Odamning tashqi qiyofasi uning odobiga mos kelishi kerakmi?
4. Ma'naviy fazilatlarining insonda kechishi jamiyatga qanday ta'sir etadi?

qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda ma'naviyatning axloqiy fazilatlarini ma'naviyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviyatning bosh mezonini va vazifasi shaxsda axloqlikni, insonparvarlikni shakllantirishidir.

Ma'naviy fazilatlar shaxsning ma'naviy dunyosi shakllanishi kabi murakkab, goho ziddiyatli kechadi, har doim ham bir mezon, me'yorlar bilan o'lchanavermaydi.

Ma'naviyat — inson, xalq, jamiyat va davlatning intellektual salohiyati, ma'rifiy kuch-qudratidir. Buni quyidagilar orqali ochib beramiz:

- jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi talab va qoidalar majmuyi;
- xalq va jamiyat hayoti bilan aloqador ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, ezgu g'oya va maqsadlar tizimi;
- axloq, madaniyat, ma'rifat, din va ta'lim-tarbiya tizimidan iborat yaxlit ma'naviy hodisalar majmuyi;
- ma'naviy jarayonlar, insonning o'zini va o'zi yashayotgan dunyoni takomillashtiruvchi ijodiy faoliyati;
- inson kamoloti, shaxsiy-axloqiy xususiyatlar va ma'rifiy fazilatlar majmuyi.

Jamiyat ma'naviyatini shakllantiruvchi mezon va tamoyillarni qomusiy olimlarimiz yaratgan ma'naviy meros namunalari orqali anglaymiz, ular tomonidan yaratilgan axloqiy fazilatlarini o'z hayotimizga singdirib boramiz. Misol uchun, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur

«Bizning eng katta boyligimiz — bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir».

Shavkat Mirziyoyev

«O'rinli, axloqli va adolatli yashamay turib, yaxshi umr kechirib bo'lmaydi va aksincha, yaxshi umr kechirmay turib, o'rinli, axloqli va adolatli yashab bo'lmaydi».

Epikur

«Barcha fazilatlar singari oʻzni tuta bilish ham mashq orqali rivojlanadi. Kimki katta yoshga yetganda oʻz ehtiroslarini boshqarishni xohlar ekan, bunga u yoshligidan oʻrganmogʻi lozim».

T. Spenser

va boshqa ulugʻ allomalar maʼnaviyati keng va bilim darajasi yuksak insonlar boʻlishgan.

Boshqacha soʻz bilan aytganda, aynan ularning tim-solidida maʼnaviyat millat qiyofasini aks ettirgan. Maʼnaviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati deyilishi aynan haqiqat. Maʼnaviyat yoʻq joyda na baxt-saodat boʻladi, na jamiyat yuksaladi, na tarixiy meros asrab-avaylanadi, na milliy qadriyatlar oʻz ifodasini topadi. Millatning millat sifatida shakllanishi, jamiyat rivoji, barqarorligi, insonlarning tafakkur tarzi yuksalishi uchun biz maʼnaviy qadriyatlar va axloqiy fazilatlariga tayanamiz.

Dars sabogʻi. Millatning, xalqning maʼnaviy qiyofasi jamiyat va davlatning ravnaqi, kafolatidir. Maʼnaviy qiyofasiz inson oʻzligini yoʻqotadi. Uning uchun na Vatan, na ona yurt, na mahalla-koʻy, na oila mavjud boʻladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. «Maʼnaviyati yoʻq insonning kelajagi yoʻq», degan fikrni izohlang. Inson kelajagining maʼnaviyatga qanday aloqasi bor?
2. Demokratik jamiyat rivojini maʼnaviyatsiz tasavvur etsa boʻladimi?
3. Inson kamoloti qanday fazilatlar tufayli yuksalib boradi?



CHISTON-TOPISHMOQ

Badavlat emas, ammo hamisha hurmat va izzatda. U kim?



3-§

Ma'naviy barkamollik



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ma'naviy barkamollik deganda nimani tushunasiz?
2. Insonning huquqiy, axloqiy, ilmiy, badiiy salohiyati nima bilan o'lchanadi?
3. Quyidagi rasmlarda tasvirlangan yoshlarni ma'naviy barkamol inson deb atay olamizmi? Fikringizni asoslang.



Yosh avlodni jismoniy baquvvat, ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda ma'naviyatning ta'siri benihoya kattadir. Zero, barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarimizning o'zligini anglashga, davlat va jamiyat, xalq va oila uchun munosib farzand bo'lishlarida ma'naviyat beqiyos kuch sifatida o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ma'naviy ta'sir deganda aynan ma'naviyatga xos bo'lgan sifatlarning insonga bevosita ta'siri tushuniladi. U o'z ichiga axloq-odob, huquq, nafasat, mehr-muhabbat, muomala madaniyati, mas'uliyat, daxldorlik, olijanoblik kabi fazilatlarni qamrab oladi.

Ma'naviy ta'sir tushunchasini ikki xil ifoda etish mumkin: birinchidan, har qanday insonning kamoloti ma'naviy ta'sirning mahsulidir; ikkinchidan, insonning o'zi ham boshqalar uchun ma'naviy ta'sir manbayidir. Chunki har bir inson ajdodlaridan qolgan ma'naviy-moddiy meros, ezgu fazilatlardan ta'sirlangan holda o'zida pok niyat, sof intilishlarni mujassam etib boradi.



Agar bir yilni ko'zlasangiz sholi eking. Agar 50 yilni ko'zlasangiz, daraxt eking. Agar 100 yil foyda berishini ko'zlasangiz farzand tarbiyalang.

Xitoy hikmati

«Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat».

Jaloliddin Rumiy

Ma'naviy ta'sirning ma'lum bir xalq doirasidagi ko'rishiga biror-bir alloma yoki mutafakkir izidan borgan shu xalqning keyingi avlodi hayoti va ijodini solishtirib ko'rganda, buni sezish qiyin bo'lmaydi. Misol uchun, mutafakkir Alisher Navoiyning o'lmas merosi, durдона asarlarining ahamiyati undan keyin yashab-faoliyat ko'rsatgan Ogahiy, Munis, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi o'nlab shoirlar ijodida namoyon bo'lgan. Yangi asrga kelib Cho'lpon, Avloniy, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Oybek, Maqsud Shayxzoda kabi ijodkorlar ham bu an'analarni davom ettirganlar va rivojlantirganlar. Umu-man olganda, ma'naviy ta'sir — bu ota-onaning farzand-ga ibratidir.

Ma'naviyati mustahkam bo'lgan xalqqa ega yurtning kelajagi ham barqaror bo'ladi. Ma'naviyati mustahkam millat, fuqaro o'z yo'lidan adashmaydi. U jamiyat hayotini rivojlantirishga nafaqat nazariy qarashlari bilan, balki amaliy faoliyati bilan ham hissasini qo'shadi. Vatanni se-vish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi aso-siy omillardan biridir.



IJODIY FAOLIYAT

USTOZ VA SHOGIRD SUHBATI

Shogird so'radi: Oqil farzand fazilatlarini nimada namoyon bo'ladi?

Ustoz javob berdi: Oqil farzand Vatanga sadoqatli, ona zaminiga muhab-bati cheksiz, yurti va xalqi o'tmishining bilimdoni, buyuk ajdodlarining bebaho merosi va xizmatlarini chuqur qadrlaydigan va asrab-avaylaydigan, yurtiga, xalqiga sidqidildan xizmat qiladigan har taraflama barkamol insondir.

1. Oqil farzand deganda qanday xislatga ega bo'lgan inson nazarda tutiladi?
2. Ajdodlar merosini asrab-avaylash qanday fazilatlar sirasiga kiradi?
3. Barkamol inson Ustoz aytgan ezgu sifatlardan tashqari, yana qanday fazi-latlarni o'zida mujassam etgan bo'ladi?

Ma'naviyat kamol topgan jamiyatda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyat, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyati yuksak jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning, millatning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, insonga xos bo'lmagan salbiy illatlar barham topadi. Ma'naviyat ustuvor bo'lgan joyda, u xaloskor kuchga aylanadi. Kishilarning qalbidan joy oladi. Qayerdagi ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilsa, u jamiyat hayotida parokandalik yuz beradi. Buning uchun har bir fuqaro loqayd va befarq bo'lmasdan, tinmay o'z ustida ishlashi, jamiyat va yurt taqdiri uchun yashab, faoliyat ko'rsatishi lozim. «Oila va jamiyat sha'ni men uchun aziz», degan fikr doimo qalbida bo'lishi zarur.

«Xalq — ulug' va sharaflı yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon kabidir. Uni yo'ldan chalg'itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo'lgan, bundan keyin ham bo'lishi mumkin. Karvon bexatar bo'lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi.

«Vijdoningga teskari yurma va haqiqatga zid narsani gapirma. Shu muhim nasihatga rioya qilsang, hayotingda o'z oldingga qo'ygan vazifalarni to'la ado etasan».

Mark Avreliy



MULOHAZA UCHUN

1. Zoe ketkazgan vaqt qaytib berilmaydi, degan fikrga qanday qaraysiz?
2. Hazrat Alisher Navoiyning ushbu hikmatiga quloq tuting:

*«Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas mone',
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il»,*

ya'ni inson o'z umrini ignali sim to'siqlar bilan mustahkam o'rab qo'yganda ham, u zinhor vaqt shiddatidan o'zini asrab qola olmaydi. Demak, har lahza-ning qadriga yeting!

3. Ma'naviy kamolotga erishish uchun vaqtni qanday sarflash kerak? Fikringizni o'z kundalik faoliyatingiz bilan bog'lab tushuntiring.

«Yurtimiz yoshlari o'rtasida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida, umuman, barcha jabhalarda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan azamat yigitlari-miz juda ko'p. Ular o'zining jismoniy va ma'naviy salohiyati, iste'dod va mahoratini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish borasida mamlakatimizda ko'p ishlar qilin-yapti va kelgusida ham ularni albatta davom ettiramiz».

Shavkat Mirziyoyev

Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne ajdodlardan meros yengilmas kuch — ma'naviyat bor».

Ezgu amallar, jasoratga teng ishlar imon-e'tiqodi mustahkam insonlarga xos bo'lgan fazilatlardan sanaladi. Shu boisdan el-yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shish, kasb-kori sha'niga dog' tushirmaslik, doimo fidoyi bo'lish mas'uliyati muqaddas qadriyatlardan hisoblanadi.

Ma'naviyatni shakllantiruvchi asoslarni puxta o'zlashtirgan fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning hayotga, yon-atrofga, oilaga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ijobiy munosabati ularning ezgulik, insoniylik bilan yashashga, ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Dars sabog'i. Ma'naviy barkamol shaxs, nima yaxshi-yu nima yomon ekanini ajratib, hayotda oqilona qarorlar qabul qiladi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarni qaror toptirish yoshlar ma'naviyatining ajralmas bo'lagidir. Zero, ma'naviy salohiyatli barkamol avlod yurt tayanchi va kelajak suyanchi bo'ladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'naviy barkamollikni shakllantiruvchi omillarga nimalar kiradi?
2. Ma'naviyat ustuvor bo'lgan joyda jamiyat a'zolari qanday sifatlarga ega bo'ladilar?
3. Ma'naviy barkamol shaxs tarbiyasida oila va mahallaning o'rnini o'zingizning oilangiz va mahallangiz misolida asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Doimo jozibali, sirli, umrni tikishga arziydi. Ular nimalar?



4-§

O'zbekiston rivojining ma'naviy-axloqiy negizlari



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ma'naviyatni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy sifatlarning o'rnini qanday sezish mumkin? Sinf-doshlaringiz bilan birgalikda bu haqda mulohaza yuriting.
2. Yuksak vatanparvarlik tushunchasiga quyidagi rasmlar orqali ta'rif bering.
3. Ma'naviy-axloqiy fazilatlarining odob-axloq qoidalaridan qanday farqi bor?

Yozgi ta'til paytida yuqori sinf o'quvchilari tarix fani o'qituvchisi bilan birgalikda qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahridagi tarixiy obidalar, qadamjollarga tashrif buyurishdi. Ular ziyoratni Temuriy bobokalonimiz Mirzo Ulug'bek qurdirgan rasadxonani tomosha qilishdan boshlashdi. U yerdan chiqib, Bibixonim madrasasiga o'tishdi. Bu yerda odam tumonat edi. Ular maqbara eshigi oldida ziyorat qilib yurgan bir guruh chet ellik sayyohlarni ko'rishdi. Ba'zi o'quvchilar hatto chet tilida ular bilan suhbat qura ketdi. Bir o'quvchi ustozidan so'radi: «Nega ko'p chet ellik sayyohlar yurtimizdagi Buxoro, Samarqand, Xorazm va Shahrisabz shaharlaridagi ziyoratgohlarga bir marta emas, qayta-qayta kelaverishadi. O'zlari istiqomat qiladigan yurtda shunga o'xshash ziyoratgohlar yo'qmi?» O'qituvchi tushuntirdi: «Biz hurmat qiladigan va doimo bilishimiz kerak bo'lgan shunday qadriyatlar borki, ularni barcha davlat xalqlari



qadrlaydilar, e'zozlaydilar». O'qituvchining javobidan o'quvchi umuminsoniy qadriyatlarning inson hayoti va faoliyatida qanchalik o'рни bor ekanligini tushunib yetdi.

O'zbekistonning rivojlanishi milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Vatanimiz madaniyatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvor mavqeni egallaydi. Umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarning shakllanishi milliy madaniyatlarning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq. Bu borada O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «biz o'z taraqqiyotimizni o'zga mamlakatlar taraqqiyotidan ayri tasavvur eta olmaymiz va hamma narsa biz o'zimizga bog'liq bo'lib qolavermaydi». Bu o'rinda aynan umuminsoniy qadriyatlarga urg'u berilgan. Negaki, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlar o'zaro bog'liq bo'ladi va bir-birini to'ldirib, boyitib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar insonni e'zozlash, hayotni sevishtirish, burch, sadoqat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma'rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do'stlik, hamkorlik singari fazilatlarini ifoda etadi.

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik yoshlarimizni to'g'ri yashab, o'z o'rnini topishga, yon-atrofga oqilona munosabatda bo'lishga, tug'ilib o'sgan diyorini muqaddas deb bilishga hamda do'stlikning qadriga yetishga o'rgatadi.

Milliy qadriyatlar esa shu millat, shu yurt xalqlari tomonidan tarixdan e'zozlab kelinayotgan, inson ma'naviyatini boyitishga xizmat qiladigan qadriyatlaridir.

Milliy qadriyatlarda mehnatsevarlik, tarixiy xotiraga sadoqat, e'tiqodga hurmat, muomalada mulozamat, xaylo va andisha muhim o'rin tutadi. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida «...biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz», deyilgan.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni majburlab singdirib bo'lmaydi. Biron bir milliy madaniyatni ulug'lab, uni boshqa madaniyatdan ustun qo'yish va boshqa xalqlarga majburan targ'ib etish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ko'p millatli mamlakatda milliy madaniyatlarni mensimaslik yoki ularni kamsitish ijtimoiy barqarorlik va milliy totuvlikka putur yetkazadi. Shuningdek, turli ziddiyat va ixtiloflarning paydo bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Mustaqillik tufayli biz o'z imkoniyatlarimizni erkin namoyon qilishga muvaffaq bo'ldik. Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, O'zbekiston Respublika-

sining Asosiy Qonuni — Konstitutsiyada insonlarning tengligi, ularning huquq va burchlari to‘laqonli o‘z aksini topganligi bo‘lsa, ikkinchidan, mamlakat hayotida amalga oshirilgan demokratik islohot va tamoyillarning inson hayoti va imkoniyati bilan ham uzviyligidadir. Uchinchidan, yoshlarimizga yaratilayotgan shart-sharoitlar, xususan, o‘zlarining shaxsiy biznesini amalga oshirishda banklardan berilayotgan kreditlar, sport sohasiga berilayotgan e‘tibor va uning natijalari namoyon bo‘layotganligidadir.

Jamiyatni rivojlantirishda fuqarolar tomonidan ma‘naviy fazilatlarining o‘zlashtirilishi ularning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi, shuningdek, jamiyatning barqaror bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar insoniylik xususiyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlari qondirilishida mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega.

Agar mehnat turlari odamlarning qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab taqsimlansa, deyarli har bir odam o‘zi biladigan kasbini maromiga yetkazib bajaradi, qolaversa, u o‘z ishi bilan jamiyat ravnaq topishiga muayyan hissa qo‘shadi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida iqtisodiy islohotlar bilan birga ma‘naviy-axloqiy me‘yorlarning bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda amalga



IJODIY FAOLIYAT

1. Jamiyatning rivoj topishida ma‘naviy sifatlarning o‘rni kattami yoki axloqiy sifatlarning o‘rnimi? Javobingizni quyidagi jadvalni to‘ldirish orqali izohlang.

| Jamiyatda mavjud bo‘lgan ma‘naviy sifatlari | Jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy sifatlari |
|---|--|
| | |
| | |

2. Nima deb o‘ylaysiz, bu ikkala sifatning qay biri inson uchun muhim sanaladi?
3. Agar bu ikkala sifatlarni fuqarolar ongiga uyg‘unlikda singdirishga erishilsa, bunday insonlarga mafkuraviy ta‘sir ko‘rsatib bo‘ladimi? Javobingizni asoslang.



BILIB OLING

Insondagi yovuzlik va ezgulik ham, zararkunandalik va hojatbarorlik ham tarbiyaning mevasidir.

«**Hikmatlar
xazinasini**»

Odamzod bashariyat uchun manfaatli ishlarni amalga oshira olgani bois ham yuksakdir. Lekin, har qanday muhitda dilida imon–e’tiqodini asrab-avaylashi — bu insoniyatning botiniy buyukligidir.

«**Umr hikmati...
saodati**»

oshirilayotgani yaqqol koʻzga tashlanadi. Ma’naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi mamlakatni nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy yuksalishini ham ta’minlaydi. Ma’naviy-axloqiy fazilatlar qadrlangan yurtdagina yuksalish boʻladi, fuqarolarning tafakkuri teranlashadi.

Jamiyat rivojiga olib keladigan ma’naviy-axloqiy sifatlar oʻzaro bir-birini tushunish va anglash, mehr-oqibat, ezgulik, adolatlilik, sahovatpeshalik, oila va Vatanga muhabbat, sadoqat, bagʻrikenglik, mehmondoʻstlik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik va boshqa shunga oʻxshash yuzlab ezgu fazilatlarni oʻzida uygʻunlashtiradi.

Dars sabogʻi. Jamiyat hayotining barqaror rivoji insonlardagi bir-biriga boʻlgan ishonch, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida yashash, millatlararo totuvlik va hamjihatlik, qonunlarning ustuvorligiga ahamiyat berishda yaqqol namoyon boʻladi. Ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega boʻlgan inson milliy va umuminsoniy fazilatlarni qadrlaydi, uni boyitib, kelgusi avlodlarga toʻlaqonli yetkazishga kamarbasta boʻladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni fuqarolarga qaysi davrdan boshlab singdirib borish lozim?
2. Agar bir insonning bilimi, dunyoqarashi yaxshi boʻlsa-yu, xulqi, odobi yomon boʻlsa, bu insonni ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega inson deya olamizmi? Fikringizni asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Goʻzal ta’limning odob kiyimi. U nima?



5-§

Milliy anʼanalarning inson maʼnaviyati yuksalishiga taʼsiri



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Milliy anʼanalar deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy anʼanalarning insonlar tomonidan oʻzlash-tirilishi maʼnaviy yuksalishga qanday taʼsir etadi?
3. Rasmlarga qarab milliy anʼanalar bilan moddiy va maʼnaviy manbalarning qanday bogʻliqligi borligini ayting.



Milliy anʼanalar millat hayotining turli sohalarida namoyon boʻladigan belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga oʻtishi hamda meros boʻlib qolishini ifodalovchi tushunchadir.

Milliy anʼanalar inson maʼnaviyatini shakllantirishda oʻzlikni anglash omili hisoblanadi.

Milliy anʼanalar umuminsoniy anʼanalarning bir millat miqyosida namoyon boʻlishidir. Ular orqali har bir millatning muayyan davrdagi oʻziga xos xususiyati, madaniyati, fani, adabiyoti va boshqa sohalaridagi erishilgan natijalar va yutuqlari keyingi davrlarda yashayotgan avlodlarga yetkaziladi.

Xalqimiz, buyuk ajdodlarimizning ezgulik yoʻlidagi ishonch-irodasini olis oʻtmishdan bugunga qadar zavolsiz yashab kelayotgan koʻplab anʼana va qadriyatlarimiz,



O'z davrida o'sha millatning dard-u g'amlari, orzu-armonlari, intilishlarini yorqin ifoda etgan milliy qadriyatlar ruhida sug'orilgan asarlar vaqtlar o'tib umumbashariy qadr-qimmat topadi. Bunday nodir va o'lmas asarlarning ko'plab mualliflari Sharqdan yetishib chiqqanliklari bizda faxr-iftixor tuyg'usini kuchaytiradi.

Sen o'tmishga tosh otma. O'tmishga tosh otish, o'likni tepkilash demakdir. O'lik tirilib, xatolari uchun sendan kechirim so'ramaydi. O'tmishdan saboq olish kerak. Ana shu saboqni xulosalab, bugunni o'ylash kerak.

Demokrit

madaniy merosimiz namunalarida ko'rinadi. «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» g'oyasi dunyoda ezgulik tantanasiga bo'lgan ishonchni ifodalagan «Avesto» kitobi bo'ladimi yoki o'z nomidan insonlarni saodatga, ezgulikka eltadigan yo'l sifatida talqin etiladigan «Qutadg'u bilig» asari bo'ladimi, bular ajdodlarimiz pok intilish-u sof niyatlarining yorqin ifodasi sifatida asrlar osha yashab kelmoqda. Xuddi shuningdek, necha asrlar oldin barpo etilgan va istiqloq sabab qayta ta'mirlangan yuzlab madaniy obidalarni ziyorat qilarkanmiz, beixtiyor har birimiz o'zimizda ajdodlar ruhiga nisbatan yuksak hurmat, bo'lajak avlodlar oldida buyuk mas'uliyat tuyg'ularini his etamiz. Mana shuning o'zi inson tafakkuriga ulkan ta'sir emasmi?!

Millatning har bir avlodi milliy an'analarni o'tmishdan kelajakka yetkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi lozim.

Mamlakatimiz istiqloqlga erishganidan so'ng milliy an'analarga e'tibor kuchaydi. Bugun avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan milliy an'analarga, Navro'z, Mustaqillik, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kunlari kabi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy ma'no-mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish lozim bo'ladi. Milliy an'analарimizni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda, to'y-marakalarni, ularning tarkibiy qismi bo'lgan odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

Inson ma'naviyati milliy-madaniy meros, xalq og'zaki ijodi, ilmiy kashfiyotlar, urf-odat va ana'nalar, qolaversa, moddiy va ma'naviy manbalar orqali shakllantiriladi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Milliy anʼanalarning jamiyat rivojiga qanday taʼsiri bor, deb oʻylaysiz?
2. Suqrotning quyidagi fikrini oʻqing va maʼnaviy merosning milliy anʼanalar bilan bogʻliqligini asoslang:

«Men qadimgi donishmandlarning oʻz asarida bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini koʻzdan kechiraman; agarki, biz ularda nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni oʻzlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan hisoblanamiz».

Dars sabogʻi. Milliy anʼanalar hisoblangan ajdodlarimizning bebaho merosi va qadriyatlari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga undaydigan maʼnaviy omilga aylanishi kerak. Ana shundagina milliy anʼanalar sabr-toqat, mehr-oqibat, andisha, urf-odatlariga hurmat, yaxshilarga ergashish, yomonlardan qochish kabi xalqimiz fazilatlarining yanada sayqal topishiga xizmat qiladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Har bir oilada osudalik boʻlishi uchun oila aʼzolari qanday yoʻl tutishi kerak?
2. Siz moddiy qashshoq, lekin maʼnaviy fazilatlarini yuksak darajada rivojlangan insonni koʻz oldingizga keltiring. Bu holatda Siz nimani his qilaysiz?
3. Odamzod bu dunyoda baxtli, saodatli va tinch yashashga erishishi uchun undan nima talab qilinadi?
4. Siz oʻzingizni shu aziz Vatanning faol aʼzosi deb bilasizmi? Fikringizni asoslang.



CHISTON-TOPIHMOQ

Vaqt kelganda, hech kimga quloq osmaydi, hech kim bilan murosa qilmaydi. U nima?



6-§

Ma'naviy merosning inson va jamiyat rivojiga ta'siri



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. «Ma'naviy meros» tushunchasiga ta'rif bering. Siz uni qanday tushunasiz?
2. Ma'naviy merosni mustahkamlash va rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?
3. Ma'naviy boyliklar bilan ma'naviy merosni farqli jihatlari nimada? Quyidagi rasmlarga qarab, o'z fikringizni izohlang.

Ma'naviy meros — ma'naviy taraqqiyot mahsulati, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini ifodalaydigan tushuncha.

Ma'naviy meros ajdodlar tajribasi, ular qoldirgan ma'naviy boyliklarining kelgusi avlodlarning amaliy faoliyati, tafakkur tarzida qanday ahamiyat kasb etishiga ko'ra, yakka shaxs, alohida guruh yoki muayyan millat vakillariga tegishli bo'lishi mumkin.

Merosning ma'lum milliy tilda yaratilgani, milliy madaniy-ma'naviy an'analar, qarashlarni aks ettirgandan ko'ra, muayyan millatga, ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi turli millatlarni qamrab olishi xususiyatiga ko'ra — jamiyatga, insoniyat tarixida tutgan yuksak o'rniga ko'ra — sivilizatsiyaga tegishli bo'lishi ham mumkin.

Ma'naviy meros millat, davlat, mintaqaga tegishli bo'lishi ham mumkin. Masalan, Imom Buxoriy va

Imom Termiziyning diniy-ma'rifiy merosi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid yoki Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga doir kashfiyotlari nafaqat millatimiz va min-taqamizda istiqomat qilayotgan xalqlar, balki jahon si-vilizatsiyasi, madaniyatidan o'rin olgan bebaho ma'naviy meros hisoblanadi.

Moddiy meros insonning ongiga ta'siri nuqtai na-zaridan ayni vaqtda ma'naviy merosga aylanishi ham mumkin. Masalan, bizga qadar yetib kelgan uzoq o'tmishda yaratilgan tarixiy obidalar moddiy merosga mansub bo'lsa-da, ulardagi muhandislik, bezak ishlari, qurilish uslublari va unga oid ashyolarning tayyorlani-shi, bunyodkorlari va boshqa jihatlariga ko'ra ma'naviy merosga aylanadi. Xuddi shuningdek, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalari moddiy merosga mansub bo'lsa-da, bu boradagi an'analarning ajdodlardan avlodlarga o'tishi ma'naviy meros tarzida amalga oshadi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Quyidagi matnni o'qing.
2. Matnda ma'naviy merosning qanday qudrati aks ettirilgan?

... ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha 242 tasi (ayrim ma'lumotlarga ko'ra 160 tasi) yetib kelgan. Olimning bizgacha ma'lum bo'lgan katta asari «Kitob ash-shifo» 4 qismdan iborat bo'lib, undan mantiq, fizika, matematika, metafizika kabi masalalar o'rin olgan. Bu asar bizgacha yetib kelmagan, uning Isfahondagi yong'inda yo'qolgani ma'lum. «Do-nishnoma» nomli asari esa fors tilida yozilgan...

Olimning tibbiyotga oid «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») qomu-siy asarini yaxshi bilamiz. Bu asar 5 ta mustaqil katta asardan tashkil topgan. Bi-rinchi-uchinchi kitoblarda tibbiyotning nazariy asoslari, 800 ga yaqin dorining xusu-siyatlari, ayrim tana a'zolarining kasalliklari va ularni davolash usullari bayon etiladi...

Sh. Mansurov, «Ming bir xazina»



BILIB OLING

Hunarda xalqning boy tarixi, barhayot hikmati va albatta orzu-umidlari yashi-ringan bo'ladi. Shu bois, har kasbning jonkuyari va ustasi o'zining mashaqqatli mehnati, tinimsiz izlanishlari samarasi hisoblangan yangi ixtirolari, noyob ijod namunalari sir-u asrori — favqulod-dagi ahamiyatini boshqalarga anglatib boradi.

Shu jihatdan, insoniyatning yozma manbalarda aks etmagan ko'plab hayotiy bilim va tajribalari ma'naviy meros tarzida ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi. Kishilar ongi, ichki dunyosi, tafakkur tarzi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g'oyaviy yo'nalishlarga boshqarish ma'naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi.

Ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini olaylik. Uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko'rishimiz mumkin. Bu, avvalo, insonning inson bilan, qo'shnining qo'shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning ma'naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.

Moddiy va ma'naviy boyliklarni asrab-avaylash — ezgu fazilat. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirish yo'li ma'naviy meros nuqtai nazaridan qaraganda to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Ular:

- ➔ umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- ➔ xalqimiz ma'naviy merosini qayta tiklash, mustahkamlash va rivojlantirish;
- ➔ insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- ➔ yuksak vatanparvarlik.

Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sohibqiron-u sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Milodgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rk-u fayzini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizdagi dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Tarixda turli beshafqat sinovlardan omon qolgan, eng qadimiy toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir.

Vatanimizning ma'naviy meroslari bor ekan, jamiyat ko'rkamlashadi, insonlarning ma'naviy olami boyiydi hamda farzandlar barkamol shaxs bo'lib yetishadilar.



MULOHAZA UCHUN

Quyidagi matnни o‘qib, ma‘naviy va moddiy meros uyg‘un shakllanishi xususida fikr yuriting:

«Mirzo Ulug‘bek nomi fanga fidokorona xizmat qilish ramzidir. XVII asr o‘rtalarida buyuk polyak astronomi Yan Geveliy Ulug‘bekning katalogini o‘zining «Astronomiya asoslari» asariga kiritgan. U o‘z kitobida ikkita o‘yma naqshli surat keltirgan, ularda Ulug‘bek turli davrlarda yashagan jahonning buyuk astronomlari davrasida tasvirlangan. Bu o‘yma naqshlar astronomiya darsliklari va fan tarixiga oid risolalarga kiritilgan. Ular dunyoga Mirzo Ulug‘bek olimni yetishtirgan astronomiya maktabining shuhratini olamga taratuvchi bebaho yodgorlik bo‘lib qoldi. Ulug‘bek nomi Oydagi krater nomida abadiylashtirildi (XVII). 1977-yilga Quyosh tizimida kashf etilgan va Garvard markazida 2439-raqam bilan ro‘yxatga olingan kichik sayyoralardan biri uning nomi bilan ataladi.»

«O‘rta asrlar sharqining mashhur olim va mutafakkirlari»

Dars sabog‘i. Har bir mamlakat, millat nafaqat bugungi, balki ertangi kunini milliy-ma‘naviy merosisiz tasavvur qila olmaydi. Moddiy-ma‘naviy boyliklar inson va jamiyat farovonligi, barqarorligi kafolati hisoblanadi. Siz bilan biz bulardan unumli foydalanishimiz va ularni ko‘paytirishimiz lozim.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. O‘zbekistonning boshqa mamlakatlardan farqli jihatini ko‘rsatuvchi qanday ma‘naviy meroslari bor?
2. Insonning inson bilan, qo‘shnining qo‘shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, shaxsning jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashi nimaning beligisi hisoblanadi?



CHISTON-TOPISHMOQ

Bozorda sotilmas, oltinga topilmas. Ular nimalar?



7-§

Oila — muqaddas qoʻrgʻon



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Oilaviy farovonlik tushunchasiga taʼrif bering.
2. Bugungi kunda mamlakatimizda oila masalasi-ga qanday ahamiyat berilmoqda? Bu haqidagi fikringizni asoslang.
3. «Oila — muqaddas qoʻrgʻon». Mazkur tushun-chaga quyidagi rasmlar orqali taʼrif bering.



Oila — nikohga yoki tugʻilganlikka asoslangan kichik guruh. Uning aʼzolari roʻzgʻorning birli-gi, oʻzaro yordami va maʼnaviy masʼuliyati bilan bir-biriga bogʻlangan. Oilaning eng muhim ijtimoiy va-zifalari — inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiya-lashdan, oila aʼzolarining turmush sharoitini va boʻsh vaqtini samarali uyushtirishdan iborat.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarining rivojini taʼminlovchi muqaddas maskan hamdir. Oilada biz va avlodlarimiz tarbiya topib, ulgʻayamiz, dunyoni anglaymiz hamda barchamiz turli feʼl-atvor kasb etib boramiz.

Oila jamiyatning poydevorini tashkil etadi. Jamiyat va davlatning farovonligi, gullab-yashnashi bevosita shu jamiyatdagi oilalarning moddiy va maʼnaviy jihatdan mustahkamligiga bogʻliq.

Oilaviy tarbiyada ota-ona va farzandlar munosabati alohida oʻrin tutadi. Bunda ota-ona zimmasida maʼna-viy yetuk, jismoniy baquvvat yosh avlodni yetkazish ba-robarida, jamiyat ravnaqi uchun muayyan bir kasbning fidoyisi, iqtisodiy mustaqil, ishbilarmon, tadbirkorlik

madaniyatiga ega shaxsni kamol toptirish tushadi. Farzandlar esa bu go'zal va maqbul tarbiyani o'zida shakllantirib, o'zlashtirib boradi.

Sharqda oila azaldan muqaddas dargoh sifatida qadrlangan. Oila a'zolarida muayyan turmush tarziga rioya qilib, tajriba orttirish, saranjomlik va tejamkorlik, qat'iylik va to'g'riso'zlik singari odob-axloq me'yorlarini kamol toptirish azaldan oilaning asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Buyuk qomusiy olimlarimiz, xususan, Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-xaqoyiq», Abu Nasr Forobiyning «Baxtga erishish haqida», Abu Ali ibn Sinoning «Tadbir al-manozil» risolasi, Sa'diyning «Guliston», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror», Abdurahmon Jomiyning «Silsilat uz zaxab», «Bahoriston», Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» va boshqa ko'pgina asarlarda oila ma'naviyati, bolalar va yoshlar tarbiyasining uslublari, ota-onaning oiladagi vazifalari, farzandning ular oldidagi burchi, oilaviy tarbiyaning mazmun-mohiyati har tomonlama sharhlanib turli hayotiy rivoyatlar orqali atroflicha yoritib berilgan.

O'zbek oilalari totuvligi, bolajonligi, yaqin birodarlar va qarindosh-urug'larga nisbatan o'zaro hurmatda bo'lish, mehr-oqibat rishtalarining mustahkamligi va boshqa oilaviy qadriyatlarning ustunligi bilan ham dunyodagi ko'pgina millat, xalqlardan ajralib turadi.

Agar oilada hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro hurmat, bir-biriga ishonch kuchli bo'lsa, rostgo'y, samimiy, mehribon, o'z yaqinlariga, qarindosh-urug'loriga, qo'ni-qo'shnilariga doimo yordam berishga tayyor bo'lgan insonlar kamol topadi. O'zida ushbu fazilatlarni mujassamlashtirgan insonlarning oilalarida doimo halo-

«Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostiga qoladi».

Abdurauf Fitrat



BILIB OLING!

O'zbekistonda 1998-yil — «Oila yili», 2000-yil — «Sog'lom avlod yili», 2001-yil — «Onalar va bolalar yili», 2002-yil — «Qariyalarni qadrlash yili», 2003-yil — «Obod mahalla yili», 2004-yil — «Mehr-muruvvat yili», 2005-yil — «Sihat-salomatlik yili», 2007-yil — «Ijtimoiy himoya yili», 2008-yil — «Yoshlar yili», 2010-yil — «Barkamol avlod yili», 2012-yil — «Mustahkam — oila yili», 2013-yil — «Obod turmush yili», 2014-yil — «Sog'lom bola yili», 2016-yil — «Sog'lom ona va bola yili», 2017-yil — «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» deb nomlangan.

vat va tinchlik hukm suradi. Agar aksincha bo'lsa-chi? Bunday oilani fayz-baraka, samimiyat, totuvlik, oqibatlilik va muhabbat tuyg'ulari butunlay tark etadi.

Shu ma'noda oilaning har bir a'zosi nafaqat o'zining shaxsiy farovonligi yo'lib, balki oilasining manfaatlarini uchun qayg'ursa, o'z yaqinlariga g'amxo'rlik qilishni maqsad qilib olsa, oilaning farovonligi yanada mustahkamlanadi.

Yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va mahalla fuqarolar yig'inining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, mustahkamlash va samaradorligini oshirish borasida qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu maqsadda 2012-yildan «Oila-mahalla-ta'lim muassasasi» hamkorligi huquqiy me'yor asosida belgilab qo'yildi.

Oila kodeksining qabul qilinishi esa, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, oila manfaatlarini takomillashtirish borasida muhim qadamlardan bo'ldi. Unga ko'ra, nikoh qurishdan oldin yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, yosh oilalar uchun dastlabki besh yil mobaynida dispanser nazoratini tashkil etish ishlari amalga oshirildi.

Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi va uning quyi bo'limlari tashkil etilganligi oila, onalik va bolalik manfaatlarini nafaqat huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza etish, balki ilmiy-amaliy nuqtai nazardan o'rganish, ilg'or g'oyalar asosida oila farovonligini ta'minlash kabi hayrli ishlarga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so'ng oila farovonligini ta'minlash davlatimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, yosh oilani moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga ko'maklashish, imtiyoz

va imkoniyatlar yaratish, avvalo, uy-joy bilan ta'minlash — bularning barchasi uchun nafaqat ota-onalar, birinchi navbatda, davlat va jamiyatimiz mas'uldir.

Respublikamiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila farovonligi yo'lida egzu va xayrli ishlar amalga oshirildi:

- oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy manfaatini oshirish;
- ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, boquvchisi yo'q keksalar, yolg'izlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni tarbiyalash borasida keng qamrovli ishlar shular jumlasidandir.

Yurtimizda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu me'yoriy hujjatlarda oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash nazarda tutiladi.

Oilaviy tadbirkorlik ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarni keltirib chiqaradi. Tadbirkorlik hamda xo'jalikni oqilona boshqarish asosida oila tarbiyasining



IJODIY FAOLIYAT

1. Oilangizda siz yoki uka-singillaringizni erkalab ota-onangiz qanday ezgu niyatli so'zlarni aytadi?
2. Quyidagi matnni o'qing va o'z oilangizdagi shunday holat bilan solishtiring.

OTA GO'DAK FARZANDINI SUYGANDA KO'KKA OTADI

Bu «mendan-da ulug' bo'l, bolam» degani. Bu haqiqiy g'amxo'rlik va farzandni barcha narsadan, hatto, o'z-o'zidan-da aziz bilish ifodasi. Ota farzandi maktabga borganida uni quchog'iga olar ekan, peshonasidan o'padi. Bu «toleying porloq bo'lsin» degani. Ertaning umidi bor unda, farzandining iqboli uchun har narsaga tayyorlik mujassam bo'ladi ushbu mehrda. Harbiyga kuzatayotganda ota o'g'lining belidan dast ko'taradi. Bu «Vatan xizmatiga bog'lagan beling mustahkam bo'lsin» degani. O'qishni bitirib, o'g'li qo'lidan ish olganida ota duoga qo'l ochadi: «yo'ling yorug' bo'lsin, bolam»... O'shanda uning ko'zlari yoshlanganini ko'rmaysiz, qalbidagi iftixorni tasavvur qila olmaysiz. Farzandining ulug' ishlarni qilganini ko'rganida esa «otam» deb suyadi, qiziga esa «ona qizim» deb murojaat etadi... Buning tagida shunday hikmat bor: «bugun seni suysam ertaga senga suyanaman!»

Bosma OAV materiallari

«Xalqimizning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq».

Shavkat Mirziyoyev

yo'lga qo'yilishi yosh avlodda insonparvarlik, tejamkorlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, uddaburonlik, ziyaraklik, mas'uliyatlilik kabi fazilatlarining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Dars sabog'i. Har qanday jamiyatda fuqarolarning baxtli, saodatli, turmushning go'zal va farovon bo'lishi aynan oila qo'rg'onidagi har bir a'zoning o'ziga to'q, uddaburon, jamiyat va davlat ravnaqiga shaxsiy daxldor, ma'nan yuksak bo'lib, ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan yetukligiga bevosita bog'liqdir.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Oilaning to'kisligi nimaga bog'liq?
2. Sizning oilangizda oilaviy tadbirkorlik yo'lga qo'yilganmi? Nega oilada biror hunar o'rganish kerak, deyiladi?
3. «*Sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan*», «*Sen ulug' mutafakkirlar, allomalar yashab o'tgan diyorda tug'ulgansan*», degan gaplarni eshitganingizda qalbingizga shu Vatanda, shu yurtda yashayotganligingizdan g'ururlanish tuyg'usi kechadimi? Fikringizni asoslang.
4. Siz oila a'zolaringiz bilan uy sharoitida kichik biznes boshladingiz. Siz yaratayotgan mahsulotni sizdan avval mahallangizdagi boshqa bir xonadon boshlagan va bozor bilan aloqani yo'lga qo'yib, o'z mahsulotining xaridoriga ega. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?



CHISTON-TOPISHMOQ

O'zimniki, lekin o'zimga tegishli emas. U kim?



8-§

Ma'naviy qadriyatlar rivojida millatlararo totuvlik munosabatlari



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Millatlararo totuvlik deganda nimani tushunasiz?
2. Ma'naviy qadriyatlarining millatlararo totuvlikka qanday bog'liqligi bor? Fikringizni rasmlar orqali asoslang.
3. Mamlakatimizda bugungi kunda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha qanday ezgu ishlar amalga oshirilmoqda?



Millatlararo totuvlik — millatlararo ahillik, xalqaro do'stlikdir. Millatlararo totuvlik milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan sanalib, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihatlikda yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushunchadir.

Millatlararo totuvlikni bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosi deb atash mumkin. Millatlar o'rtasidagi mushtarak ezgu maqsadlarni nazardan qoldirmaslik, azaliy qadriyatlar taraqqiyoti asosini tashkil etadi.

Yer yuzidagi 1600 dan ortiq millatdan bor-yo'g'i 200 dan ortig'i o'z davlatiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muntazam o'rganib borish zarur.



«O‘zbekiston xalqi-ni, millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi».

**O‘zbekiston
Respublikasining
Konstitutsiyasi,
8-modda**

Mamlakatimiz hududida qadimdan ko‘plab millat va elat vakillari hamjihatlikda yashab kelishgan. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagan. Xalqimiz azaldan bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, kechirimlilik, boshqalarning urf-odat va qadriyatlarini e‘zozlash kabi umuminsoniy fazilatlarni ko‘rsatib kelgan.

Millatlararo totuvlik umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta‘sir etadi, tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda yer yuzida 6 mlrd dan ziyod aholi mavjud. O‘zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda. Davlatlar ko‘pmillatli (polyetnik) va bir millatli (monoetnik) tarkibga ega bo‘lib, har biri o‘ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Har



TARIXGA NAZAR

O‘zbek xalqining mehmondo‘stligi va bag‘rikengligi ayniqsa urush yillarida namoyon bo‘ldi. Shu davrda O‘zbekistonga 1 mln dan ortiq kishi, jumladan, 200 ming bola evakuatsiya qilindi. Turli millatga mansub yetim bolalarni o‘zbek xalqi o‘z farzandiday ardoqlab, ularni voyaga yetkazdi. Masalan, toshkentlik Shoahmad Shomahmudovlar oilasi insonparvarlikning yuksak namunasini ko‘rsatdi. 2-jahon urushi davrida toshkentlik oddiy temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning ayoli Bahri Akramova turli millatning qarovsiz va yetim qolgan bolalarini farzandlikka olib, ta‘lim-tarbiya bergan. Ular boshpanasiz qolgan, turli millat vakillari bo‘lgan 13 bola va urushdan so‘ng yana 3 bolani o‘z tarbiyalariga olishgan. Bular: Habiba, Vova, Shuhrat-rus, Hamidulla-ukrain, Rafiq, Rahmatulla-tatar, Holidamoldavan, Samuv-chuvash, Yo‘ldosh, Ergash-yahudiy, Halima-qozoq, Qoravoy, Ne‘mat, Muazzam, Hakima, Ulug‘bek-o‘zbek. Shomahmudovlar oilasi insonparvarlikni ulug‘lovchi oila sifatida katta jasorat, qahramonlik ko‘rsatdi.

bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'ziga xos qadriyatlari ham bor.

O'zbekiston kabi ko'p millatli mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqdir. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar o'rtasida tinchlik, osoyish-talik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Buni Asosiy qonunimiz ham tasdiqlaydi.

Jamiyat hayotida dinlararo bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do'stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlariga tayanadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi.

Darhaqiqat, har bir inson, jamoa va millat bashariyatning turli-tuman madaniyatlardan iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhim. Zero, bag'rikengliksiz tinchlik, tinchliksiz taraqqiyot bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda 16 ta diniy konfessiya, 2200 dan ortiq diniy tashkilotning diniy bag'rikenglik asoslariga rioya qilgan holda o'zaro tinch-totuvlikda

Nafing agar xalqqa
beshak durur,
Bilki, bu naf o'zungga
ko'prak durur.

Alisher Navoiy

Bu bo'stonda do'stlar
etmasa ko'mak,
Nasib bo'lmas maqsad
gulini termoq.

Sa'diy Sheroziy

«Samarqand shahrida Sohiqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor paygʻambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va yahudiylik dini vakillari tomonidan birdek eʼzozlanadi...

Shu birgina misolning oʻzi olijanoblik, ezgulik va tom maʼnodagi bagʻrikenglik fazilati xalqimiz tabiati, mentaliteti asosini tashkil etishidan dalolat beradi».

Shavkat Mirziyoyev

umrguzaronlik qilayotgani fikrlarimizning yaqqol dalilidir.

Ayni paytda turli millat va elatlarning milliy anʼana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlatimizning doimiy eʼtiborida boʻlib kelmoqda. Bugun umumiy oʻrta taʼlim maktablarimizda yetti tilda — oʻzbek, qoraqalpoq, rus, qirgʻiz, turkman, qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari Oʻzbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning oʻnta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin ifodasidir.

Istiqlolga erishganimizdan soʻng yurtimizda millatlararo totuvlik munosabatlari yanada rivoj topdi. Bagʻrikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash jamiyat hayotining ustuvor vazifasiga aylandi.

Xususan, bugungi kunda yurtimizda etnik oʻziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uygʻunlashtirish boʻyicha 137 ta milliy madaniy markaz faoliyat koʻrsatayotgan boʻlsa, mamlakatimizdagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi bu madaniy markazlar faoliyati rivojiga amaliy va uslubiy yordam berib kelmoqda.



BILIB OLING!

Buyuk alloma, moturidiya yoʻnalishi asoschisi Abu Mansur Moturidiyning (870-944) asarlarida diniy bagʻrikenglik, barcha dinni birdek hurmat qilish uqtirilgan. Uning Qurʼon tafsiriga bagʻishlangan, islom olamida juda keng tanilgan «Taʼvilot ahl as-sunna» asari «Haj» surasi 40-oyat tafsirida: «Cherkov va sinogalarni vayron qilish man etiladi. Shuning uchun ham musulmonlar yurtida shu davrgacha ular buzilmay saqlanib qolgan. Bu masalada ilm ahli orasida ixtilof yoʻqdir», deyiladi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 5-yo‘nalishi — Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalish bo‘lib, quyidagi muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;
- axborot xavfsizligini ta‘minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish;
- millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;
- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish nazarda tutiladi.

Dars sabog‘i. Millatlararo totuvlikka e‘tibor qaratilishi O‘zbekistonda yashayotgan millat va elatlarning turli kasb-korlarda faoliyat olib borishi, urf-odat va an‘analardan xabardor bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Bu bevosita ma‘naviy qadriyatlarning millat ichida rivoj topib, yanada boyishiga olib keladi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta‘minlashning asosiy jihatlari nimada deb o‘ylaysiz?
2. Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik o‘zaro qanday aloqadorlikda rivojlanadi?



CHISTON-TOPISHMOQ

G‘ubordan ham g‘uborli. U nima?



Muloqot va o'zaro munosabatlarda ma'naviyatning o'рни



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Muloqot madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Nima deb o'ylaysiz? Jamiyat madaniyatsiz va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay oladimi?
3. O'zaro munosabatlarga kirishning qanday qoidalari mavjud?
4. Do'stlashish madaniyati deganda nimani tushunasiz? Do'st tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

Har qanday inson ma'lum bir jamiyat vakili hisoblanadi va o'zini shu jamiyatning madaniyati va qadriyatlaridan alohida tasavvur eta olmaydi. Jamiyatda insonlar amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va shu kabi munosabatlarning debochasida muloqot turadi. Inson jamiyatda yashar ekan, kim bilan bo'lsa ham o'zaro muloqotga kirishadi. Inson muloqotga kirishishi uning shu jamiyatning a'zosi, harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi.

Muloqot qilishda muomala odobi muhim ahamiyatga ega. Yaxshi muomala baxt-saodatning kaliti. Insonlararo muloqotda namoyon bo'ladigan odob-axloq belgilari bu — xushfe'llik, xushmuomalalik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik va boshqalardir.

Muloqotning asosiy manbayini so'z tashkil etadi. Xalqimizda, «Yaxshi so'z — jon ozig'i, yomon so'z — jon qozig'i», degan maqol bor. Yaxshi yoki yomon so'z insonning ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ulug' allomamiz Mahmud az-Zamahshariy shunday deydi:

«Ko‘pincha til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og‘irroqdir».

So‘zlash va tinglay bilish ham muloqot madaniyatini tashkil etadi. Bu o‘rinda Yusuf Xos Hojib «O‘ynab so‘zlasang ham, o‘ylab so‘zla» degan. Yoki bobolarimiz: «Sen shunday gapirginki, so‘zlaring sadaf qadriga teng bo‘lsin, shunday sukut saqlaginki, ul dur-u gavharga aylansin», deya bejiz aytmaganlar. Demak, muloqot jarayonida so‘zlarni tanlab gapirishni, nima deyishni, qaysi paytda tinglashni va sukut saqlashni bilish lozim.

Shirinso‘z, mulohaza-mushohada bilan samimiy muloqotda bo‘lish har bir insonning fazilat va burchidir. Umuman olganda, muloqot kishilarning bir-biriga ta‘siri, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi sifatida o‘zaro munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda jamiki jonzotlar pinxona va oshkora muloqotga kirishadi. Lekin faqat insonlargina ongli tarzda bir-biri bilan muloqot qiladi. Bir-biri bilan munosabati uning insoniy fazilatlarini ochib beradigan muhim xususiyat, jarayon hisoblanadi.

Tanishish va munosabat o‘rnatish qoidalari insonni muloqotga kirishishi bilan aloqador. Unga ko‘ra, tanishib munosabat o‘rnatishda kiyinishi, o‘zini tutishi,



IJODIY FAOLIYAT

1. Do‘st tanlashda nimalarga e‘tibor berish kerak? Ma‘naviyatli inson qanday insonlar bilan do‘st tutinadi?
2. Quyidagi hikoyani o‘qing.

Bir yaqin do‘stim bor. U hamisha orasta kiyinadi: egnidagi kiyim-bosh toza, dazmollangan. Xulq-atvori go‘zal: odob bilan boshqalarni eshitadi, xayrli, ta‘sirli gaplarni so‘zlaydi. Ibodati ajoyib: insonlarga faqat quvonch ulashib, ularga manfaati tegib yashaydi. Niyati xayrli: kishilar ortasidagi munosabatlarda xiyonat, kibr, adovat, johillik, yolg‘onchilik kabi illatlarning yo‘qolishini istaydi... Mening, bundan murod ne, degan savolimga do‘stim biroz o‘ylanib, javob qaytardi: «G‘animat umrimni xayrli va ezgu ishlarga sarflab, o‘zimdan yaxshi nom qoldirsam...»

3. Bu do‘stning qanday ma‘naviy go‘zal jihatlarini o‘zingizga olishingiz mumkin?
4. Nima deb o‘ylaysiz? Insonda bunday go‘zal tarbiyaning shakllanishida ota-ona, oila, muhitning qanday ta‘siri bor?



BILIB OLING!

XII asrda yashagan Shayx Azizuddin Nasafiyning «Komal inson» kitobida quyidagilarni o'qiy-miz: «Odamiylik alomati to'rt sifatdir, ya'ni: yaxshi so'z, yaxshi ish, yaxshi xulq va ma'rifat. Kimda ushbu to'rt sifat bo'lsa, odamiydir, ammo kimdagi bu sifatlar bo'lmasa, u odamiylardan emas. Kimki ushbu to'rt sifatni kamolga yetkazgan bo'lsa, komil insondir».

«Osuda yashash-ning 99 siri»



CHISTON- TOPISHMOQ

Tosh eriydi,
ammo u erimaydi.
U kim?



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

so'zamolligi va kirishimliliigi bilan bog'liq jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aytishlaricha, «kiyimiga qarab kutib oladilar va aqliga qarab kuzatadilar» tamoyiliga asosan tanishish va munosabat o'rnatishda har ikki tomonning qiziqishlari, tafakkur tarzi, ma'naviyati va madaniyatliliigi hisobga olinadi. Munosabat o'rnatishda har ikki tomon bir-birini tushunishi va anglashi lozim bo'ladi.

Har bir narsaning mantiqiyliigi va madaniiyati bo'lga-ni kabi do'stlashishning ham madaniiyati mavjud. Bunda, eng avvalo, ikki tanishuvchi shaxs bir-birini uzoq mud-dat sinashi, mushkul holatlarda sidqidildan yordam-ga kelishi har qachongidan muhimdir. Do'st tutingach, sodiq do'st bo'lish va do'stlikni qadrlash lozim.

Chin do'st hayot davomida turli qiyinchilik va si-novlarni yengib o'tishda kishiga ham qanot, ham yelk-adosh sifatida yordam ko'rsatadi. Jaloliddin Rumiy ayt-ganidek: «Oqil do'sti bo'lgan kishining ko'zguga ehtiyoji yo'q». Chunki haqiqiy do'st oynadek kishining nuqson-u kamchiliklarini yuziga aytib, uni yomon odatlardan qay-tarib turadi.

Dars sabog'i. Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi ke-rak — qalbi ham, aqli ham, tashqi ko'rinishi ham, boshqa-lar bilan muomalasi ham. Inson jamiyatda yashar ekan, boshqalar bilan muloqotga kirishish orqali faol fuqarolikka ega bo'lib boradi. Muloqotning mazmun-mohiyati va xusu-siyati insoniy munosabatlar o'rnatishning tarkibiy qismidir.

1. Muloqot madaniiyati nima uchun kerak?
2. Muloqot madaniiyati yuksak rivojlangan inson bilan ma'rifatli insonning farqi nimada? Fik-ringizni asoslang.



10-§

Aqliy salohiyatning jamiyat ma'naviy yangilanishidagi o'rnini



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. «Maktab», «Ma'rifat» va «Ma'naviyat» tushunchalarining o'zaro bog'liqligini izohlang.
2. «Ilm-u ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi», deganda nimani tushunasiz?
3. Quyidagi rasmlarga qarab, ma'naviy salohiyat egalari haqida fikr yuriting.



Yosh avlod bor bilimni maktabda oladi. Maktabni bilim dargohi deyish bilan bir qatorda o'quvchining hayot yo'lini belgilab beruvchi, uni shaxs sifatida shakllanishini kafolatlovchi maskan ham deyish asosli. Maktab o'qituvchi va o'quvchi asosiga quriladi. Unda yuksak ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatlik ustuvor bo'lishi lozim. Umumta'lim maktabi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish va faoliyati davomida ta'lim-tarbiyani rejalashtirish, o'quv-pedagogik jarayonni olib borish, maktab ishlarini yuritishni tashkil qilishda qator me'yoriy hujjatlarga tayanadi.

Davlatimizda yoshlarimizni barkamol qilib voyaga yetkazish, ularga bilim, ta'lim-tarbiya berish masalasi konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. Ma'naviyati-



«Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi».

Shavkat Mirziyoyev

mizning asosini tashkil etgan, hayotimizning ajralmas qismiga aylangan, davlatimizning doimiy diqqat-e'tiborida turgan ta'lim masalasi Asosiy Qonunimizdan mustahkam o'rin oldi.

Maktab ta'lim-tarbiya ishlarini har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiradi, o'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi, shu jumladan, o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlari va qo'shimcha bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Tabiiyki, yurtimizdagi barcha o'quv muassasalari kabi maktab ham o'quvchilarida milliy hamda umumbashariy qadriyatlarini uzviy birlashtirish asosida milliy g'oya ruhi-da yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish, ularni haqiqiy inson, Vatanga sadoqatli fuqaro sifatida tarbiyalashga mo'ljallangan.

Maktab barkamol shaxs ta'lim-tarbiyasi ustuvorligiga ahamiyat qaratgan holda o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston Respublikasiga va uning Konstitutsiyasiga sodiqlikni shakllantiradi, Davlat ramzlariga (bayrog'i, madhiyasi va gerbi) hurmatni, qat'iy intizom va fan asoslarini puxta egallashga sidqidildan yondashishni o'rgatadi. Shuningdek, maktabning zimmasiga bilimli, madaniyatli shaxslarni shakllantirish, ularni oila, jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyatni to'la anglaydigan va egallagan bilimlarni hayotga tatbiq eta oladigan shaxs sifatida kamol toptirish vazifasi ham yuklatilgan.

Muhimi, bugungi kunda axloqan pok, jismonan baquvvat, Vatanga sadoqatli, izlanuvchan, fidoyi inson, o'zining mustaqil fikriga ega, tashabbuskor, sog'lom avlodni yetkazib berish jamiyat rivojining muhim asosidir.

*Odamdan yuqori tururkan olam,
Bilim oshirmoqqa muhtojdir inson.*

Ilm-u maʼrifat insonni yuksaklikka koʻtaradi. Ilm, maʼrifat ham oʻz navbatida madaniyat, maʼnaviyat tushunchalari bilan chambarchas bogʻliq, ular uygʻun ravishda qoʻllanadi. Chunki, maʼrifat maʼnaviyatga olib keladigan yoʻl, uni shakllantiruvchi vositadir. Shu bois Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov haqli ravishda taʼkidlaganidek: «Ilm-maʼrifatga qiziqishi sust millatning kelajagi ham boʻlmaydi».

Ilm-u maʼrifat maʼnaviy qaramlikni bartaraf etuvchi kuch, u insonga aqliy, ruhiy quvvat baxsh etadigan omil sifatida namoyon boʻladi. U kishilarni jaholat changalidan qutqaradi, buzuq, yomon, gunoh ishlardan qayta-



BILIB OLING

«Oʻzaro totuvlik, maqsadlar mushtarak boʻlgan joydagi-na oila farovonligi, yurt ravnaqi, xalq baxt-saodati qaror topadi».

**«Hikmatlar
xazinasi»**



IJODIY FAOLIYAT

1. Nega bilimli, dono insonlarga nisbatan «maktab koʻrgan» degan taʼrif ishlatiladi?
2. Taʼlim muassasasi boʻlmaganda yoshlarning taʼlim-tarbiyasi qanday ahvolda boʻlard?
3. Quyidagi hikoyani oʻqib, oʻz fikringizni bildiring.

Odiljon sinfida eng aʼlochi oʻquvchi. U har kuni uy vazifasini qilish bilan bir qatorda mavzuga aloqador boʻlgan voqea-hodisalar, jarayonlarni yozib boradi. Oʻqituvchi tarix darsidan temuriylar davlati haqidagi mavzuni soʻraganida u Sohibqiron yaratgan «Temur tuzuklari» asaridan saltanatni adolatli boshqarish, davlatda adolatni qaror toptirishda davlat hukmdorining qatʼiyatli boʻlishi lozimligi haqida qoʻshimcha qildi.

Dars yakuniga yetganda sinfdoshlari uning atrofini oʻrab olishib, har darsda mavzu boʻyicha qiziqarli maʼlumotlarni topib kelishi sirini soʻrashganida, u har darsdan keyin 2 soat maktab kutubxonasiga kirib, badiiy adabiyotni, yangi chiqqan qonun va qarorlarni muntazam oʻqib, oʻziga belgilab olishini aytdi.

«O'n yil och
yursang ham ilm
yo hunar izlash
yo'lidan qolma».

**Abu Hanifa
Imomi A'zam**

radi, ezgu xulq va odob egasi bo'lishga ko'maklashadi. Faqatgina chinakam ilmga, ma'rifatga erishgan odam inson qadri, millat qadriyatlarini, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, bir so'z bilan aytganda, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik ko'rsata oladi.

Shu bois, ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, uning kelajagi porloq bo'ladi. Misol uchun, sohibqiron Amir Temur zamonida xalqimiz ma'naviyat-ma'rifat borasida jahonda dong taratgani bejiz emas.

Ma'rifat ma'naviyatga yetaklaydi. Ma'naviyatni hayotga singdirish faqat maorif orqaligina emas, ma'rifat o'choqlari, turli ijodiy uyushmalar, tashkilot, muassasalar orqali ham amalga oshiriladi. Bu esa odamlar ma'naviy o'sishini ta'minlaydi, xalq ma'naviyati va ma'rifatining yuksalishiga imkon beradi.

Ma'rifat orqali insonning iqtidori, istedodi, qobiliyati, intilishiga yarasha ma'lum bir darajaga erishadi. Ma'rifat tarqatish yo'li bilan siyosat va iqtisod sohalarida umumijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga erishish ma'naviyat ahlining mas'uliyatidir. Chunki chinakam ma'rifatli insonlarga o'z yurtining taraqqiy etishiga, dunyoda munosib o'rin egallashiga hissa qo'sha oladi, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga qodir bo'ladi. Bu esa ustoz va murabbiylar, ota-onalar, butun jamiyat zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beradigan, ularni ma'naviyat-ma'rifatga chorlaydigan ustozlar hurmatini joyiga qo'yish, ularga munosib sharoit yaratib berish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Buyuk ma'rifatarparvar Abdulla Avloniy: «... *Ma'rifatli xalq shijoatli bo'lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruh-*

ning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, funundan va madaniyatdan mahrum bo'lgan xalq jaholat panjalari-ning orasida xamir kabi ezilgandek, a'fali zamirida ham o'z nafsining yoqasini bo'shata olmas... Zeroki, jaholat va qo'rqinch, faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatli bir mu-sibatdir», degan edi.

Dars sabog'i. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jamiyatimiz ozod va erkin istiqbol sari yuz tutdi, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki, inson, xalq, jamiyat va davlatning kuch-qudra-ti fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy tarixi, ma'naviyatning milliy-etnik asoslari, milliy qadriyatlar, xalqning sa-lohiyati boshlang'ich asos — maktabdagi ta'lim va tar-biyaning natijasidir.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bugun O'zbekistonda barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ta'lim va tarbiyaning o'rnini asoslang.
2. Inson aqliy va ma'naviy salohiyatini oshirishda ma'rifatning o'rne qanday?
3. Biz qanday insonlarni aqliy salohiyatli shaxs deb hisoblaymiz? Fikringizni asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Ularga erishish, ularni o'zida jam etish, ularni topish oson emas. Ularni to'g'ri sarflash, joyida ishlatish, unum-li foydalanish undan ham qiyin. Ular nimalar?



BILIB OLING

«Butun ma'naviyat tarixi shuni ko'rsatadiki, sivilizatsiya degani bu — insonning o'zini kamol toptirish uchun olib borgan kurashining hosilasidir. Barcha dinlar, ta'limotlar inson qobiliyati, ruhiyati va axloqini o'rganish, komil insonni tarbiyalab, to'g'ri yo'lga boshlash bilan shug'ullanib keladilar».

N. Komilov,
«Tafakkur
karvonlari»



11-§

Adabiyot — xalq qalbining ma'naviy ifodasi



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Nega adabiyot ma'naviyatga yetaklovchi asos deyiladi? Rasmlar orqali fikringizni asoslang.
2. Ma'naviyatni yuksaltirishda adabiyotning o'рни qanday?
3. Adabiyotsiz ma'naviy merosni avlodlarga yetkazish mumkinmi?

B

ir odam ishlab chiqarish korxonasi ishlaydi, u telefon, televizor, mashina yoki oyoq kiyim ishlab chiqaradi. Uning mehnatiga xaridori bo'lgan iste'molchilar mahsulotdan foydalanib, baho berishlari mumkin. Boshqa odam ijod qiladi. She'r yoki badiiy roman yozadi. Uning bahosini kim chiqaradi? Umu-man, badiiy ijodni baholay olamizmi? Ijodkor insonning qobiliyati, iste'dodi, ichki kechinmalarining bahosi qanday bo'ladi? Buning javobi qiyin. Tug'ma iste'dodni, qobiliyatni, adabiyotni baholab bo'lmaydi. Har kim o'zicha baho beradi, o'z dunyoqarashi doirasida qabul qiladi.

Millati, yurti, xalqining dard-u tashvishini, yutuqlarini yurak-yuragidan, qalb qo'ridan chiqarib qog'ozga tushirgan inson ijodining bahosi ancha mushkul bo'ladi. Mana sizga adabiyotning bahosi.

Adabiyot (arabcha — odoblar yig'indisi) — umum-insoniy ma'naviyatning tarkibiy qismi, adabiy faoliyat

Biz shoir deganda, avvalo Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari o'z xalqi uchun nafaqat noyob iste'dodi, ayni paytda butun hayotini bag'ishlagan buyuk va mo'tabar insonlarni tasavvur etamiz.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

«Adabiyotga e'tibor — kelajakka e'tibor»

natijasi, jamiyat hayoti va uning takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etadigan ijod sohasi. Adabiyot ikki ma'noda qo'llanadi: 1) keng ma'noda — barcha kitob turlari, gazeta va jurnallarga nisbatan; 2) tor ma'noda — badiiy adabiyot, turli janrdagi badiiy asarlar majmuyidir.

Badiiy adabiyot kishilik taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida yuzaga kelgan bo'lib, dastlab og'zaki ijod namunasi sifatida yaratilib, tildan tilga o'tib, boyib, sayqallanib borgan. Yozuv paydo bo'lgach, odamlarda yozma nutq, yozuv madaniyati rivojlanishi bilan yozma badiiy adabiyot ham shakllana boshladi. Badiiy adabiyot har qaysi xalq ma'naviyatini avlodlardan avlodlarga olib o'tadigan asosiy vositalardan biriga aylandi. Og'zaki va yozma adabiyot qaysi xalqqa mansubligidan kelib chiqib, o'sha xalq nomi bilan qo'shib yuritiladi.

Umumta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishning bosh maqsadi e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini ang'laydigan, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiq, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlarini boshqara oladigan komil insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir.

Barcha davlatlarda Vatan tushunchasi va vatanparvarlik g'oyalari mavjud bo'lib, bunday tuyg'ular davlat

«Badiiy asar shunday daraxtki, uning shohida umumbashariy mevalar yetiladi, ildizi esa milliy zaminda yotadi».

O'tkir Hoshimov

«Soʻz insonning qiymati qadar qadrlidir».

Jaloliddin Rumi

manfaatlariga, xalq tafakkuri, hayot tarzi va ruhiyatini shakllantirish masalasiga bevosita bogʻliq.

Dunyo tamadduniga ulkan hissa qoʻshgan Xitoy hikmatlarida, Yaponiyaning taʼlimga qaratgan eʼtiborida, Koreya taraqqiyotining bosh maqsadi asosida ham vatanparvarlik gʻoyalari uygʻunligini koʻramiz. Vatanparvarlik gʻoyalari adabiyot darslarida oʻrgatilar ekan, yoshlarni tinchlik va osuda hayot qurish, boshqa xalqlarning udumlarini, anʼanalarini, umumbashariy qadriyatlarini hurmat qilish orqali barqaror hayot sari ilhomlantiradi.

Badiiy asarni oʻrganish orqali yoshlar vatanparvarlikni oʻzida namoyish qilishga urinadi, asardagi qaysidir bir qahramonga xos vatanparvarlik hissini oʻzlashitirib oladi.

Kishilik jamiyat taraqqiyoti jarayonida koʻplab avlodlar tafakkuri va aql-zakovati bilan yaratilgan maʼnaviy meros, maʼnaviy boyliklar, koʻhna tarixiy yodgorliklar — bularning barchasi xazinalar kaliti hisoblanadi. Bu yozma



IJODIY FAOLIYAT

1. Tasavvur qiling, Sizning bir yaqin doʻstingiz ijod qiladi. U yozgan sheʼrlar shunchalik taʼsirliki, oʻqib oʻyga tolasiz. Shunday vaziyatda qalbingizda qanday hislar kechadi?
2. Vatandoshimiz boʻlgan bir alloma hayoti haqida xorijiy telekanallar orqali maxsus telekoʻrsatuv namoyish etilmoqda. Bu holatni koʻrganingizda sizni faxr tuygʻusi qurshab oladimi? Nima uchun?
3. Buyuk maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning quyidagi soʻzlarini izohlang:

«Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmakdur».

«Har kim fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim oʻzi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir».

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 29-moddadan

manbalar millatning oʻzligini anglashiga xizmat qilishi, uning nafaqat oʻtmishi, balki hozirgi kuni uchun ham maʼnaviy qadriyat sifatida qaralishi tabiiy hol.

Masalan, qariyb uch ming yillik tarixga ega bebaho maʼnaviy obida — «Avesto», xalq ogʻzaki ijodining noyob durdonasi boʻlgan «Alpomish» dostoni, buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Muhammad Muso Xorazmiy, Al-Fargʻoniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, jadid bobolarimizning asarlarini ulkan maʼnaviy-maʼrifiy, ilmiy, ijtimoiy-falsafiy meros deb olishimiz mumkin. Birgina «Avesto»da yaxshilik va yomonlik, ezgulik va roʻshnolik, insonning tabiat bilan uygʻunligi, farovonlik va barqaror taraqqiyotning ilk negizlari oʻz ifodasini topgan.

Maʼnaviy xazina omili hisoblangan xalq ogʻzaki ijodi ham millatning maʼnaviyati, vatanparvarlik, qahramonlik, davlatchilik bilan bogʻliq bilim va tajribalarni oʻzida mujassam etib, bebaho maʼnaviy xazina sifatida bugungi kunda ham mamlakatimizning har tomonlama taraqqiyoti, yorugʻ istiqboliga xizmat qilib kelmoqda.

Biron-bir xalq maʼnaviyatiga xos boʻlgan qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi adabiyot orqali, badiiy asarlar orqali ayon boʻladi. Shuningdek, boshqa xalqlar tomonidan badiiy asarlar orqali

«...Bu koʻhna yurtida tugʻilib ijod qilgan Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xoʻjayev, Sadridin Ayniy singari koʻplab maʼrifat fidoyilarining ibratli hayoti bugungi kunda ham yurtimizda yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalash, maʼnaviyatimizni yuksaltirishda bizga beqiyos kuch bagʻishlab kelmoqda».

Shavkat Mirziyoyev

«...adabiyot va sanʼatga, madaniyatga eʼtibor — bu avvalo xalqimizga eʼtibor, kelajagimizga eʼtibor ekanini, buyuk shoirimiz Choʻlpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yoʻq».

Shavkat Mirziyoyev

bayon qilingan ijod namunalari ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmatni ifodalaydi. Bunday eʼtirof xalqning gʻurur va iftixori, milliy oʻzligini yanada yuksaltirishga, adabiyotdan faxrlanish, maʼnaviy fazilatlariga eʼtiborni oshiradi. Adabiyotning kuchi ham, quroli ham shunda koʻrinadi.

Xalqimizning avlodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan nihoyatda qadimiy, boy adabiy-madaniy merosi bor. U xalqimizning urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayramlari, qadimiy bitiklar va arxeologik topilmalar, xalq ogʻzaki ijodi, yozma badiiy adabiyot namunalari, tasviri va amaliy sanʼat hamda musiqa durdonalari, betakror meʼmoriy obidalaridan iborat.

Dars sabogʻi. Adabiyot — maʼnaviyatli va maʼrifatli insonni, eng avvalo, jahon hamjamiyatiga faol va tabiiy ravishda kirib borishi uchun oʻzining tinchlikka teng hamkorlikka, demokratiyaga, inson huquqlariga, asl umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanini koʻrsatuvchi eng samarali vositadir.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Adabiyotning inson maʼnaviyatida tutgan oʻrni qanday?
2. Adabiyot orqali qanday insoniy xarakter shakllantiriladi?
3. «Adabiyot yashasa, millat yashaydi», degan fikrni asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Tafakkur bulogʻining zilol suvlari. Ular nimalar?



12-§

Ekologik madaniyat va ma'naviyat uyg'unligi



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Inson ma'naviyatini shakllantirishga ekologiya-ning qanday aloqasi bor?
2. «Ekologik madaniyat» tushunchasiga ta'rif bering.
3. «Ekologiya himoyasi — insoniyat himoyasi», degan fikrni izohlang.
4. Quyidagi rasmlarga qarang. Ekologiya himoyachisi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?



Insonning barkamolligi, madaniyatligi tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki uning dunyoqarashi, ma'naviy-ma'rifiy salohiyati bilan belgilanadi.

Ekologik madaniyat — bu atrof-muhit to'g'risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatishga, tabiat zaxiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir.

Iste'moldan ortiqcha suv oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar-joylarni ozoda saqlash, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi.



«Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa (ya'ni davlat yerlarini boshqaruvchi mahkama) tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar solsinlar, yo'l ustida, har bir manzilgohda rabotlar qursinlar».

«**Temur tuzuklari**»

Bugungi kunda ekologik jarayon murakkab kechayotgani uchun u jamiyat a'zolaridan yangicha fikr-lashni, dunyoqarashni, axloqiy, madaniy, ma'naviy yetuklikni talab qiladi. Shu bois ekologik ta'lim va tarbiyani insonga singdirmasdan turib, uni ma'naviy yuksak fazilatlarga ega inson deb ayta olmaymiz.

Bunda eng dolzarb vazifa atrof-muhitni, tabiatni as-rash, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni bir yaxlitlikda tushunishni shakllantirishdan iborat.

Ona-tabiatni muhofaza qilish, asrab-avaylash, tabiiy boyliklarni e'zozlash, atrof-muhitni toza va pokiza saq-lash va mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish in-sonning davlat, jamiyat va qolaversa, o'z oldidagi asosiy burch hamda mas'uliyati hisoblanadi.

Shu bois yoshlarda ekologik madaniyatni shakllan-tirishga va bu sohada xalqimizning boy merosidan keng foydalanishga alohida e'tibor berish lozim.

Ajdodlarimizning qadimgi va boy ekologik mada-niyat sohasida qoldirgan merosini chuqur o'rganish, ona tuproqni, suvni, havoni, tabiatni asrab-avaylash, musaf-fo holda avlodlarga qoldirish, yoshlarda ekologik mada-niyatni shakllantirish muammolari tobora dolzarb bo'lib borayotganligi sababli atrof tabiiy muhitga ehtiyotkoro-na munosabatda bo'lish masalasi hatto Konstitutsiyamiz-da ham keltirib o'tilgan.

Bu bo'yicha O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov kuyunchaklik bilan quyidagilarni ta'kidlagan edi: *«Asrlar tutash kelgan pallada butun in-soniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish, o'z-o'zini mahkum etish bilan barobardir...»*

Ajdodlarimiz ekologik muhit buzilishining oldini olishga harakat qilishgan, tabiatga nihoyatda ehtiyotkor bo'lishgan, uni ko'z qorachig'idek asrashgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Saydana» asarida o'simliklarning 1118 turi, shu jumladan, dorivor o'tlarning 750 turiga hamda hayvonlarning 101 turiga batafsil ta'rif beriladi. U o'z ishida arab, yunon, hind, fors, so'g'd va boshqa tillarga oid 4500 ta o'simlik, hayvon, mineral nomi va ulardan olinadigan mahsulotlar haqida ma'lumot to'plab, o'sha davr dorishunoslik atamalarini tartibga solishga o'zining katta hissasini qo'shgan. Uning ilmiy daholigi shundaki, tadqiqotlari, tajribalarida tabiatdagi barcha hodisalar muayyan tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, tashqi kuchning ta'siri uni izdan chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi.

Xalqimizning tarixiy-adabiy yodgorligi «Avesto»ga e'tibor beradigan bo'lsak, ajdodlarimiz atrof-muhitga, ona zaminga nihoyatda ehtiyotda bo'lib, uni asrab-avaylaganligiga guvoh bo'lamiz. Nafaqat ehtiyot bo'lganlar, balki havo, yer, suvni muqaddas hisoblaganlar. Hayotning tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganligi yana bir bor e'tiborimizni tortadi.

Orolning ekologik halokatini dunyo miqyosidagi fojia deb atash mumkin. Bu fojiani mamlakatimiz va qardosh davlatlar yakka holda bartaraf eta olmaydi. Buning uchun faqat birlashib, qardosh davlatlar uyg'un holda ish yuritsagina ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shu yurt-da tug'ilib o'sgan inson hech qachon o'z yurti taqdiriga befarq qarab tura olmaydi. Insonning vatanparvarligi

«Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar».

**O'zbekiston
Respublikasining
Konstitutsiyasi,
50-modda**



**BILIB
OLING!**

Beruniyning «Agar insonlar tabiatga nisbatan zo'ra-vonlik qilib, uning qonunlarini qo'pollik bilan buzsalar, bir kun kelib, tabiat ularning boshiga shunday kulfatlarni solishi mumkinki, buni hech qanday kuch qaytara olmas», degan hikmati bugungi global ekologik muammolarning bundan ming yil oldin bashorat qilinganini ko'rsatadi.

ham, asl insoniyligi ham shunday vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Haqiqiy ma'naviy-axloqiy fazilat egasi bo'lish uchun har qanday muammolarni o'zining muammosidek ko'rish lozim. Demak, biz shu yurtni barchamiz uchun umumiy maskan debgina emas, balki barchamiz uchun yagona qalb deya idrok etishimiz lozim.

Bir mintaqaga yoyilgan muammo ma'lum bir millatning, insonning, davlatning emas, mintaqaning muammosiga aylanishi, odamlarning bir-biriga sherik bo'lish va hamkorlikda uni bartaraf etishni talab etadi. Bu jarayonda ma'naviy sifatlar asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi lozim.



IJODIY FAOLIYAT

1. Siz atrof-muhitga biror ziyon yetganda, uni bartaraf etish qo'lingizdan kel-sa, qanday yo'l tutasiz? Buning oldini olish sizga qanday foyda keltiradi?
2. Quyidagi vaziyatni o'qing va Karimning xatti-harakatlariga o'z fikringizni ayting.

Karim maktabdan qaytayotganida qo'shnisining suv nasosi buzilib, krani-dan tinmasdan suv oqishi oqibatida butun hovlining suvga g'arq bo'lgani va hat-to orqa qo'shnining devori ham ag'anashdan beri bo'lib qolganini ko'rdi. Biroz to'xtab qarab turdi. «Uyda hech kim yo'q, shekilli», deb qo'ydi. Indamay o'tib ket-di. Uyga bordi, kiyimlarini almashtirdi, ovqatlangandan so'ng maktabdagi shah-mat to'garagiga borish vaqti kelganini eslab, yana maktabga qaytdi. Endi qarasa-ki, suv bosgan qo'shnining uyida odam to'la. Yon qo'shnisining devori ag'anagan. Suv bosgan hovlidagi jamiki narsalar, ekilgan va tuvakka o'rnatilgan gullar tiklab bo'lmas holga kelib qolgan. U ham qo'shni hovliga kirib: «Voy-bu, hamma yoq rasvo bo'libdi-ku, nega darvozani, suvni ochib ketib qoldingiz?» dedi. Qo'shni qiz: «Darvoza ochiq qolganini qayerdan bilding? Sen suv oqayotganligini ko'rganmi-ding?» — deganida qizarib ketgan Karim na «ha» va na «yo'q» deyishini bilmay qoldi. Vaqtida kran jo'mragini ochirmagani uchun afsuslandi.

Bugungi kunda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam huquqiy asos yaratildi. O'zbekistonda bu sohada o'ttizga yaqin muhim qonun va yuzlab qonunosti normativ hujjatlar qabul qilindi. «Ekologik nazorat to'g'risida»gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarda jamiyat a'zolarida ekologik madaniyatni shakllantirish, mamlakatda atrof muhitni himoya qilish o'z aksini topdi.

Dars sabog'i. Bugungi kunda ekologik ta'lim va tarbiyani insonlar ong-u tafakkuriga singdirmasdan turib, yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli jamiyat qurib bo'lmaydi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Kelajagimiz ertasi bo'lmish barkamol avlod tarbiyasida ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. «Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi», degan fikrga qanday qaraysiz?
3. Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni asrash, tabiatni himoya qilish bo'yicha qanday sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda?

«Eng muhim masala — aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin».

Shavkat Mirziyoyev



CHISTON-TOPISHMOQ

U tinch, odamzod tinch. U notinch, odamzod hayoti xavf ostida. Ular nimalar?



Yoshlar faoliyatida yuksak ma'naviyatni shakllantirish



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Yoshlar ijtimoiy faoliyatining asosini nimalar tashkil etadi?
2. «Men shu aziz yurt farzandiman, men ulug' zotlarning avlodiman, buyuk tarix va madaniyat egasiman», degan haqiqiy milliy g'urur tuyg'usi shakllanishi uchun yoshlarda qanday fazilatlar qaror topishi kerak?
3. Rasmlarga qarab bu yoshlarni nima birlashtirib turgani haqida fikr yuriting.

B

ola tug'ilgan kundan boshlab oila muhiti-
da yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar,
urf-odatlar bolaning komil shaxs bo'lib shakl-
lanishida asos bo'ladi. Eng asosiysi, farzandlar oilaviy
hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his
etadi. Bu bejiz emas, albatta.

Mamlakatimiz yoshlari bugun hayotimizning turli
jabhalarida shijoat bilan faoliyat yuritishmoqda. Ular —
talaba va o'quvchi, ishchi hamda shifokor, pedagog va
muhandis, ishbilarmon hamda tadbirkor. Yoshlarimiz
kompyuter texnikasi, internet texnologiyasi, bir nechta
chet tillarini mukammal egallab, rivojlangan davlatlarda
tahsil olib, jahon maydoniga chiqmoqdalar.

O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishi
uchun yuqori bilim va malakali mutaxassis kadrlarni tar-

biyalab yetishtirish taqozo etiladi. Hozirda bunday ulkan vazifani sharaf bilan bajaradigan, zamonaviy va jahonning eng ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. 2016-yil 14-sentabrda mamlakatimizda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi davlatimizning yoshlarga bo'lgan oliy g'amxo'rliqi va e'tiborining yuksak ramzi bo'ldi.



IJODIY FAOLIYAT

1. «Vatanimizning fidoyi farzandlari» deganda aynan qanday yoshlar nazarda tutiladi?
2. Jismonan sog'lom yoshlar ma'naviy sog'lom bo'lishi ham mumkinmi?
3. Quyidagi matnni o'qing va o'z fikringiz bilan bunday yutuqlarga qanday erishish mumkinligini ayting.

O'zbekistonlik yosh shaxmatchilar Minsk shahrida rapid va blits shaxmat bo'yicha bolalar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida iste'dod va mahoratini namoyish etib, yuksak g'alabalarga erishdi. Blits shaxmat bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatining o'n yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasidagi bahslarida Islombek Sindorov oltin medalni qo'lga kiritdi, Abdulbosit Sharifjonov kumush medalga sazovor bo'ldi.

Islombek Sindorov to'qqiz partiyaning sakkiztasida g'alaba qozonib, 8 ochko bilan shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. U rossiyalik Konstantin Kotelnikov, Arseniy Chumak, Vsevolod Timofeyev, Patrik Pershin, Tamerlan Chindigir, litvalik Moteus Dudnikas, ukrainalik Igor Nagorniy va jamoadoshi Abdulbosit Sharifjonov ustidan g'alaba qozondi. Islombek rapid shaxmat bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida ham muvaffaqiyatli qatnashib, ikkinchi o'rinni egalladi. U musobaqada rossiyalik Aleksandr Cherkashin, Sergey Pogorelov, Vsevolod Ponomarev, Tamerlan Chindigir, ukrainalik Oleksiy Popovski, Yuriy Xrinovski, Kemal Bashirov va vetnamlik Pan Xiem Doanni yengib, ushbu bahsda chempion bo'lgan belaruslik Mixey Naumenko bilan bir xil — sakkiz ochko to'pladi va qo'shimcha ko'rsatkichlar bo'yicha kumush medalni qo'lga kiritdi.

O'ZA materiallari

Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida faol qatnashuvini ragʻbatlantirish, ularning maʼnaviy-axloqiy, gʻoyaviy-nazariy salohiyatlarini oʻstirish uchun zarur sharoitlar yaratib berish, yoshlarning maʼnaviy ruhiyatining shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini oʻrganish hamda tadqiq etish asosida yoshlarga doir siyosatni amalga oshirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu singari qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi ijtimoiy adolat, insonparvarlik, mehr-oqibat gʻoyalariga tayanish barobarida yoshlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi asosiy tamoyillarni mustahkamlaydi. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida olib borilayotgan islohotlar yuksak darajada yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun yoʻnaltirilgan.

| | |
|---|---|
| Yoshlar siyosatining dolzarbligi | Ochiqlik va shaffoflik; |
| | yoshlarning bevosita ishtiroki; |
| | yoshlar tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish; |
| | maʼnaviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi; |
| | maʼnaviy mezonlarga eʼtibor qaratilganligi; |
| | yoshlarning kamsitilishiga yoʻl qoʻyilmasligi; |
| | jamiyat hayotidagi maʼnaviy oʻzgarishlarda oldingi saflarda boʻlishi; |
| | ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va maʼnaviy sohalardagi islohotlarni amalga oshirishda faol ishtiroki va hokazo |

Mazkur hujjatda yuksak milliy qadriyatlar va sifatlarni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi-ning milliy oʻz-oʻzini anglashni rivojlantirish, kasbiy mahoratga intilish, mehnatga va uzluksiz ravishda malakasini oʻstirib borishga undovchi sifatlarni qaror toptirishga alohida eʼtibor qaratilgan. Xususan, oilaviy hayotga tayyorlash, otana va qondosh-qarindoshlar, oila oldida masʼuliyat va javobgarlik hissini tarbiyalash kabi masalalar oʻz ifodasini topgan.

Barkamol avlodni tarbiyalash — yoshlarning ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirish asosidir. O'zbekiston yoshlar mamlakatidir. Shu jihatdan olib qaraganda, davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyoti bugungi yoshlarning bilimiga, g'ayrat-shijoatiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg'usining qanchalik yuksakligiga, komillik darajasiga bog'liq. Kelajagimiz erkin fikrlaydigan, mustaqil ish yurita oladigan, chet tillaridan yaxshi xabardor, yuqori texnologik tafakkurga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan, kerak bo'lsa, Vatan uchun jonini fido qila oladigan yoshlarni talab etadi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchisi — Ijtimoiy sohani rivojlantirishning mazmun-mohiyatida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash; yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish natijasida jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishdek dolzarb masalalar nazarga tutilganligi bejiz emas.

Faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyati va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z oldiga qo'ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishlari mumkin.

Tabiiyki, har bir davlat o'zining yoshlari bilan g'ururlanadi. Buning sabablari bor albatta. Bizning mamlakatda bular:

- ➔ yoshlar mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda asosiy kuch sifatida ishtirok etishmoqda;
- ➔ 32 milliondan ortiq aholining 10 millionini yoshlar tashkil etmoqda;
- ➔ bugungi kunda yoshlarimiz orasidan jahon va qit'a chempionlari, xalqaro fan olimpiadalari, festival va tanlovlar g'oliblari yetishib chiqishmoqda.

«Yoshlarimizning haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir boʻlgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga gʻurur va iftixor bagʻishlaydi».

Shavkat Mirziyoyev

«Men mamlakatimizdagi maktablarda bir necha bor boʻlganman. Har safar bolalarning yonib turgan koʻzlarini koʻrganman — bu Oʻzbekiston rahbariyatining taʼlim sohasidagi siyosatining eng yaxshi natijasidir».

**Mixail Lomonosov
nomidagi Moskva
davlat universiteti-
ning rektori
V. Sadovnichiy,
Rossiya Federatsiyasi**

Bizning Konstitutsiyamiz axloqiy qadriyatlarni mustahkam asosga qoʻygan qomusimizdir. Unda milliy qadriyatlarimiz oʻzining rivojini topgan. Masalan, Asosiy Qonunimizning 45-moddasida «Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolgʻiz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir» deyiladi.

Dars sabogʻi. Bugungi kunga kelib, farzandning ota-ona oldidagi burchi, ota-onaning farzand oldidagi masʼuliyati milliy qonunchilik asosida mustahkamlab qoʻyilgani Oʻzbekiston yoshlarining milliy anʼana va qadriyatlarimizni hurmat qilishda, maʼnaviy fazilatlarini oʻzida qaror toptirishda mustahkam zamin vazifasini oʻtaydi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida sizning hissangiz qanday?
2. Yoshlarda huquqiy, axloqiy, maʼnaviy madaniyatning uzviy aloqadorligi nimalarda aks etadi? Misollar bilan tushuntiring.
3. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlar qanday oʻrin tutishmoqda. Fikringizni izohlang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Goh yer kabi yaqin, goh osmon kabi uzoq. U nima?



14-§

Globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatga qarshi tahdidlar



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. «Globallashuv» atamasining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering. Rasmlarga qarab fikringizni asoslang.
2. «Globallashuv bu avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi», deganda nimani tushunasiz?
3. Globallashuvning jamiyatga, davlatning ma'naviy yuksalishiga qanday ta'siri bor? Fikringizni asoslang.

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz milliy manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, mustaqillikni mustahkamlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunday sharoitda davlatning ma'naviy-axloqiy negizlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy merosining mavqeyini saqlab qolishga erishish lozim. Zero, milliy davlatchiligimiz asoslarida milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida shakllantirilgan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yotadi.

Globallashuv (lot. globus — shar, yer sayyorasi) — XX asrning ikkinchi yarmi — XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi,



«Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, nar-kotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mamlakatlarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda».

Shavkat Mirziyoyev

axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha.

Shuningdek, bu tushuncha jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, birlashuvi, voqea-hodisalarning bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo'lishi, butun yer sharini qamrab olishi bilan xarakterlanadi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov globallashuv atamasiga quyidagicha ta'rif beradi: «Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmashligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv bu — avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir».

Milliy ma'naviyatga qarshi tahdidlarning negizini umuminsoniy va milliy axloq, qadriyat, madaniyat, din va tarbiya asoslariga zid bo'lgan, inson shaxsining tubanlashuvi, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy me'yorlarga rioya etmaslik bilan bog'liq jarayonlar tashkil qiladi.



IJODIY FAOLIYAT

1. Globallashuv sharoitida jamiyatimiz hayotining ma'naviy yangilanishiga salbiy ta'sirdan saqlanish choralari nimalardan iborat?
2. Mafkuraviy tahdid ta'siriga tushib qolgan insonni qanday qilib yot mafkuradan xalos etish mumkin?
3. Quyidagi fikrni o'qing va o'z munosabatingizni bildiring.

D. Vilkersonning fikricha, G'arb jamiyatida axloqiy buzuvchilik avj olib borayotganiga sabab kabel televideniyesi orqali g'ayriinsoniy illatlarning keng targ'ib etilayotganligida. Eng xatarlisi shundaki, G'arb mamlakatlari o'z dunyoqarashi, andozalari va hayot tarzini turli-tuman vositalar, xususan, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir orqali o'zga millat va xalqlar turmushiga tiqishtirishga urinmoqda.

Dunyo davlatlari, muayyan kuchlar, markazlar, shaxslar tomonidan o'z manfaatlarini g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan ta'minlash, g'arazli maqsadlarni ko'zlab, mamlakati va o'zga davlat xalqi, ayniqsa, yoshlarini chalg'itish, ularning ongiga g'ayriinsoniy va g'ayriaxloqiy g'oya va qarashlarni singdirishga xizmat qiladigan usul va texnologiyalardan foydalangan holda turli tahdidlarni amalga oshiradi.

Shu bois g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga nisbatan sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash mamlakatimiz manfaatlari, milliy an'ana va qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlarning maqsad-muddaolarini teran anglash imkonini beradi, ayniqsa, yoshlarimizni bu kabi xavf-xatarlardan himoya qilish, ma'naviy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tahdidlar deganda tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi insonning erkin bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni tushunamiz.

Shuningdek, ma'naviy tahdidlar vayronkor kuchlarning o'z moddiy, siyosiy manfaatlarini ko'zlagan holda har xil markazlar tomonidan biron bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan ma'naviy buzg'unchilikning muayyan shaklidir. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning ma'naviy-ruhiy hissiyotlari, milliy tuyg'ulari, har qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy muammolardan, shuningdek, zamonaviy texnologiya, telekommunikatsiya, OAV, Internetdan ustalik, g'irromlik, noxolislik bilan foydalanishga harakat qiladi.

Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz, tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlari, jismonan va ma'nan sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

| TAHDIDLAR | |
|--|---|
| IChKI | TAShQI |
| Loqaydlik, qonunga rioya etmaslik, sotqinlik, mahalliychilik, korrupsiya, boshqalarni mensimaslik, xasad, sotqinlik, befarqlik, mas'uliyatsizlik va h.k. | Fundamentalizim, shovinizim, fashizm, «om-maviy madaniyat», yot g'oya va mafkuralar, g'oyaviy bo'shliq, ma'naviy va axloqiy tubanlik, axloqiy buzuqlik va zo'ra vonlik, egotsentrizim, narkobiznes, separatizm, irqchilik, milliy-ma'naviy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash va h.k. |

Globalashuv jarayonlari ilm, fan-texnika, iqtisodiyot va boshqa sohalar bilan bir qatorda, davlat boshqaruvini demokratlashtirish masalasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Globalashuv jarayonlari natijasida milliy o'zlikka xavf soluvchi multimadaniyat kirib keldi. Endilikda uning ta'siri ostida har bir millatga xos bo'lgan xususiyatlar umumiy madaniyat bilan qorishib ketmoqda. Eng achinarlisi, uning ta'siriga yoshlar tushib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatning ma'naviy-axloqiy yuksalishi, fuqarolar, xususan, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti masalasiga katta e'tibor qaratilib, bu yo'nalishdagi ishlarning ko'lamini yanada kengaytirishda aniq maqsad va vazifalar belgilandi. Davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan bu yo'nalishdagi dasturlar, chora-tadbirlar natijasida, avvalo, o'zlikni anglash, tarixiy va milliy qadriyatlar, qadimiy urf-odat va an'analarimizni tiklash va ularni yanada boyitish, ajdodlarimiz ruhiga hurmat va ehtirom ko'rsatish, tarixiy obidalar va qadamjolarining qayta tiklanishi va, eng muhimi, milliy istiqloq g'oyasiga asos solinishidek qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Fuqarolik jamiyati rivojida globalashuvning ta'siri

Globalashuvning ijobiy tomoni nimalarda ko'rinadi:

Davlatlar va xalqlar o'rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalari kuchaymoqda, kapital, tovarlar erkin harakati uchun katta qulayliklar yaratib berilmoqda, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, ilm-fan yutuqlari tezlik bilan tarqalmoqda, qadriyatlar umuminsoniy negizda uyg'unlashmoqda. Shu bilan birga, sivilizatsiyalararo muloqot yangicha sifat kasb etmoqdaki, buning natijasida ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlari ortib bormoqda va h.k.

Globalashuvning salbiy tomoni nimalarda ko'rinadi:

Insoniyatni o'zaro ziddiyatlar girdobiga olib boruvchi, ma'naviyatni qashshoqlashtiruvchi, oxir-oqibatda uni og'ir fojialarga olib boruvchi yangi «qadriyatlar» shakllanishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda dunyodagi turli mintaqa xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni singdirish maydoniga, mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda. Markaziy Osiyoda diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan qo'poruvchilik harakatlari kuchayishiga olib keldi va h.k.



BILIB OLING!

Globalashuvning zararli oqibatlariga qarshi tura olishda:

- milliy intellektual salohiyatni oshirish;
- milliy-ma'naviy merosni yoshlar ongi va dunyoqarashining ajralmas qis-miga aylantirish;
- yoshlarga milliy o'zligini anglatish va ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish;
- tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish, tarixga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- oila sha'ni, mahallasiga bo'lgan mehr-muhabbat, kitob o'qish, bilim va ma'rifatlilikni targ'ib qilish;
- milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizga hurmat va ehtiromni tarbiya-lash lozim.

Dars sabog'i. Jamiyat rivojiga salbiy ta'sir etadigan, ayanchli oqibatlarga olib keladigan mafkuraviy tahdidlarga qarshi jamiyat a'zolari, avvalambor, yoshlari-mizning chuqur va har tomonlama bilim olish orqali imon-e'tiqodini mustah-kamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barka-mol insonlar etib tarbiyalash lozim.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bugungi kunda ma'naviy hayotimizga xavf solayotgan qanday illatlarni globallashuv ta'siri deb bilamiz?
2. «O'z uyingni o'zing asra» degan fikrni qanday izohlaysiz?
3. Qanday xatarlar biz uchun kichkina bo'lib ko'rinsa-da, lekin uning oqi-batlari katta bo'ladi, zararini qoplab bo'lmaydi? Fikringizni asoslang.



CHISTON-TOPISHMOQ

Ko'pincha insonlarni noto'g'ri yo'lga boshlaydi. U nima?



15-§

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda media madaniyatning ta'siri



FAOLLASHTIRUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. «Internet», «media madaniyat» va «axborot xavfsizligi» tushunchalariga ta'rif bering.
2. Hazrat Alisher Navoiy bobomizning «Agar ogohsen sen, shohsen sen», degan bebaho hikmatida qanday ma'no mujassam bo'lgan?
3. Bugungi kunda media madaniyatning jamiyat ma'naviyatiga ta'sirini nimalarda sezish mumkin? Rasmlar orqali fikringizni asoslang.



Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat unsurlarini bilish bugungi dolzarb vazifa hisoblanadi. Biz yuqori texnologiyalar davrida yashayapmiz: istalgan ma'lumotni, o'zimizga zarur bo'lgan har qanday axborotni izlashda turli xil ijtimoiy-siyosiy gazetalar, kitoblar va teleko'rsatuvlardan ko'ra internetni ma'qul ko'ramiz. Nega shunday? Chunki internetdagi ma'lumotlar tez-tez yangilanib turadi va, eng asosiysi, foydalanishimiz hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

Hazrat Alisher Navoiy bobomiz axborotning shaxs, jamiyat hayotida tutgan ahamiyatini yuksak baholab, bundan besh asr oldin «Agar ogohsen sen, shohsen sen», degan bebaho satrni yozib qoldirgan.

Axborot texnologiyalari keskin rivojlanib berayotgan sharoitda axborot xavfsizligi shaxs, jamiyat, davlatning milliy manfaatlarini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, har bir axborot tagida manfaat yotadi. Ammo axborotdan milliy va xalqaro manfaatlarga zid kelgan holda foydalanish jinoyat hisoblanadi. Bugungi kunda esa axborot dunyoning ayrim mamlakatlari hamda xalqaro terroristik tashkilotlari qo'lida asosiy va dahshatli qurol vositasiga aylanib bormoqda. Buning asosiy sababi — axborotning odamlar e'tiboriga eng qulay, eng tezkor va eng samarali yetib borishidir.

Jamiyatimiz hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan, ta'lim sohasidagi taraqqiyotini internet, televideniye, radio va ommaviy nashrlarsiz tasavvur qila olmaymiz.

Dunyoda yuz berayotgan turli voqealar va ma'naviyatimizga zid bo'lgan ma'lumotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelmoqda. Ba'zi yoshlar bu ma'lumotlarga o'zlari bilmagan holda ishonishmoqda, bu esa ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yoshlarimizning media-savodxonligini oshirishda ommaviy-axborot vositalarining roli kattadir. Ular orqali turli xil ko'rsatuvlar tashkil etib borish, dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar haqidagi fikrlarini o'rganish, tahlil qilish yoshlarni to'g'ri yo'naltirib borishning eng samarali yo'lidir.

Bunda yoshlar internet tizimlaridan foydalanganida, o'zimizning rasmiy (filtrdan o'tgan) va ishonchli saytlarimizdan ko'proq foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik sohalarda jiddiy o'zgarishlar jarayoni, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasidagi keskin taraqqiyot axborot resurslarining rivojlanishiga olib keldi. Bu esa iste'molchilardan axborotdan unumli foydalanishni talab etadi.



**BILIB
OLING!**

Inson xotirasi telefon orqali 10 foiz ma'lumot qabul qiladi. Video orqali esa 60 foiz ma'lumotni singdirar ekan.

Mediabozorda tayyorlovchi, axborot (mahsulot) yetkazib beruvchi va iste'molchi ish-tirok etadi. Tayyorlovchi bu g'oya muallifi — materiallarni to'playdi, tahlil qiladi, mediamatnni tayyorlaydi, uzatadi; mahsulot (axborot) — matn, belgi, surat va ramzlarda ifodlangan ma'lumot; yetkazuvchi(kanal) — axborotni uzatish vositasi (media); iste'molchi — axborotni oluvchi, o'rganuvchi, talqin qiluvchi shaxs.

«Bugun zamon shiddat bilan o'zgar-moqda. Hayot barchamizdan dadil harakatlarni, faol tashabbuslar-ni, hamma sohada haqqoniy va odil munosabatni talab etmoqda. Ko'pni ko'rgan, sabr-toqat-li, mehnatkash va olijanob xalqimiz amalga oshirayotgan ana shunday muhim o'zgarishlarning na-tijasini kutmoqda».

Shavkat Mirziyoyev



BILIB OLING!

Begona kompyuterda elektron pochta yoki boshqa xizmatlardan foydalanganingizda, ushbu xizmatlardan chiqishni unut-mang. Aks holda, begonalar sizning maxfiy ma'lumotlaringizdan foy-dalanishi, buyurtma-lar yoki talabnomalar yo'llashi mumkin.

Internet veb-sahifalarida turli ma'lumotlar joylash-tiriladi. Bu hujjatlar, jadval, diagrammalar, rasm, audio, videolavhalar, kitob va jurnallar, hujjatli hamda badiiy filmlar va boshqalardir.

Hozirda ijobiy xarakterdagi axborot bilan bir qator-da salbiy axborotni inson, xususan, yoshlar ongiga sing-dirishning usul va vositalari aynan internet vositasida amalga oshirila boshlandi.

Internet paydo bo'lishi bilan uning jamiyat axloqiga ta'sir etuvchi muayyan bir jihatlari xususida turli bahslar bo'lib o'tgan. Globallashuv, ya'ni turli xil madaniy sha-roitda istiqomat qiluvchi va turli tarbiyaga ega odamlar-ning muloqotda bo'lishi oqibatida milliy qadriyatlarining qadrsizlanishiga olib kelishi namoyon bo'la boshladi. Shuningdek, axborotning yashin tezligida tarqalishi o'z navbatida haqiqiy axborotni yolg'onidan ajrata olmaslik-ka, turli xil salbiy mazmundagi ma'lumotlarning yoyili-shiga, agressiv, zo'rvonlikka undovchi saytlarning pay-do bo'lishiga olib keldi.

Zero, ma'naviyatli-madaniyatli inson hech qachon sayt, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqa-li haqoratli, bevosita inson ruhiyatiga salbiy ta'sir etadi-gan so'zlarni yozmaydi. Chat va forumlar orqali muro-jaatlarda so'z odobi doirasidan chiqmaydi.

Shunday ekan, internetdan foydalanganda nimalarga e'tibor qaratish kerak:

- ➔ tinchlikka xavf soladigan, buzg'unchilik xarak-teriga ega bo'lgan, boshqa foydalanuvchilar va uchinchi shaxslarning shaxsiy hayotiga daxl qi-ladigan har qanday axborotni yuklash, saqlash, chop etish, tarqatish va boshqa holatlarda foyda-lanish;
- ➔ voyaga yetmaganlarning huquqlarini buzish;
- ➔ hayvonlarni qiynoqqa solish va zo'rvonlik aks etgan, shunga undovchi tasvirlarini yuklash;

- irqiy, diniy, etnik dushmanlikni targʻib qiladigan gʻoyani aks ettirish;
- jinoyatchilik faoliyatini targʻib qilish uchun koʻrsatmalar berish;
- cheklangan axborotni joylashtirish;
- giyohvand moddalarni tarqatish yoʻllari, ularni tayyorlash usullari haqidagi axborotni joylashtirish;
- firibgarlik xarakteriga ega boʻlgan matnlarni joylashtirish.

Media madaniyat ommaviy axborot vositalari (avvalo, televideniye, keyin matbuot, radio, internet) taʼsirida shakllangan madaniyat. U insonning axborotga boʻlgan ehtiyojini taʼminlaydi, odamlarning qiziqishlarini boshqaradi, oʻziga mehriyodek jalb qiladi, taʼsirchanlikning turli-tuman koʻrinishlarini, usul va vositalarini ishga soladi.

Bugun yoshlar ong-tafakkurini media madaniyat boshqaradigan boʻldi. Birgina misol: hozir kerakmi-yoʻqmi, ishlatish uchun ehtiyoji bormi-yoʻqmi, bundan qatʼi nazar, har bir yosh avlod qoʻlida zamonaviy mobil telefoni boʻlishini xohlaydi. Kerakmi-yoʻqmi kimlar bilandir tinmay gaplashishi, yozishishi, axborot almashishi lozim. Zamon odamlarni ongi va qalbini egallash uchun keskin kurashga kirgan ekanmi, bunda media madaniyat asosiy oʻrin tutishi tabiiy.



IJODIY FAOLIYAT

1. Internetda elektron pochta yoki saytdagi forumlar orqali foydalanuvchilar bilan muloqotda boʻlganingizda nimalarga eʼtibor berasiz?
2. «Oldindan minnatdorchilik bildiraman», «hurmat bilan», «bizga ishonch bildirganingiz uchun tashakkur», «sizning fikringiz biz uchun muhim», «biz bilan muloqot uchun vaqt ajratganingizni qadrlaymiz» kabi oddiy jumalarni mediasavodxonlikka qanday aloqasi bor?
3. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlariga eʼtibor bering: «Dunyodagi zoʻravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni oʻziga tobe qilib, boʻysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi boʻlsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, yaʼni eng buyuk boyligi boʻlmish milliy qadriyatlarini, tarixi va maʼnaviyatidan judo qilishga urinadi». Media savodxonlikka ega boʻlmagan insonlarning kelajagi haqida yuqoridagi fikr bilan bogʻlab tushuntiring.

Media madaniyat jamiyatimizga o'simlikka yopishgan chirmovuc kabi yopishdi. Undan begona bo'lishning hech iloji yo'q. Endi yoshlarning media madaniyatga kirib kelishi va unga bog'lanishi jarayonini oqilona boshqarish talab etilmoqda.

Media madaniyat tushunchasi «ommaviy madaniyat» tushunchasidan farq qiladi. Media madaniyat — globallashuv jarayonining hosilasi. Shuning uchun, xuddi globallashuvning o'zi kabi, uning ijobiy tarafi ham, salbiy tomoni ham bor. Ijobiy tomonini qabul qilib, rivojlantirib, salbiy tomonidan ehtiyot bo'lishimiz, o'zimizni uning ayanchli oqibatlaridan asrashimiz zarur.

Turli xil axborotlarni izlab topish va uni tasarruf etish imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularni turli oqimlardan himoya qilish, internet tarmog'i orqali kirib kelayotgan turli xil axborot xurujlaridan ogoh etish bugungi kunning asosiy vazifasiga aylanib ulgurdi.

Dars sabog'i. Bugungi globallashuv davri yosh avloddan ijtimoiy faollikni talab qilish bilan bir qatorda, yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini har qachongidan ko'ra dolzarb darajaga ko'tarmoqda. Zero, media madaniyatga ega bo'lib borish ma'naviy qadriyatlar va axloq normalarini o'zlashtirish asosida insonlarning bir-biriga, oilasiga, jamoasiga, Vataniga va butun insoniyat taqdiriga insonparvarlik munosabatlarini namoyon qiladi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Bugungi kunda tobora ommalashib borayotgan media madaniyatning axloqiy me'yorlarga qanday aloqasi bor?
2. Yoshlar ong-tafakkurini media madaniyat orqali boshqarishning iloji bormi? Fikringizni asoslang.
3. «Axborot kimning qo'lida bo'lsa, o'sha dunyoni boshqaradi», degan fikrni qanday izohlaysiz?



CHISTON-TOPISHMOQ

Inson bilan birgadir hamma vaqt,
Lek foydasi tegmas hech bir vaqt.
Ular nimalar?

Umumlashtiruvchi dars

Hurmatli o'quvchi!

Siz o'tgan ikki yil mobaynida o'zlikni anglash, vaqtning, oilaning, Vatanning qadriga yetishni, boshqalarga nisbatan insoniy va oliyanob munosabatda bo'lish kerak ekanligini hamda mehr va muruvvat ko'rsatish lozimligini «Ma'naviyat asoslari» darsligi orqali bilib oldingiz. Ma'naviyat — bu shunchaki nazariy tushunchalar yig'indisigina emas. U millatning kuch-qudrati, qadriyatlar asosi, ezgu-maqсадlarining ifodasidir. Ma'naviyat — inson axloqi va odobi, bilimi, iste'dodi, tajribasi, vijdoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan o'zaro uyg'un bir tizim ekanligini darslikdagi mavzularni o'zlashtirish davomida anglab yetdingiz.

Ma'naviyatga bugungi globallashuv va modernizatsiyalashuv jarayonlarida millatni, xalqni, qolaversa, insoniyatni asrash va dunyo barqarorligi hamda farovonligining mezonini sifatida qaralmoqda. Jumladan, ma'naviyat jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyoti, unda voyaga yetayotgan, hech kimdan hech qachon kam bo'lmagan yosh avlodning jismonan baquvvat, aqlan barkamol bo'lib voyaga yetishuvida ham o'ta muhim ruhiy ozuqa bo'lib xizmat qiladi.

Darslikdagi mavzular doirasida Siz, aziz o'quvchi, qanday jamiyatda yashayotganingiz va bu jamiyat yuksak ma'naviy mezonlarga javob beradigan kishilar jamiyati ekanligi, unda qonun ustuvor, inson manfaatlari va qadriyatlariga alohida e'tibor qaratilishi amaliy hayotda, ayniqsa yoshlarning turmush tarzida namoyon bo'layotganligini kuzatib boringiz. Axloqiy qadriyatlarni va faol fuqaroni tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim mavzular darslikni mazmunan boyitib bergani Sizning ma'naviy-axloqiy sifatlaringizga ta'sir etgan bo'lsa, ajabmas.

Aziz o'quvchi! Darslikdan o'rin olgan adabiyot va ma'rifat bilan uyg'un tafakkur ziyolari Sizni to'g'ri yo'lga, to'g'ri maqsad va e'tiqodni shakllantirishga undaydi. Buning uchun esa bugungi kun yoshlari erkin va mustaqil fikr yuritadigan, iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli, irodasi mustahkam, bilimli, dono bo'lishi, o'z yurtining tarixi, milliy qadriyatlari hamda buyuk ajdodlari qoldirgan ilmiy hamda ma'naviy merosni ongi, qalbiga jo etib saqlamog'i darkor. Shuningdek, ushbu darslik Siz uchun tayyor tushuncha va fikrlar majmuasi bo'libgina qolmasdan,

balki hayotdan orqada qolmaslik uchun Sizni keng mushohadaga, ezgulikka chorlashi turgan gap. Siz bundanda ziyoda ilm egallab borishingiz uchun o'z ustingizda tinimsiz ishlab, yuqori marralarni ko'zlashingizga ishonamiz.

Ushbu darslik orqali olgan bilimingiz kelgusi porloq hayot yo'lingizda sizga xolis yordam beradi hamda muvaffaqiyatlar olib keladi, degan umiddamiz. Kelajakda, albatta, ma'naviyati yuksak, aqlan yetuk, ona-Vatanga sodiq, imon-e'tiqodli, mustahkam irodali inson bo'lib yetishmog'ingizga tilakdoshmiz.

Aziz o'quvchi! Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ezgu maqsadga yetishish, baxt-omadga erishish o'z-o'zidan bo'ladigan jarayon emas. Buning uchun tinimsiz mehnat, g'ayrat-shijoat, metin iroda bo'lish bilan birga, mustahkam zamin, ya'ni yurtda mustaqillik, farovonlik, tinchlik, osoyishtalik hukm surmog'i lozim. Zotan, sevimli shoirimiz Erkin Vohidov o'z she'rida ta'kidlaganidek:

Hurriyat – or-nomus, nafsoniyatdir,
Qadrin bilgan elga mangu niyatdir.
Hurriyatning o'zi tayyor baxt emas,
Baxt uchun eng buyuk imkoniyatdir.

Ilm ziyosi hayot deb atalmish baxt yulduzi yo'lingizni hamisha yoritib tursin!

Chiston-topishmoqlarning javoblari

10-SINF UCHUN

- 1-§. Go'zal xulqli, bilimli farzand.
- 2-§. Shaxsiy namunaga asoslangan tarbiya, aytganiga og'ishmay amal etish...
- 3-§. Ota-ona nasihatiga quloq solmaydigan farzand.
- 4-§. Ezgu ishlar yoki yovuz amallar natijasi.
- 5-§. Odamzod.
- 6-§. Kitob.
- 7-§. Foydali bilim, kasb-hunar.
- 8-§. Burch mas'uliyati, sadoqat yuki, tushkunlik holati.
- 9-§. Nodon, noshud kimsa.
- 10-§. Mustahkam e'tiqod va sobit iroda.
- 11-§. Tarbiya, bilim olishni istamagan o'smir.
- 12-§. Ustoz-murabbiy.
- 13-§. Go'zal xulq-atvorga asoslangan maqbul tarbiya.
- 14-§. Sharm-xayosiz kishi.
- 15-§. Fe'l-atvor.

11-SINF UCHUN

- 1-§. Kitoblarni javonga terib qo'yan, lekin birontasini o'qimagan kishi.
- 2-§. Fozil insonlar.
- 3-§. Ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi, qobil farzand tarbiyasi mas'uliyati, hayotni munosib yashab o'tish yo'lidagi harakat.
- 4-§. Go'zal tarbiya.
- 5-§. Vijdon amri, qalb nidosi.
- 6-§. Go'zal odob, xushxulqlik.
- 7-§. Noqobil farzand.
- 8-§. Hasad.
- 9-§. Toshbag'ir kimsa.
- 10-§. Aql, bilim, boylik.
- 11-§. Ma'naviyat, madaniyat, adabiyot va san'at.
- 12-§. Tabiat ofatlari.
- 13-§. Orzu-umidlar.
- 14-§. Nafs balosi.
- 15-§. So'zda qat'iyatsizlik, ishda loqaydlik, muqaddas qadriyatlarga nisbatan bepisandlik.

Mundarija

| | | | |
|-------------------------------------|----|---------------------------------------|-----|
| Kirish..... | 3 | 1-§. Inson — kishilik | |
| 1-§. Ma'naviyat — beqiyos kuch..... | 5 | jamiyatining ijodkori | 72 |
| 2-§. Inson ma'naviyati va o'zlikni | | 2-§. Ma'naviyat — millat qiyofasi ... | 76 |
| anglash | 10 | 3-§. Ma'naviy barkamollik..... | 81 |
| 3-§. Oila ma'naviyati..... | 14 | 4-§. O'zbekiston rivojining | |
| 4-§. Jamiyat ma'naviyatining | | ma'naviy-axloqiy negizlari..... | 85 |
| shakllanishida mahallaning | | 5-§. Milliy an'analarning inson | |
| o'rne..... | 19 | ma'naviyati yuksalishiga ta'siri...89 | |
| 5-§. Inson va jamiyat..... | 23 | 6-§. Ma'naviy merosning inson va | |
| 6-§. Fuqarolik jamiyatida inson | | jamiyat rivojiga ta'siri | 92 |
| tafakkuri..... | 27 | 7-§. Oila — muqaddas qo'rg'on | 96 |
| 7-§. Moddiy va ma'naviy hayot — | | 8-§. Ma'naviy qadriyatlar rivojida | |
| inson ziynati | 31 | millatlararo totuvlik | |
| 8-§. Fuqarolik mas'uliyati va | | munosabatlari | 101 |
| daxldorlik..... | 35 | 9-§. Muloqot va o'zaro munosabat- | |
| 9-§. Ma'naviy xavfsizlik..... | 40 | larda ma'naviyatning o'rne | 106 |
| 10-§. Mustahkam iroda — kuchli | | 10-§. Aqliy salohiyatning jamiyat | |
| ma'naviyat kafolati | 45 | ma'naviy yangilanishidagi | |
| 11-§. Ma'naviyat komillikka | | o'rne..... | 109 |
| yetaklaydi..... | 50 | 11-§. Adabiyot — xalq qalbining | |
| 12-§. Inson ma'naviyatida | | ma'naviy ifodasi..... | 114 |
| ma'rifatning o'rne | 54 | 12-§. Ekologik madaniyat va | |
| 13-§. Nafosat (estetika) va | | ma'naviyat uyg'unligi..... | 119 |
| ma'naviyat | 58 | 13-§. Yoshlar faoliyatida yuksak | |
| 14-§. Inson ma'naviyatini | | ma'naviyatni shakllantirish.... | 124 |
| shakllantirishda imijning o'rne | 62 | 14-§. Globallashuv sharoitida milliy | |
| 15-§. Inson ma'naviyatida | | ma'naviyatga qarshi tahdidlar.. | 129 |
| etiketning o'rne..... | 67 | 15-§. Jamiyat ma'naviyatini | |
| 10-sinfni yakunlaymiz! | 70 | yuksaltirishda media | |
| | | madaniyatning ta'siri..... | 134 |
| | | Umumlashtiruvchi dars..... | 139 |

O'quv nashri

**VAHOB QO'CHQOROV,
OBIDDIN MAHMUDOV,
ZOKIRJON ZAMONOV**

«MA'NAVIYAT ASOSLARI»

O'рта umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari va o'рта maxsus,
kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik

(O'zbek tilida)

Ikkinchi nashr

Toshkent – «Yangiyo'l Poligraf Servis» – 2018

Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10.05.2011 y.

Muharrir – J. Azimov
Texnik muharrir – M. Riksiyev
Musahhah – A. Toshpo'latov
Rassom – J. Azimov

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 23.05.2018.
Bichimi 70x90 ¹/₁₆. «Minion» garniturasida. Ofset qog'ozida.
Ofset bosma usulda bosildi.
Bosma tabog'i 9,0. Sh. b. t. 10,53.
Nusxasi
Buyurtma №

«Yangiyo'l Poligraf Servis» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 44-uy

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

| T/r | O'quvchining ismi va familiyasi | O'quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbari-ning imzosi | Darslikning topshiril-gandagi holati | Sinf rahbari-ning imzosi |
|-----|---------------------------------|------------|--------------------------------|--------------------------|--------------------------------------|--------------------------|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |
| 4 | | | | | | |
| 5 | | | | | | |
| 6 | | | | | | |

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

| | |
|------------|---|
| Yangi | Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati. |
| Yaxshi | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q. |
| Qoniqarli | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi. |